O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MANZURAXON
BALTABAYEVA

BOZOR IQTISODIYOTI VA TADBIRKOR AYOLLAR

339.13.012.42-055.2(575.1)+334.722(575.1)
84(5Ў)-5-44
Д 82

Д 82 Manzuraxon Baltabayeva. Bozor iqtisodiyoti va tadbirkor ayollar [Matn] / o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «Ijod Nashr» nashriyoti. 2026. – 208 b.

ISBN 978-9910-8605-1-5

Mas’ul muharrir:
Ahmadjon Xoliqulov,
Tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:
Xurshida Yunusova,
Tarix fanlari doktori, professor

Dilorom Bobojonova,
Tarix fanlari doktori, professor

Mazkur monografiyada O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida iqtisodiy islohotlar strategiyasi, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida bozor islohotlari, Yangi O‘zbekistonda iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari va unda xotin-qizlarning ishtiroki masalalari tahlil etilgan. Ushbu monografiyadan O‘zbekiston xotin-qizlarining davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiy islohotlardagi ishtiroki masalalari bilan qiziquvchilar, tadqiqotchilar, tarix fakulteti bakalavr va magistrantlari foydalanishlari mumkin.

Monografiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2026-yil 28-apreldagi 4-son qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-8605-1-5

© Manzuraxon BALTABAYEVA, 2026
© «IJOD NASHR», 2026

SO‘ZBOSHI

Jahon davlatlari taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti muhim ahamiyatga ega bo‘lib, kichik biznes va tadbirkorlik integratsiyalashuvi bu jarayonda eng muhim harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Eng rivojlangan mamlakatlar, jumladan, Germaniyaning qisqa vaqt ichida Yevropa iqtisodiyotining ustunlaridan biriga aylanishi, Yaponiyaning dunyoga mashhur “yapon mo‘jizasi” sifatida nom qozonishi, AQShning bugungi yuksak taraqqiyoti hamda Yevropa Ittifoqi tarkibidagi qator davlatlarning iqtisodiy yuksalishida yirik konsern va kompaniyalar emas, aynan kichik biznes va tadbirkorlik hal qiluvchi rol o‘ynadi.

Dunyo mamlakatlarida kichik biznes va tadbirkorlik sohasining o‘ziga xos jihatlari, jumladan, kapital mablag‘ sarfini kam talab qilishi, bozor iqtisodiyotining o‘zgaruvchan talablariga tez moslashishi, ichki bozorni sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar bilan to‘ldirishi, aholiga turli xizmatlar ko‘rsatish, eksport salohiyatini o‘stirish, aholining, ayniqsa, xotin-qizlarning bandligini ta’minlashdagi hissasi, shu bilan birga xotin-qizlarning kichik biznes va tadbirkorlik rivojidagi alohida o‘rni masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilmoqda. Hozirgi kunda xotin-qizlarning kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ishtiroki, ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirish, bu jarayonda uchraydigan muammolar sabablarini o‘rganish yuzasidan keng ko‘lamli tadqiqot ishlari olib borish taqozo etilmoqda.

O‘zbekistonda xotin-qizlarni huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy himoyalash, ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Xusu-

san, 2017-2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o‘rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta’minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash”[1]ga alohida ahamiyat qaratilgan. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarni kichik biznes va tadbirkorlikka keng jalb etish, moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash va bu borada erishilgan natijalarni tahlil etgan holda, mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-yanvardagi PQ-2746-son “Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 10-fevraldagi PQ-2768-son “Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish Kafolat jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2017-yil 24-maydagi PQ-2996-son “Kasanachilikni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 7-martdagi PQ-4235-son “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida hamda sohaga oid boshqa me’yoriy hujjatlarda

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni: O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida //Xalq so‘zi, 2017-yil 8-fevral.

ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Bugungi kungacha ijtimoiy fanlarning turli sohalarida mamlakat xotin-qizlarining ijtimoiy hayotdagi ishtiroki va faoliyatlari bilan bog‘liq qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan, ular xotin-qizlar masalalarini o‘rganish, mavjud muammolarning kelib chiqish sabablarini chuqur tahlil qilish va ularni hal qilishga qaratilgan takliflar ishlab chiqishda muhimdir. Sobiq Ittifoqning parchalanishi natijasida barcha fanlar doirasida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar kommunistik mafkura ta’siridan butunlay xalos bo‘ldi. Bu o‘z navbatida tarixiy voqeliklarni yoritishda yangicha yondashuv va qarashlarga keng yo‘l ochib berdi, ayniqsa, xotin-qizlarga bo‘lgan munosabatdagi tarixiy haqiqatni tiklash borasida ijtimoiy fanlarning barcha sohalarida ham ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish imkoniyati tug‘ildi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan ayollar mehnatining xalq xo‘jaligi turli sohalari bo‘yicha taqsimlanishi, xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish hamda rivojlantirish masalalari iqtisod yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqotlarda[2] aks ettirilgan. Shuningdek, tarix yo‘nalishidagi tadqiqotlarda ayollar bandligi, sanoat va qishloq xo‘jaligida qo‘l mehnati bilan mashg‘ul ayollar ulushining yuqoriligi, ularni mehnatga jalb qilish respublikada bir tekisda emasligi, ularning iqtisodiy islohotlardagi ishtiroki, davlat boshqaruvi va oilada ayollar mav-

[2] To‘qaeva Z. O‘zbekiston xotin-qizlari qishloq xo‘jaligida. – Toshkent, 1991 – 22 b.; Ирисова М. Занятность женщин Узбекистана в условиях перехода к рыночным отношениям. Автореф. дисс…канд. экон. наук.–Ташкент, 1995–23 с.; Ubaydullaeva R. O‘zbekiston: bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida ayollar va mehnat //O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent: 1995. – №9. – B.24-25.

qei, gender tengligi kabi muammolar hujjatli materiallar asosida ochib berilgan[3].

O‘zbekiston xotin-qizlarining jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy-siyosiy faolliklari, ayollarning gender va reproduktiv huquqlarining milliy va xalqaro jihatlari hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida ayollarning ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida shakllanish jarayonlariga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqot ishlari mavjud[4]. Shu bilan birga, ayollar mehnatining raqobatbardoshligi va ularning bandligini ta’minlashda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatlarining alohida o‘rni tahlil etilgan tadqiqotlar ham ahamiyatli[5].

Xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy maqomini oshirish va ularning muammolarini hal etishga qaratilgan tadqiqotlarda xotin-qizlarning kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi faoliyati tarixiylik nuqtai nazaridan tahlil etilmagan, faqat mazkur muammoning ayrim jihatlariga bag‘ishlangan maqolalar chop etilgan[6].

---

[3] Bobojonova D. Aholini ish bilan ta’minlash va milliy ishchi kadrlar tayyorlash. – Toshkent: Abu Rayhon Beruniy nomidagi TDTU, 1995.– 37 b.; O‘sha muallif. Millat g‘ururiga aylangan ayol //Fan va turmush. – Toshkent: 1996. – № 1. – B. 14; Alimova D. O‘zbekiston ijtimoiy fanlarida xotin-qizlar muammolarining o‘rganilishi va vazifalari /O‘zbekistonda oila, davlat va jamiyat qurilishida ayollarning roli va gender muammolari. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 16-20; Rashidova S. O‘zbekistonda xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash muammolari //O‘zbekistonda “Gender va rivojlanish” xabarnomasi, 1999.– № 2. – B. 17-23.

[4] Musurmonova O. Ayollarga davlat g‘amxo‘rligi. Ayolga ehtirom – Toshkent: O‘zbekiston, 1999. – 320 b.; Safaeva S. Ayollar masalasi: umumijtimoiy va milliy jihatlari. Fal. fan. nomz. diss... –Toshkent, 2002.–186 b.;Маткаримова Г. Гендерные и репродуктивные права женщин в международном и национальном праве. Автореф. дисс. доктора юрид.наук. – Ташкент, 2002. – 41 с.

[5] Рахимова Н. Конкурентоспособность женской рабочей силы //Bozor, pul, kredit. –Toshkent, 2002. – №2. – S. 84-86; Gonorskaya A. Ayollar nodavlat notijorat tashkilotlari xotin-qizlar bandligini shakllantirish manbai sifatida /O‘zbekiston xotin-qizlarining o‘tish davri taraqqiyoti va ijtimoiy islohotlardagi ishtiroki. – Toshkent: Axborot Resurs Markazi, 2002. – B. 53-56.

[6] Muravyova N. O‘zbekiston xotin-qizlari ijtimoiy maqomini yuksaltirish. – Toshkent, 2004. – 121 b.; Xolmatova M. Ayollarning nodavlat tashkilotlari: muammo va yechimlar //Fuqarolik jamiyati. – Toshkent: 2004. №1. – B. 15.

O‘zbekiston xotin-qizlarining davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni ilk bor siyosiy nuqtai nazardan o‘rganilgan tadqiqotda ayollarning iqtisodiy faolliklari ularning jamiyat siyosiy hayotida ham faollashuviga ijobiy ta’sir etishiga ahamiyat qaratilgan[7]. Unda O‘zbekistonda xotin-qizlarga oid strategik vazifalar, mamlakatni demokratlashtirish jarayonida xotin-qizlar siyosiy faolligini oshirishning huquqiy kafolatlari, ayollarda siyosiy liderlik xususiyatlari, davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar ayollar ijtimoiy faolligining oshishi, ularning oila va jamiyatda munosib o‘ringa ega bo‘lishida dolzarb ahamiyat kasb etayotgani, mazkur masalalarda ular oldida turgan muammolarning echimi yuzasidan nazariy-amaliy xulosalar berilgan.

Xorijiy davlatlarda yaratilgan adabiyotlarda bugungi kunda dunyo ayollarining tadbirkorlik sohasidagi faoliyatlari va muammolari haqida ma’lumotlar berilgan. Jumladan, ayollar tadbirkorligi bo‘yicha amerikalik ekspert Odra Shallal XXI asrda ayollar tadbirkorligi butun jahon, hattoki Yaqin Sharq va Afrika iqtisodiyotining o‘sishida hal qiluvchi bo‘g‘inga aylanganligi, Yevropa Ittifoqi davlatlari ham bu haqiqatni tan olganligi, lekin o‘qimishli, o‘zlarining biznes g‘oyalariga ega tadbirkor ayollar ko‘p sonli bo‘lishiga qaramay, ularning tadbirkorlik faoliyalarini yo‘lga qo‘yishlari oson kechmayotganligi, tadbirkor ayollarning ko‘pi maishiy sohada, ya’ni ularning 65 foizga yaqini go‘zallik va sog‘liq industriyasida mehnat qilayotganligi haqidagi ma’lumotni keltiradi[8].

---

[7] Sultonova E. Ayol davlatning rivojlanish strategiyasida (Global muammo sifatida). – Toshkent: JIDU, 2005.– 250 b.

[8] Одра Шаллал. Мир стереотипов. Что мешает женскому предпринимательству? (Elektron resurs). Kirish rejimi: https://www.forbes.ru >forbes.women (murojaat qilingan sana 3.10.2019).

Ayollar uchun yashash og‘ir kechayotgan Osiyo davlatlarida ham xotin-qizlar tadbirkorlik sohasida faol harakat olib borishga, jamiyat hayotida o‘zining o‘rniga ega bo‘lishga intilayotganlari haqida ma’lumotlar mavjud. Jumladan, Geyl Tzemax Lemmon ayollar zaif jins emasligini, ular bugungi kunda katta-katta korxonalarni boshqarayotganligini o‘zining 2005-yilda Finansial Times gazetasiga tayyorlagan maqolasida ta’kidlaydi. Bu esa, bugungi kunda musulmon ayollarining eng qiyin sharoitlarda ham jamiyat hayotida tobora faollashib borayotganligini ko‘rsatadi[9].

O‘zbekiston xotin-qizlarining o‘zbek modeliga asosan bozor munosabatlariga o‘tish sharoitidagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardagi faol ishtiroki rossiyalik olimlar M.Gafarli va A.Kasayev tomonidan o‘rganilgan. Ular o‘z tadqiqotlarida o‘tish davrida O‘zbekistonda xotin-qizlarga davlat tomonidan ko‘rsatilgan g‘amxo‘rliklar hamda imtiyozlar ularning jamiyat hayotidagi faolligini ta’minlashga xizmat qilayotganligini e’tirof etadilar. Xususan, ayollarni ijtimoiy himoyalash borasida O‘zbekistonda har yili mulkchilik shaklidan qat’i nazar har bir korxona va ishchilar jamoasining ma’muriyati bilan kasaba uyushmasi qo‘mitasi o‘rtasida bitimlar hamda jamoa shartnomalari tuzilishi, ularda ayollarga mehnatni onalik bilan qo‘shib olib borish imkonini beruvchi sharoit yaratish, mehnat sharoitini yaxshilash, qo‘l mehnatini engillashtirish, ayollarga imtiyozlar berish to‘g‘risida qabul qilingan qonunlarni bajarish; homilador va nogiron farzandi

[9] Гейл Тземах Леммон “Женщины предприниматели – не исключение, а реальность”(Elektron resurs). Kirish rejimi: https //www.Ideanomics.ru.(murojaat qilingan sana 15.01.2018).

bo‘lgan ayollarni, ko‘p bolali onalarni himoyalashda qonunlarga rioya etish nazarda tutilishi alohida ta’kidlanadi. Tadqiqotchilar G‘arbning ko‘pgina davlatlarida Sharq urf-odatlari haqidagi an’anaviy tasavvurlar natijasida noto‘g‘ri xulosalar mavjudligini bayon etib, xotin-qizlar masalasida O‘zbekistonda olib borilayotgan siyosatga ijobiy baho berganlar[10].

Mazkur monografiyada O‘zbekiston xotin-qizlarining chevarchilik, kashtachilik, gilamdo‘zlik, zardo‘zlik kabi kasanachilik mehnat shakli asosida bozor iqtisodiyoti talablariga mos zamonaviy tadbirkorlik va erkin raqobat muhitiga transformatsiyalashuv jarayonlari, chekka hududlarda sanoatni rivojlantirish, tadbirkor, fermer xotin-qizlar ilg‘or tajribalarini ommalashtirishga qaratilgan keng qamrovli faoliyati, o‘sish sur’atlari va amaliy natijalari ochib berilgan. Aholi ijtimoiy faol qismi tarkibida izlanuvchan va tashabbuskor tadbirkor xotin-qizlar salmog‘ining oshib borishi, davlat va nodavlat tashkilotlar, xalqaro jamg‘arma va grant loyihalari ko‘magida tadbirkor ayollar huquqlarini himoya qilish tizimining takomillashishi, maqsadli moliyaviy resurslar ajratish orqali mehnat bozorida qulay sharoitlar yaratish borasidagi ijtimoiy-huquqiy omillar ko‘rsatib berilgan.

Mamlakatda oilaviy tadbirkorlik qonuniy asoslarining mustahkamlanishi, “Har bir oila – tadbirkor” davlat dasturining ijtimoiy ahamiyati, xotin-qizlar tadbirkorligida sulolaviy an’analarning tiklanishi, jumladan, “Oilaviy tadbirkorlikdan – mustahkam oilaga” loyihasi asosida ayollar iqtisodiy faolligining oshishi, ular bandligini ta’-

[10] Gafarli M., Kasaev A. Rivojlanishning o‘zbek modeli: tinchlik va barqarorlik – taraqqiyot asosi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001. – B.252.

minlash, kichik biznes va tadbirkorlikka jalb etishdagi muammolar va davriy bosqichlar, bu jarayondagi davlat va nodavlat tashkilotlar o‘rtasidagi bog‘liqlik asoslangan.

O‘zbekiston milliy taraqqiyotida yangi davrning boshlanishi (2016–2019), milliy yuksalish harakatida xotin-qizlar tadbirkorligining rivojlanish parametrlari, yaratilgan qulay investitsiya muhiti va soliq imtiyozlarining samaradorligi, zamonaviy ilm-fan yutuqlari asosida ilg‘or innovatsion g‘oyalarning tatbiq etilishi bilan bog‘liq progressiv jarayonlar ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Mazkur monografiya O‘zbekiston xotin-qizlarining kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ishtiroki haqida keng ma’lumotlar berish, ilmiy va nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish imkonini beradi. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishi, tarixiy va madaniy merosni tadqiq etishga bag‘ishlangan davlat dasturlarining bajarilishida, shuningdek, mustaqillik davri xotin-qizlar tadbirkorligi tarixiga oid yangi darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

BIRINCHI BOB

MUSTAQILLIK YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDAGI O‘RNI

1.1. Xotin-qizlarga yangicha munosabatlarning qaror topishi va ularni iqtisodiy jarayonlarga jalb etishga qaratilgan davlat siyosatining ijtimoiy ahamiyati

Kishilik jamiyati shakllanishining tarixiy taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti muhim o'rin tutadi. Jamiyatda moddiy ne'matlar yaratish, insonlarning hayotiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi muhim soha sifatida ishlab chiqarish va uning tarmoqlari vujudga kelishi natijasida, mahsulot ayirboshlashga bo'lgan zaruriyat vositasi sifatida bozor vujudga keldi. Bozor iqtisodiyotining uzoq yillik tarixiga nazar tashlansa, u jamiyat iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlab beruvchi, odamlar farovonligini oshiruvchi progressiv kuch ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Aslida, kishilik jamiyati tarixidagi uchta yirik mehnat taqsimoti, ovchilikdan chorvachilikning ajralib chiqishi, dehqonchilik va hunarmandchilikning vujudga kelishi insonlarning tabiat bergan imkoniyatlardan kelib chiqib, moddiy ne'matlar yaratish hamda tadbirkorlik sohasidagi dastlabki faoliyatning boshlanishi edi.

Jamiyat kishilarning o‘z maqsad va funksiyalariga ega ijtimoiy guruhlar, uyushmalar majmuidir. Ijtimoiy guruhlar o‘zining “ijtimoiy ahamiyatli ko‘rsatkichlari”ga ega bo‘lib, bu “ko‘rsatkichlar”ga qarab, ularning jamiyatga va ijtimoiy munosabatlarga ta’siri aniqlanadi. Ishlab chiqarishning paydo bo‘lishi bilan iqtisodiyotda turli sohalarning vujudga kelishi va taraqqiy etishi, jamiyatda ma’lum bir soha bo‘yicha o‘z vazifalarini bajaruvchi ijtimoiy guruhlarni vujudga keltirdi. Bu ijtimoiy guruhlar tarkibidagi erkak va ayollar jamiyatdagi aloqalari orqali, ijtimoiy munosabatlarga o‘z ta’sirini o‘tkazib kelganlar. Shu nuqtai nazardan, ayollar ijtimoiy guruhi, qatlami ham o‘zining “ijtimoiy ko‘rsatkichlari”ga ega. Ular ayollarning madaniy-ma’naviy sohalardagi faoliyatida, xo‘jalik hayotini yuritishda, bola tarbiyasida, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroklarida namoyon bo‘ladi”[11].

O‘zbek ayoli tabiatidagi tadbirkorlik xislatlarining shakllanishi uzoq tariximizga borib taqaladi. Tadbirkorlikning milliy asosda namoyon bo‘lishi va rivojlanishida hunarmandchilik muhim rol o‘ynaydi. Bolalikdan hunar o‘rganish, yaratgan mahsuloti va mehnati bilan odamlarga naf keltirish xalqimizning milliy qadriyatiga aylangan.

Hunarmandchilik – oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda, qo‘l mehnati asosida faoliyat olib boruvchi sanoat turi bo‘lib, milliy va an’anaviy mayda ishlab chiqarish sohasi hisoblanadi. Jamiyat tarixiy taraqqiyoti va mehnat taqsimoti bilan bog‘liq ravishda hunarmand-

11 Ayol faol shaxs. Ilm-fan (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www.fikr.uz/blog/good/page (murojaat qilingan sana 2017yil 14 dekabr).

chilikning uchta: uy hunarmandchiligi – kasanachilik, buyurtma bilan mahsulot tayyorlaydigan, bozor uchun mahsulot etkazib beruvchi turlari shakllandi. Uy hunarmandchiligi sanoat ishlab chiqarishigacha bo'lgan davrda hunarmandchilikning eng ko'p tarqalgan turi bo'lgan. Hunarmandlarning buyurtma asosida mahsulotlarni bozorga tayyorlashi natijasida, hunarmandchilik mahsulotlari tovarga aylandi, tovar ayirboshlash uchun ishlab chiqarildi va bu o'z navbatida hunarmandchilikning yangi turlari vujudga kelishiga hamda shaharlar taraqqiyotiga sabab bo'ldi. Hunarmandchilik ham turli mahsulotlar tayyorlash bo'yicha ixtisoslasha bordi.

O'zbekistonda qadimdanoq hunarmandchilikning dastlabki muhim tarmog'i hisoblangan sopol buyumlar ishlab chiqarish va to'qimachilik vujudga keldi, yirik hunarmandchilik markazlari paydo bo'ldi. Ip mato, gilam, shoyi, mis va temirdan turli ro'zg'or buyumlari tayyorlash, shisha mahsulotlari ishlab chiqarish avj oldi. Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Xiva, Toshkent kabi shaharlarning ishlab chiqarish munosabatlarida hunarmandchilik hamisha muhim rol o'ynab kelganligi tarixiy manbalardan ma'lum[12]. O'zbekistonda chevarlik, kashtachilik va kasanachilik bilan ayollar uyda o'tirib shug'ullanishgan. Hunarmandchilikda ustoz-shogird an'analari mavjud bo'lib, avloddan-avlodga o'tib keluvchi o'ziga xos tartib-qoida va me'yorlar, axloqiy mezonlarga amal qilingan. Shogird o'z ustozidan fotiha olgandan keyingina o'zi mustaqil faoliyat olib borgan[13]. Bugungi kunda ham bu an'analar-

[12] O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 11-jild. –B.392–393.
[13] O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 11-jild. –B.393.

ga amal qilib kelinadi. Hunar turlari asrlar davomida kengayib, yangi yo'nalishlar va maktablar bilan boyib borgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda respublikada hunarmandchilikning 34 turi mavjud bo'lib[14], shaharlarda kasb-koriga qarab hunarmandlarning mahallalari shakllangan.

Hunarmandchilik ixtisoslashib, terini qayta ishlash sohasida-ko'nchilar, etikdo'zlar, maxsido'zlar, kovushchilar, telpakchilar, po'stinchilar, kamarchilar, to'qimachilik sohasida bo'zchilar, atlaschilar, gilamchilar, sholcha va namatchilar, metallni qayta ishlash sohasida temirchilar, taqachilar, misgarlar, chilangarlar, zargarlar kabi kasblarga bo'lingan[15].

Bugungi kunga kelib, zamonaviy ilg'or texnologiyalarning ishlab chiqarishda keng yo'lga qo'yilishi bilan hunarmandchilik mahsulotlarining turlari yanada ko'paydi. Yirik industriyalashgan ishlab chiqarish qaror topgan bo'lsa-da, individual talab asosida yuksak qadrlanadigan hunar egalari mahsulotlari qo'l mehnatiga asoslangani, qadimdan milliy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qilib kelayotgani, milliy qadriyatlar timsoliga aylangani bois, hunarmandchilikning mavqei saqlanib qoldi.

Sobiq Ittifoq davrida xotin-qizlar huquqiy jihatdan erkaklar bilan tenglashtirildi. Ana shu asosda ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish harakati boshlanib, sanoatning barcha turlari, jumladan og'ir sanoat, qishloq xo'jaligida ularning ishtiroki keskin ortdi. An'anaviy

[14] Hunarmanchilik faoliyati turlari ro'yxati qisqardi (Elektron resurs). Kirish rejimi: https //www.uza.uz.<society>hunarmand.(murojaat qilingan sana 15.01.2018); www.norvma.uz> hunarmand.

[15] O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 11-jild. –B.393.

hunarmandchilik, kosibchilik ishlariga tortish maqsadida xotin-qizlar bo'linmalari(artellar, atelelar) tashkil etildi.

O'zbekiston mustaqilligi arafasida iqtisodiyotdagi mavjud holat, bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi qiyinchiliklar, aholining, shu jumladan, ayollarning turmush tarziga, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotdagi ishtirokiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi.

O'zbekiston XX asrning 90-yillari boshlarida og'ir ijtimoiy muammolar girdobida qolgan edi. Sobiq Ittifoq davridan ish bilan ta'minlashning noratsional va samarasiz tizimi meros bo'lib qoldi. Bu tizimga xos xususiyatlar raqamlar bilan amaldagi holatlar o'rtasida katta tafovutlar borligida, pinhoniy ishsizlikning yuqori darajasi, ishchi kuchining mavjudligi bilan unga bo'lgan ehtiyoj o'rtasida miqdor va sifat jihatdan nomutanosibliklikning mavjudligida namoyon bo'ldi, natijada o'tish davrida ish bilan ta'minlashda yangi muammolar bilan birga ko'p yillar mobaynida to'planib qolgan eski muammolarni ham hal etish zaruriyati yuzaga chiqdi.

Mustaqillik tufayli xotin-qizlarning mamlakat taraqqiyoti, jamiyat rivojida faol ishtirok etishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan bo'lsa-da, ularning jamiyatdagi mavqeini oshirish masalasi o'z echimini kutayotgan dolzarb muammoligicha qolayotgan edi. Chunki XX asr 90-yillari boshlarida xotin-qizlar ijtimoiy ishlab chiqarishda 7-8 soat mehnat qilish bilan birga, oilada uy-ro'zg'or yumushlarini ham bajargan, ya'ni erkak haftasiga o'rtacha 41 soat ishlasa, ijtimoiy band bo'lgan ayollar haftasiga ulardan ikki hissaga yaqin mehnat qilgan, qishloq ayoli-

ning ijtimoiy ahvoli esa bundan ham og'irroq bo'lgan[16]. Bunga sabab "sobiq tuzum davrida respublikamizning iqtisodiyoti bir tomonlama rivojlangan, faqat xom-ashyo etishtirishga yo'naltirilgan bo'lib, mash'um salbiy oqibatlarga olib kelgan paxta yakkahokimligi avjiga chiqqan edi. O'zbekiston o'zining qoloq ishlab chiqarish va sotsial infratuzilmasi bilan sobiq ittifoqda jon boshiga iste'mol darajasi bo'yicha eng past o'rinda turardi"[17].

Sobiq Ittifoq davrida xotin-qizlarning erkaklar bilan tengligini faqat ijtimoiy mehnat jarayonidagina, deb tushunish mavjud bo'lgan, ya'ni asosan mehnatkash ayol qadrlangan. Siyosiy tuzum oqibatida garchi o'zbek xotin-qizlarining ijtimoiy faolligi oshgan bo'lsa-da, aslida ular arzon ish kuchi sifatida asriy e'tiqodi, qadriyatlaridan begonalashdi. Ayollarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etish ular ijtimoiy faollashuvining yagona yo'li, deb e'tirof etildi. Millatning ayollarga bo'lgan ehtiromi bilan bog'liq tarixiy an'analar, milliy mentalitet nazar-pisand qilinmadi[18]. Sovetlar tuzumi ayollarga huquqiy tenglik berish bilan birga, ularni og'ir mehnat yukini tortishda erkaklar bilan tenglashtirib qo'ydi. Ayollarga ilm-fan, san'atga keng yo'l ochilishi bilan birga, erkaklar bilan teng ravishda shaxtalarda ko'mir qazish, jazirama issiqda paxta dalalarida g'o'zaga ishlov berish, kech kuzgacha paxta terish, o'nlab stanoklarda ishlash, og'ir jismoniy qo'l mehnatini bajarish ham yuklatildi. Ittifoq tuzumi davrida bunday ayollar

[16] O'zMA, M-69-jamg'arma, 1-ro'yxat, 88-yig'ma jild, 53-varaq.

[17] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi //Xalq so'zi, 2010 yil 12 noyabr.

[18] Тохтаходжаева М. Советская модель "освобождения восточной жещины и ее влияние на современный статус женщины в Центральной Азии/Женщины Центральной Азии. Сб. статей. №13, –С.49-54.

sog‘lig‘i, ixtiro va kashfiyotlari uchun emas, balki farzandlarining soni, paxta dalalaridagi og‘ir mehnat natijalari uchun ko‘klarga ko‘tarilib maqtaldi hamdaturli orden va medallarbilan siylandi. Bunga taniqli mexanizator, bir umr og‘ir mehnat qilib, 40 yoshida og‘ir mehnat asoratlari tufayli vafot etgan T.Oxunovaning ayanchli qismati misol bo‘ladi[19].

Tabiiyki, ayol organizmining og‘ir ishlarni bajarishga qodir emasligi, agar bu muvozanat buzilsa, ayol jismi, u tug‘adigan farzandlar salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi haqida hech kim bosh qotirmadi[20]. Natijada, ayollar va bolalar o‘rtasida turli kasalliklar, nogironliklar va o‘limning ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Mustaqillik arafasida O‘zbekistonda 90 foizdan ziyodroq ayollar kamqon bo‘lib, ayollar va chaqaloqlar o‘limi bo‘yicha Sobiq Ittifoq respublikalari orasida Tojikistondan keyin, ikkinchi o‘rinni egalladi[21].

Respublika iqtisodiyoti markazdan turib boshqarishga asoslangan reja asosida rivojlantirilib, tadbirkorlikka yo‘l berilmadi, hunarmandlarning asosiy qismi artellar, badiiy buyumlar korxonalari, zavod va fabrikalarga jalb qilindi. Lekin o‘zbek xotin-qizlari tabiatidagi asrlar davomida shakllanib kelgan tadbirkorlik sifatlarisaqlanib bordi. Milliy mentalitetga xos bo‘lgan muhim jihat, ya’ni o‘zbek onalarining o‘z qizlariga uy yumushlarini o‘rgatish barobarida, albatta ularni biror-bir kasb egasi qilib

[19] O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 6-jild. – B.609.
[20] Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog‘lom avlodtarbiyasi. – Toshkent:O‘zbekiston, 2000 – B. 34.
[21] Safaeva S. Ayollar masalasi:umumijtimoiy va milliy jihatlari. Dis.fals.fan.nom. – Toshkent, 2002–B. 118.

voyaga etkazishlari natijasida, o‘zbek ayollari bir vaqtning o‘zida ham oila bekasi, ham ona, ham tadbirkor – hunarmand sifatida faoliyat olib bordi. Sobik tuzum sharoitida xotin-qizlarga hunarmand va tadbirkor sifatida emas, balki “chayqovchi”, “olib-sotar”, “mehnatsiz daromad topuvchi” sifatida qaralib, ular mehnati qadrlanmadi. Shunday bo‘lsa-da, uy hunarmandchiligi va tadbirkorligi tarixan o‘tgan davr mobaynida o‘zbek xalqi turmush tarzining ajralmas bir qismi sifatida jamiyatning o‘rta va xususiy ishlab chiqaruvchilar qatlamining rivojlanishiga asos bo‘ldi.

Mustaqillik yillarida ayol avvalo, inson sifatida ijtimoiy-siyosiy, huquq va erkinliklarga ega ekanligi e’tirof etilib,erkaklar bilan huquqiy mavqei va jamiyatda tutgan o’rni qonun doirasida o‘zaro tenglashtirildi. Bunga eng muhim asos – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo‘lib, uning 46-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar”[22], deb belgilab qo‘yildi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida sovetlar davridan meros qolgan ayollar masalasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish va yangi sharoitda ularning ijobiy hal etilishini ta’minlashga e’tibor kuchaytirildi. Barqaror rivojlanib borayotgan iqtisodiyotga asoslangan, ochiq huquqiy-demokratik davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari so‘zda emas, amalda oliy qadriyat darajasiga ko‘tarildi. 1992 yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan Vazirlar Mahkamasi oldiga xotin-qizlar ahvolini yaxshilash bo‘yicha Davlat dasturini ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi[23]. Umuman olganda, respublika-

[22] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B.7.
[23] O‘zMA, M-69-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 97-yig‘ma jild, 20-22- varaqlar.

dagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarishi xotin-qizlarning turli yo'nalishlarda erkin faoliyat yuritishi, ular manfaatlarini himoya qilishda tub o'zgarish yasash zarurligini ko'rsatdi.

O'tish davrida ayollarning ahvoli oilada uy-ro'zg'or yumushlari mas'uliyati ularning zimmasida bo'lgani bilan emas, balki ular mehnat bozorida erkaklarga nisbatan ta'lim, malaka darajasi nisbatan pastligi tufayli murakkablashdi. Mustaqillik tufayli Sobiq Ittifoq davridagi yirik korxonalar boshqaruvining mahalliylashuvi, mulkchilik shaklining o'zgarishi, boshqa respublikalar bilan mavjud bo'lgan o'zaro iqtisodiy aloqalarning izdan chiqishi tufayli ular faoliyatining sustlashishi, to'xtab qolishiga, ishsizlar sonining keskin oshishiga, jumladan xotin-qizlarning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi ishtiroki ham kamayib ketishiga olib keldi. Agar 1992-yilda mehnatga qobiliyatli yoshdagi jami ayollarning 46,5 foizi ular hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 1997-yilda bu 42,2 foizga to'g'ri keldi[24]. Integratsiyalashgan rejali iqtisodiyotda O'zbekistonga asosan, xom-ashyo: paxta, gaz, minerallar va nodir metallar ishlab chiqarish roli ajratib berilgan edi. Respublikaning poytaxt va industrial shaharlarida sanoat rivojlanishiga qaramay, O'zbekiston asosan, xom-ashyo resurslari ishlab chiqaruvchi mamlakat bo'lib qolaverdi. Bu esa, aholining, ayniqsa qishloq aholisining turmush darajasi va sifatiga ta'sir qilmay qolmadi. Shuning uchun, O'zbekistonda xotin-qizlar asosan, malakasiz qo'l mehnati ulushi katta bo'lgan tarmoqlarda band bo'lib qoldi.

[24] O'zbekiston ayollari va erkaklari. – Toshkent:O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi Statistik materiallar tarqatishni texnik qo'llab-quvvatlash sho''basi, 2002. –B.107.

Mustaqillik tufayli avj olgan milliy o‘zlikni anglash to‘lqini ayollarga nisbatan Sobiq Ittifoq davrida siqib kelingan an’anaviy va diniy mazmundagi turli qarashlarni jonlantirib yubordi. Bu esa, ma’lum ma’noda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi[25].

Shuning uchun ham, mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini oshirish, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga alohida e’tibor berib kelindi. Istiqlol yillarida jamiyatda ayollarga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo‘lishdek umuminsoniy qadriyatlar tarkib topdi[26].

Ayollarga bo‘lgan munosabatning tubdan o‘zgarishi, ularning jamiyatdagi mavqeni mustahkamlash, munosib yashash va mehnat sharoitlarini yaratish, ijtimoiy-siyosiy faolliklarini oshirish, davlat boshqaruvidagi, muhim hukumat qarorlarini qabul qilishdagi ishtirokini faollashtirish, intellektual salohiyatini oshirish, o‘z iqtidorlarini turli jabhalarda namoyon etishlari uchun yanada keng imkoniyatlar yaratib berish, ijtimoiy muammolarini hal etish, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, iqtisodiy sohada, tadbirkorlikda, fan va texnika taraqqiyotidagi o‘rnini kengaytirish kabi masalalar davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etildi.

O‘zbekistonda xotin-qizlarning salomatligini muhofaza qilish, erta turmush qurishning oldini olish, oilada ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlariga barham berish, onalik va bolalikni himoya qilishning huquqiy baza-

[25] O‘zMA, M-69-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 93-yig‘ma jild, 75-varaq.
[26] Ayolga ehtirom: to‘plam. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999.–B.12.

si yaratildi[27], ayollar va oilani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga, ularga manzilli aniq yordam ko'rsatishga alohida ahamiyat berildi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor islohotlarini amalga oshirish jarayonida ayollar rolining ortishi, ularning jamiyat hayotining barcha jabhalarida, jumladan, kichik biznes va tadbirkorlik sohasida faol ishtirok etishi, shuningdek, onalik burchlarini bajarish bilan ishlab chiqarishdagi mehnat faolliklarini muvaffaqiyatli tarzda birga qo'shib olib borishi uchun zarur huquqiy va ijtimoiy kafolatlar yaratildi.

O'zbekistonda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosat natijasida ular orasida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarda faoliyat olib borayotgan etuk malakali mutaxassis kadrlar soni yildan-yilga ortib borganini kuzatish mumkin. Jumladan, 1992-yilda respublikada 10 milliondan ortiq xotin-qizlar bo'lib, ularning ma'lumot darajasi erkaklarnikidan yuqori bo'lgan.

---

[27] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Mehnat kodeksi, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi 1993 yil 3 may qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1995 yil 2 martdagi, "Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1999 yil 17 martdagi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'ta zararli va o'ta og'ir mehnat sharoitlarida ishlayotgan ayollarning daromadiga imtiyozli soliq solish to'g'risida"gi 117-sonli qarori, 1999 yil 14 apreldagi "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (760-1-son), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zulfiya" nomidagi davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 1999 yil 10 iyundagi, "O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2004 yil 25 maydagi PF-3434-sonli, "2009-2013 yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida"gi, "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-sonli Farmonlari/Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.02.2018 y., 06/18/5325/0653-son.

Oliy va o'rta ma'lumotlilarning 51 foizi ham xotin-qizlar bo'lib, ular vrachlarning 60 foizi, o'qituvchilarning 65 foizi, davlat muassasalarida xizmat qilayotgan xodimlarning 70 foizini tashkil etgan. Iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha ishchi-xizmatchilar tarkibida 2 million xotin-qizlar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, ularning 62,8 foizi xizmat ko'rsatishda band bo'lgan[28]. 1997-yili ta'lim sohasida – 68,2 foiz, korxona rahbarlari tarkibida 17,5 foiz, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport sohasida – 13,2 foiz, sanoat va qurilishda – 8,7 foiz, iqtisod va huquq sohasida – 4,0 foiz, transport va aloqada – 2,3 foiz hamda san'at va kinematografiyada – 1,0 foizni ayollar tashkil qilgan[29]. 2006-yil ma'lumotlariga ko'ra, davlat hokimiyati organlari tarkibida ishlovchilarning 15,9 foizini ayollar, 84,1 foizini esa erkaklar tashkil qilgan[30]**.**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 299-sonli qaroriga muvofiq, 2005–2007-yillar davomida 614,4 ming nafar (har yili 205 ming nafar) ayollarni ish bilan ta'minlash ko'zda tutilgan edi[31].

2007-yilda iqtisodiyotning real sektoridagi xotin-qizlarning ulushi 47,8 foiz, jumladan, sanoatda – 42,8 foiz, qishloq ho'jaligida – 42,4 foiz, sog'liqni saqlash tizimida – 75,3 foiz, ta'lim, madaniyat, ilm-fanda – 72,9 foizni tashkil etgan[32].

Yuqorida istiqlolning ilk yillarida mamlakatimizda milliy o'zlikni anglash to'lqinida asl islom dinining insoniylik

---

[28] O'zMA, M-69-jamg'arma, 1-ro'yxat, 88-yig'ma jild, 52-varaq.

[29] O'sha joyda. 64-varaq.

[30] O'zbekiston erkaklari va ayollari. – Toshkent:O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi Tezkor matbaa va texnik xizmat ko'rsatish bo'limi, 2007. – B.124 .

[31] O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining joriy arxiv ma'lumotlari. 2008 yil, 12-jild, 12-varaq.

[32] O'zbekiston ayollari va erkaklari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi Tezkor matbaa va texnik xizmat ko'rsatish bo'limi, 2010. – B.157.

mohiyatidan yiroq bo'lgan ayollar huquqini kamsituvchi diniy mazmundagi turli qarashlar ham avj olganligi, bu holat ma'lum ma'noda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatgani haqida to'xtalib o'tildi. Agar 1991-yilda respublikada faol aholi soni 8 million 255 ming nafarni tashkil qilib, unda ayollar 3 million 632 ming nafar bo'lgan bo'lsa, 2010-yilga kelib respublikada faol aholi soni 11 million 628 ming 400 nafar bo'lgani holda, unda ayollar soni 5 million 295 ming 100 nafarni tashkil qildi[33]. Olib borilgan ma'rifiy-targ'ibot ishlari, ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli bunday ko'rsatkich respublikaning barcha viloyatlarida, xususan Namangan viloyatida ham ijobiy natijalarga olib keldi.

2010-yilda Namangan viloyati bo'yicha jami aholi 2,319 ming nafar kishi bo'lib, shundan 1,181 ming nafarini ayollar tashkil etgan. Mehnatga layoqatli ayollar soni esa 645,5 ming kishi bo'lib, shundan, iqtisodiyot tarmoqlarida band faol ayollar qishloq xo'jaligi va o'rmon sohasida – 29,7foiz, ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy sohada – 22,1foiz, sanoat ishlab chiqarishi va savdoda – 12,6 foiz, sog'liqni saqlash, sport, ijtimoiy ta'minotda – 11,9 foiz, umumiy ovqatlanish va tayyorlovda – 8,5 foiz, qurilishda – 2,6 foiz, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish va uy-joy kommunal xo'jaligida – 2,5 foiz, transport va aloqada – 1,9 foiz, moliya sug'urta sohasida – 0,6 foiz va boshqa tarmoqlarda 7,6 foizdan iborat bo'lgan. Faol bo'lmagan aholi soni tarkibida bola tarbiyasi bilan band bo'lgan ayollar soni esa 170,0 ming, ta'lim sohasidagi o'quvchi va talaba-qiz-

[33] O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 2019 yilda tayyorlangan maxsus tayyorlangan ma'lumot.

lar soni 160,0 mingni tashkil etgan[34]. Ko'rinib turganidek, viloyat iqtisodiyoti salohiyatini rivojlanishida xotin-qizlar o'zlarining katta hissalari bilan ishtirok eta boshlaganlar.

Respublika aholisining 49,9 foizini tashkil etgan xotin-qizlar jamiyat yangilanishi jarayonidagi islohotlarda muhim ijtimoiy kuch sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi[35]. Xotin-qizlarni kichik biznes va tadbirkorlikka jalb etish, ulardan mutaxassis kadrlar tayyorlash va bandligini ta'minlash borasidagi davlat siyosatida xotin-qizlar nodavlat-notijorat tashkilotlari o'rni alohida ahamiyat kasb etdi. O'tgan davr mobaynida ayollarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini shakllantirishga ko'maklashayotgan ayollar tashkilotlarining muayyan tizimi yaratildi. Ushbu tizimning asosini O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi va uning viloyalardagi bo'linmalari, "Hunarmand" uyushmasi, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal demokratik partiyasining "Ayollar qanoti" hamkor tashkilotlar, tijorat banklari bilan birgalikda xotin-qizlarni biznesga o'qitish, ularning tadbirkorlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, hamda ularga moliyaviy ko'mak berish maqsadida imtiyozli kreditlar ajratishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda[36].

Xotin-qizlar masalalariga oid huquqiy me'yorlar bosqichma-bosqich, tizimlilik asosida qabul qilinishi,

[34] Mahmudova M. Namangan viloyatida xotin-qizlarning mehnatda bandlik masalalari // Mustaqil O'zbekistonda demokratlashtirish va modernizatsiyalashtirish jarayonida olima ayollarning o'rni. – Toshkent, 2011yil. 13 iyun. – B.47-48.

[35] O'zbekiston raqamlarda. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi Tezkor matbaa va texnik xizmat ko'rsatish bo'limi, 2017. – B.51.

[36] O'zbekiston ayollari. O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasining nashri. 2014. –B.17. O'zLiDeP "Ayollar qanoti"ning joriy arxiv ma'lumotlari. 2017 yil, 7-jild, 15-varaq.

ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qonun va qonunosti hujjatlari,farmonlar, qarorlar ayollarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi faolligini ta'minlashda huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Jumladan, Oila kodeksi, Mehnat kodeksi, 1993-yil 3-mayda O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1995-yil 2-martdagi PF-1084 sonli Farmoniga[37] binoan O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi raisiga O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari va joylardagi xotin-qizlar qo'mitalari raislariga hokim o'rinbosari maqomi berildi.

1996-yil apreldan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 222-237-moddalarida ayollar mehnati himoyaga olindi hamda 1996-yil 28-mayda Mehnat vazirligi va Adliya vazirligi tomonidan xotin-qizlar mehnatidan foydalanish taqiqlangan og'ir ishlar ro'yxati tasdiqlandi[38]. Mehnat kodeksining quyidagi moddalarida xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan imtiyozlar belgilab qo'yildi. Jumladan, 2 bolali va undan ko'p yoki 12 yoshgacha bo'lgan bolali, 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolali ayollarga har yili haq to'lanadigan 3 kunlik qo'shimcha ta'til berilishi (222-modda), ayollarni noqulay ish sharoiti yoki er osti ishlariga (ayrim maishiy va tibbiy ishlardan tashqari) jalb qilishning taqiqlanishi (225-modda) kabilardir[39].

---

[37] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1995 yil 2 martdagi PF-1084 sonli Farmoni//Xalq so'zi, 1995 yil 2 mart.

[38] Mehnat kodeksi. Toshkent, 1999. –B.254.

[39] Mehnat kodeksi. Toshkent, 1999. –B.254.

1998-yil "Oila yili"da O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-yanvardagi "Oila manfaatlarini ta'minlash chora-tadbirlarining 1998-yilga mo'ljallangan davlat dasturi" haqidagi qarori qabul qilindi. 1999-yil "Ayollar yili" deb nomlandi. 1999-yil 17-martda "Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoni[40], Vazirlar Mahkamasining "O'ta zararli va o'ta og'ir mehnat sharoitlarida ishlayotgan ayollarning daromadiga imtiyozli soliq solish to'g'risida"gi 117-sonli qarori qabul qilindi[41]. Qarorga asosan o'ta zararli va o'ta og'ir mehnat sharoitlarida ishlayotgan ayollarning daromadiga 20 foizdan yuqori bo'lmagan soliq solinishi belgilab qo'yildi. Shu bilan birga mehnat munosabatlarida jinsi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab mavqei, diniy e'tiqodi, jamoatchilik tashkilotlariga mansubligi hamda xodimlarning ishchanlik xususiyatlari va ular mehnatining natijalari bilan bog'liq bo'lmagan boshqa holatlarga qarab imtiyozlar berilishiga yo'l qo'yilmasligi va bu holatning kamsitilish deb hisoblanishi qayd etildi[42].

1999-yil 12-aprelida Vazirlar Mahkamasining "Oila kodeksini amalga oshirish zarur bo'lgan me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 171-son qarori qabul qilindi[43].

---

[40] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1999 yil 17 martdagi Farmoni//Xalq so'zi, 1999 yil 18 mart.

[41] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'ta zararli va o'ta og'ir mehnat sharoitlarida ishlayotgan ayollarning daromadiga imtiyozli soliq solish to'g'risida"gi 117-sonli qarori//Xalq so'zi, 1999 yil 28 mart.

[42] Onalik va bolalikni himoya qilish masalari bo'yicha qonun xujjatlari to'plami. Toshkent, 2004. – B.188.

[43] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oila kodeksini amalga oshirish zarur bo'lgan me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 1999 yil 12 apreldagi 171-son qarori//Xalq so'zi, 1999 yil 14 aprel.

14-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarga qo‘shimcha imtiyozlar to‘g‘risida”gi Qonunida ayollar 20 yil ish stajiga ega bo‘lsa, nafaqaga 54 yoshdan chiqish huquqi, 3 yoshga to‘lmagan bolalari bor ishlovchi ayollar uchun haftasiga 35 soatlik ish kuni joriy etish haqidagi me’yorlar kiritildi[44].

Shuningdek, bu borada Vazirlar Mahkamasining 4-maydagi “Bolalar va ayollar gigienasi uchun tovarlar ishlab chiqarish va sotishni rag‘batlantirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 212-son, 2002-yil 25-yanvarda “Ayollar va o‘sib kelayotgan avlod sog‘lig‘ini mustahkamlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 32-son, 2002-yil 5-iyulda “Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollarning sog‘ligini mustahkamlash, sog‘lom avlod tug‘ilishi va uni tarbiyalashning ustivor yo‘nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 242-son qarorlari qabul qilindi. 2000-yil “Sog‘lom avlod yili”da, 2001-yil “Onalar va bolalar yili”da qabul qilingan Davlat dasturlari, “Oilalarga davlat yordami va ijtimoiy yordamni kuchaytirish tadbirlari to‘g‘risida”gi hujjatlar qabul qilindi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 25-maydagi “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvalash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF 3434-sonli Farmoni[45] ijrosini ta’minlashga qaratilgan Vazirlar Mahkamasining 2004-

[44] O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarga qo‘shimcha imtiyozlar to‘g‘risida”gi 1999 yil 14 apreldagi 760-1-sonli Qonuni(Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www.Lex.uz//(murojaat qilingan sana 30.07.2017).

[45] O‘zbekiston Respublikasi Prezdentining “O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2004 yil 25 maydagi PF 3434-sonli Farmoni//Xalq so‘zi, 2004 yil 25 may.

yil 29-iyundagi qarori xotin-qizlar qo‘mitalari ish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qildi. O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi markaziy apparati ta’sis etildi, ilgari qo‘mitada 6 ta ish o‘rinlari bo‘lgan bo‘lsa, qaror asosida 18 shtat birligi ajratildi[46]. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to‘g‘risida”gi Qonuniga siyosiy partiyalardan ko‘rsatiladigan deputatlikka nomzodlarning kamida 30 foizini ayollar tashkil etishi to‘g‘risida norma kiritilib, kvota joriy etildi[47].

Olib borilgan ishlar natijasida 2009-yil dekabridagi saylov yakuniga ko‘ra, 33 nafar ayol O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputati etib saylandi, bu deputatlar umumiy sonining 22 foiziga teng. Senatda esa 15 nafar ayollar faoliyat yuritgan bo‘lsa, ular umumiy deputatlarning 15 foizini tashkil etgan. 2017-yilga kelib, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 ming 400 ga yaqin ayollar rahbarlik qilar edi. Xotin-qizlar orasidan Oliy Majlis Senatida – 17 nafar senator, Qonunchilik palatasida – 21 nafar deputat faoliyat olib borgan. Mahalliy kengashlar deputatlarining 23 foizdan ziyodini xotin-qizlar tashkil etgan[48].

Mamlakatimiz saylov qonunchiligida parlament va mahalliy kengashlarga saylanadigan deputatlikka nomzodlar orasidan xotin-qizlar uchun 30 foizlik kvota belgilab berilgan bo‘lsa-da, 2009-yil saylov yakuniga ko‘ra, Senat a’zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari tarki-

[46] O‘zR PAA, 975-jamg‘arma, 30-ro‘yxat, 15/3-02-09 -yig‘ma jild, 88-varaq.

[47] O‘zbekiston respublikasining 2004 yil “Saylov to‘g‘risida”gi Qonunining 22-moddasi (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www.Lex.uz//(murojaat qilingan sana 30.07.2017).

[48] Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent: O‘zbekiston, 2017, 1-jild – B. 343.

bida 20 foizdan ortiq bo'lgan xotin-qizlar ko'rsatkichi, 2019-yilga kelib yuqori palatada – 17 foizga, quyi palatada esa – 16 foizga tushib qolgan. Shu sababli, jamiyat hayotida xotin-qizlarning o'rni va nufuzini yanada mustahkamlash maqsadida, siyosiy partiyalar o'z saflariga bilimli, tashabbuskor va tashkilotchi ayollarni jalb etishi, ularning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirishga etarlicha e'tibor qaratishi lozimligi davlat rahbari tomonidan ta'kidlandi[49].

Tarixda birinchi marta Oliy Majlis Senatiga rahbarlikka O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining raisi lavozimida ishlagan, xotin-qizlar muammolari bo'yicha uzoq yillar faoliyat olib borgan T.Narbaeva nomzodining tasdiqlanishi xotin-qizlar masalasidagi muammolarning echimini topish va davlat boshqaruvida rahbar ayollar faoliyatidan yanada samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

O'tgan davr mobaynida siyosiy partiyalar safida ayollar ulushi yildan yilga ortib bormoqda. 2005-2009-yillarda ayollar ulushi O'zbekiston Xalq demokratik partiyasida 34,6 foizdan 40,3 foizga, "Adolat" sotsial demokratik partiyasida 38,8 foizdan 50,0 foizga ortgan bo'lsa, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasida 2009-yilda ayollar ulushi 45 foizni tash kil etdi[50].

Agar 2005-yilda O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi umumiy a'zolari soni 147220 nafar bo'lib, unda xotin-qizlar ulushi 49467 nafar, ya'ni jami a'zolar sonining 33,6 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2017-yil oxiriga kelib, partiya safida umumiy a'zolar soni 390180 nafar bo'lga-

[49] Mirziyoev Sh.M. Oliy Majlis Senatining 20-yalpi majlisidagi nutq (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www.kun.uz//(murojaat qilingan sana 21.07.2019).
[50] Mustaqil O'zbekiston ayollari. O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasining nashri. 2014. –B.17.

ni holda, unda xotin-qizlar ulushi 146853 nafarni tashkil etib, partiya saflarida ayollar soni 37,2 foizdan oshdi[51].

"2009-2013-yillarda aholining reproduktiv (reproduktiv salomatlik nafaqat ayolning balki erkakning ham o'zidan zurriyod qoldira olish davridagi salomatligidir. Dissertant M.B.) salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga etkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida"gi Prezident Farmoni, 2016-yilda qabul qilingan "Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlodni shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror onalar va bolalar sog'ligini muhofaza qilishga qaratildi, jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy maqomini oshirishga xizmat qildi[52].

Respublika Oliy Majlisi huzurida nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyat yuritib, fond tomonidan tadbirkor xotin-qizlarning tashabbuslari qo'llab-quvvatlanmoqda. Buni kichik biznes va tadbirkorlik yo'nalishidagi hissasi tobora oshib, asriy milliy hunarmandchilik an'analari tiklanib jadal rivojlanib borayotgan, 1930 nafardan ortiq a'zosi bor, "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasining Buxoro viloyati bo'limi misolida ko'rishimiz mumkin. 2012-yil jamoat fondi tomonidan tasdiqlangan loyihaga asosan tashkil etilgan "Ayollar uchun biznes-inkubator" 2012-yil tadbirkorlikni yo'lga qo'ymoqchi bo'lgan 220

[51] O'zLiDeP "Ayollar qanoti"ning joriy arxiv ma'lumotlari. 2017 yil, 7-jild, 15-varaq.
[52] Reproduktiv salomatlik – sog'lom onalik garovi (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www.soglom.uz/salomatlik/(murojaat qilingan sana 30.07.2019).

nafar xotin-qizga zarur bilim, tavsiya hamda ko'nikmalar bergan bo'lsa, 2016-yilda mazkur inkubator viloyatni qamrab oldi. Jondor, Romitan, G'ijduvon, Shofirkon, Qorako'l, Olot, Peshku tumanlarining o'zida trenerlar tayyorlanib, o'quv kurslari tashkil qilingan. 2014–2016-yillar davomida 120 nafar qiz xalqaro andozalar darajasida tikuvchilik kasbini o'rgandi, 45 nafar tadbirkor xotin-qizlar Buyuk Britaniyadan taklif etilgan mutaxassislar tomonidan tashkil etilgan o'quv-seminarlarda malaka oshirdi[53].

O'tgan davr mobaynida respublikada fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari sifatida faoliyat olib boruvchi mavjud 10 mingta mahalla qo'mitalari raislarining 8,9 foizini ayollar tashkil etdi. Xotin-qizlar masalalari bo'yicha komissiyalar raislari bilan birgalikda diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha 8655 nafar maslahatchi ayollar faoliyat olib bordi[54]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-son Farmoniga asosan diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimi o'rniga tuman (shahar) xotin-qizlar tuzilmasiga o'tkazgan holda xotin-kizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassis lavozimi joriy etildi[55].

---

[53] Ahmedova D. Tashabbuskor ayollar davlat va jamiyat rivojiga munosib hissa qo'shmoqda//Xalk so'zi, 2016 yil 25 may.

[54] O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining joriy arxiv ma'lumotlari. 2017 yil, 17-jild,28-varaq.

[55] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 2 fevraldagi PF-5325-son Farmoni//Xalq so'zi gazetasi, 2018 yil 3 fevral.

2015-yilda 42 ming 800 ta tadbirkorlik subyekti Internet tarmog‘i orqali Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro’yxatga olingan. 2016-yilning 1-yanvaridan boshlab mamlakatning barcha hududlarida tadbirkorlik subyektlariga “Yagona darcha” tamoyili asosida Davlat xizmatlari ko‘rsatish yagona markazlari faoliyat boshladi[56].

O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining respublika aholi bandligi bo’yicha 2005-yil ma’lumotlariga ko’ra, jami iqtisodiy faol aholi 10 million 224 ming kishini tashkil etib, unda ayollar ulushi 4 million 887 ming 700 kishini tashkil etgan. 2017-yil yakuniga ko‘ra, respublikamizdagi ja’mi faol aholi soni 14 million 22 ming 300 kishini tashkil etgani xolda, unda ayollar ulushi 6 million 556 ming 300 kishiga. etganligi ham ayollar masalasidagi davlat siyosatining natijasidir[57].

O‘zbekiston Respublikasining 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini har tomonlama rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasi mustaqillik yillarida jamiyatda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarning yutuq va kamchiliklarini xolis baholash, erkin fuqarolik jamiyatini o’rnatishga to’siq bo’lib kelayotgan, eski tuzumdan qolgan byurokratik to’siqlar va jinoyatchilikni bartaraf etishga qaratilgan jarayonlarning yangi bosqichini boshlab berdi.

---

[56] Karimov I.A. Demokratik islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk,kichik biznes va tadbirkorlikning ustuvorligini ta’minlashga keng yo‘l ochib berish - vatanimiz taraqqiyotiing bugungi bosqichida hal qiluvchi omildir. – Toshkent:O‘zbekiston, 24-jild, 2016. – B.12.

[57] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan 2018 yilda tayyorlangan maxsus ma’lumot.

2017-yil – “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da respublikaning barcha hududlarida tashkil etilgan “Xalq qabulxonalari” yig‘ilib qolgan muammolarni o‘rganish hamda ularni hal qilishda fuqarolarning talab, istak va takliflariga alohida e’tibor qaratdi. Prezident Sh. Mirziyoyev tomonidan O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatidagi kamchiliklar tanqidiy baholanib, ushbu tashkilotning xotin-qizlar muammolarini bartaraf etish va ularga amaliy yordam berish borasidagi faoliyati talab darajasida emas, deb topildi. Shu bilan birga, qo‘mita faoliyatiga davlat tomonidan moliyaviy va har tomonlama ko‘mak berishga qaratilgan, sohaga oid muhim hujjatlar imzolandi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi muassisligida Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tashkil etildi. Mazkur jamoat fondiga Davlat byudjetidan har yili ajratiladigan 300 milliard so‘mgacha miqdordagi mablag‘ning asosiy qismi O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasining asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan kelib chiquvchi tadbirlarga, qolgan qismi “Oila” markazining asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan kelib chiquvchi tadbirlarga ajratilishi ko‘rsatib o‘tilgan[58]. Bu kabi yangicha munosabatlar ushbu sektorda faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar faoliyatini yangi bosqichga ko‘tardi.

O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi ayollarning Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlaridagi tadbirkor ayollar

[58] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2018 yil 14 mart 201-sonli Qarori //Xalq so‘zi, 2018 yil 15 mart.

bilan hamkorligini rivojlantirish, chet el tajribasini O‘zbekistonga tadbiq etish va ulardan samarali foydalanish borasida ham qator ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Bu borada “Tadbirkor ayol” O‘zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi va xalqaro tashkilotlar hamkorligida “Ishsiz ayollarni o‘qitish, ularga hunar o‘rgatish”, “Innovatsion metodlar yordamida hayot darajasini ko‘tarish” kabi loyihalarini e’tirof etish mumkin[59].

Yangi korxonalarning tashkil etilishi, kichik korxonalarning rivojlanib, o‘rta va yirik korxonalarga aylanishi, ayrim korxonalar faoliyatining to‘xtab qolishi kabi jarayonlar bozor iqtisodiyotiga xos xususiyatlardir. Aynan ana shu jihat iqtisodiyotda aholi bandligi bo‘yicha muammolarni yuzaga chiqarib, ularni muntazam hal qilib borishni taqozo etadi. Respublikaning nafaqat qishloqlarida, balki shahar xonadonlarida ham tomorqa xo‘jaliklarini yanada rivojlantirish, oilaviy biznesni keng yo‘lga qo‘yish orqali ayollar bandligi borasidagi muammolarni bartaraf etish mumkin. Prezident Sh. Mirziyoyevning ayollar bandligi bilan bog‘liq muammolarga to‘xtalib, “ayollar uchun doimiy ish joylari yaratish borasidagi muhim masala bilan bir qatorda, oilaviy biznes, kasanachilik, hunarmandchilik, tomorqa xo‘jaligini keng rivojlantirish ishlari ham oqsamoqda”[60], degan o‘rinli fikrlari nafaqat xotin-qizlar tashkilotlari, balki davlat idoralarining ham bu boradagi mas’uliyatini oshirdi.

2017-yil – “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi tashabbu-

[59] O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasining joriy arxiv ma’lumotlari. 2017 yil, 17-jild, 28-varaq.

[60] Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B.43.

si bilan ilk bora "Jamiyatning rivojlanishida xotin-qizlar tadbirkorligining o'rni" shiori ostida respublika tadbirkor ayollar forumi o'tkazildi. Forumning asosiy maqsadi ham aynan ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, ularning bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish sohasida ish olib borayotgan barcha davlat va nodavlat tashkilotlari bilan ijtimoiy hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish orqali respublikada ayollar tadbirkorligini rivojlantirish istiqbollarini belgilashdan iborat bo'ldi. Forumda xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, ayollar tadbirkorligiga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlarni va kichik biznesni imtiyozli kreditlashni takomillashtirish, soliq siyosati va ularga beriladigan imtiyozlar, preferensiyalar, texnika-texnologiyalar, xom-ashyo olib kelish va eksport-import operatsiyalarini rivojlantirish, bo'sh turgan bino va inshootlarni ajratish, joylarda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, turli dasturlarni amalga oshirayotgan davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish yo'nalishlarida baxs-munozaralar olib borildi. Shu bilan birga, "Qishloq hududlarida ayollar bandligini ta'minlashdagi imkoniyat va muammolar: xalqaro tajriba, uni O'zbekistonda qo'llash usullari"ga oid masalalar ham muhokama etildi[61].

Biroq, ushbu sa'y-harakatlarga qaramasdan, respublikada hozirgi kunda xotin-qizlar masalasida quyidagi global muammolar hamon dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, ayrim xotin-qizlarning "Odam savdosi"ning qurboniga aylanib qolayotganlari oqibatida oilalarning bevaqt buzilishi, farzandlar e'tiborsizligi tufayli ular tarbi-

[61] Ayollar tadbirkorligi: maqsad, manfaat, natija (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www.uza.uz.business.tadbirkor ayollar (murojaat qilingan sana 20.10.2017).

yasidagi muammolar, yosh qizlarning hayotga engil qarashi, "ommaviy madaniyat" ta'sirida jamiyatda o'z o'rnini topa olmasligi, jinoyat ko'chasiga kirib qolishi, ularni ota-onalari tomonidan erta turmushga berilishi, ayrim oilalarda xotin-qizlarning kamsitilishi, o'z joniga qasd qilish, sog'lom turmush tarziga amal qilmaslik yoki engil hayot oqibatida turli bedavo kasalliklarga chalinish va erta hayotdan ko'z yumish kabi holatlari uchraydi.

2017-yilda jamoatchilik nazorati guruhlari tashkil etilib, xotin-qizlar hayotidagi muammolar o'rganildi, jami 5 milliondan ortiq xonadonga kirib borilib, oilalar tomonidan ko'tarilgan masalalarni hal etish choralari ko'rildi. Jumladan, 22 mingta oilada ajralishning oldi olindi, 36 ming fuqaro ishga joylashtirildi, 14,5 ming nafariga imtiyozli kredit olishda yordam berildi[62]. Ammo oxirgi yillarda oilalarda ajralishlar soni har yili 10-11 foizga oshib borishi kuzatilmoqda. 2017-yil boshiga kelib, 29,3 mingdan ziyod ajralish xolati qayd etilib, buning natijasida asosan, ayollar va bolalar jabr ko'rayotganligi achinarlidir[63]. Prezident Sh. Mirziyoyev Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasida "Joylarda ayollarning ahvoli juda og'ir, oddiy ayolning dardini hech kim bilolmayapti"[64], deya bu boradagi ishlarni tanqidiy baholadiva hududga xos muammolar echimiga ahamiyat bergan holda faoliyatni manzilli tashkil etishga alohida e'tibor qaratdi.

---

[62] O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining joriy arxiv ma'lumotlari. 2017 yil, 17-jild,36-varaq.

[63] Ayollar va erkaklar. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi Statistik materiallar tarqatishni texnik qo'llab-quvvatlash sho''basi, 2017. –B.67.

[64] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi //Xalq so'zi, 2017 yil 23 dekabr.

Bugungi kunda O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Tadirkor ayol” O‘zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi va uning xududiy bo‘linmalari, O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasi “Ayollar qanoti” bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar va Adliya vazirliklaridan akkreditatsiyadan o‘tgan bir qator xalqaro tashkilotlar, xorijiy, birinchi navbatda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning xotin-qizlari markazlari, shuningdek, oila, ayollar masalalari, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida faoliyat olib boruvchi xalqaro xotin-qizlar harakatlari va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan har tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan xalqaro faoliyatni olib bormoqda. Jumladan, BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari va agentliklari: Bolalar tashkiloti (UNICEF), Ayollar tuzilmasi (UNWOMEN), Ayollar holati bo‘yicha komissiya (UNCSV), Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OSCE), Osiyo rivojlanish banki (ADB), Jahon banki (WB), Project HORE va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasi va UNICEF tashkiloti o‘rtasida o‘zaro ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha o‘zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlash, oilalar bilan manzilli tarzda ishlash maqsadida salbiy ko‘rsatkichlari eng yuqori bo‘lgan hududlarda pilot loyihalarning samaradorligini va joylardagi kadrlar malakasini oshirish masalalari bo‘yicha istiqbolli qo‘shma harakatlar haqidagi qo‘shma rejasi belgilab olindi[65].

[65] O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasining joriy arxiv ma’lumotlari. 2017 yil, 17-jild, 45-varaq.

O‘zbekistonda Respublika Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Tadbirkor ayol” ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi va O‘zLiDeP “Ayollar qanoti” kabi etakchi tashkilotlar o‘z faoliyatlarida ayollar muammolarini bartaraf etish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish, milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda va xalqaro tajribaga tayanib, xotin-qizlar hayotida uchrayotgan masalalar echimini topishga, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini yanada oshirishga harakat qilmoqda.

1.2. Kichik biznes va tadbirkorlik harakatining mamlakat iqtisodiy taraqqiyotidagi o‘rni va ularda xotin-qizlar ishtiroki

Mustaqillik qo‘lga kiritilgach, O‘zbekiston taraqqiyot modeliga asosan mamlakatda bozor iktisodiyotiga o‘tish va uni rivojlantirish borasidagi davlat islohotlarining bosh maqsadi kichik biznes, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni keng rivojlantirishga qaratilib, bu islohotlarda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish muhim o‘rin egalladi. Chunki mulkiy munosabatlarni tartibga solmay turib, bozor iqtisodiyotiga o‘tish mumkin emasdi. Zero, bozor iqtisodiyotining asosini turli mulk shakllari tashkil etadi.

Sobiq Ittifoq davri siyosatida xususiy mulkka, tadbirkorlik faoliyatiga yo‘l berilmadi, jamiyatdagi barcha mulklar davlatniki, shu bilan birga, umumxalq mulki, deb e’tirof etildi. Har bir oila o‘zining uy-joyi, tomorqasi, chorvasi va mol-mulkidan shaxsiy mulk egasi sifatida foydalanish huquqiga ega bo‘ldi. Hunarmand ayollarning asosiy qismi artellar, badiiy buyumlar korxonalari, zavod va fab-

rikalarga jalb qilinsa-da, o‘zbek xotin-qizlari tabiatidagi tadbirkorlik sifatlari saqlanib qoldi, uy hunarmandchiligi va tadbirkorligi tarixan o‘tgan davr mobaynida o‘zbek xalqi turmush tarzining ajralmas qismiga aylandi. Shu sababli, mustaqillik yillarida bozor munosabatlarini amal qilishi uchun etarli shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan islohotlarning asosiy maqsadi avvalo, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdan iborat bo‘ldi.

Agar tarixan o‘tgan davrga nazar tashlasak, dastlab, 1990-yil 31-oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonun, 1993-yil 7-mayda “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonunlari qabul qilindi. Ushbu qonunlarning qabul qilinishi natijasida mulk shakllarining huquqiy maqomi aniq belgilandi hamda mulk davlat tasarrufidan chiqarila boshlandi, iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirish bo‘yicha dastlabki islohotlar amalga oshirildi. 1991-yil 19-noyabrdagi “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonunga va keyinchalik qabul qilingan huquqiy hujjatlarga asosan, iqtisodiyotda davlat ulushi bosqichma-bosqich qisqartirib borildi, xususiy mulkchilik munosabatlarini kengaytirishga sharoitlar yaratildi. Ushbu qonunning 4-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi ommaviy mulk obyektlari to‘liq ravishda yoki qisman davlat tasarrufidan chiqariladi va xususiylashtiriladi”[66], deb belgilab berildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida “Bozor munosabatlarini ri-

[66] O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 9 noyabrdagi “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”giQonuni (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www.lex.uz (murojaatqilingan sana 4.06.2017).

vojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste’molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin”[67], deb mustahkamlab qo‘yildi. Shu bilan birga, Konstitutsiyaning qator moddalarida har bir shaxsning mulkdor bo‘lishga haqli ekanligi va mulkdorning mulkka egalik qilish huquqlari belgilab berildi[68]. Bu esa o‘z navbatida, mamlakatda tadbirkorlik va ishbilarmonlik boshlash uchun, yillar davomida erkin tadbirkorlik va hunarmandlik borasidagi huquqlari cheklab qo‘yilgan xotinqizlar uchun ham iqtisodiy islohotlarda faol ishtirok etish, tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarini tashkil qilish, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish, yo‘qolib ketish arafasiga kelib qolgan noyob milliy hunarmandchilik maktablarini qaytadan tiklash uchun mustahkam zamin yaratdi.

1991-1992-yillarda O‘zbekiston xukumati va xalqi og‘ir sinovlarni boshidan o‘tkazdi, moliviy va strategik jihatdan muhim xom-ashyo resurslarining taqchilligi yuzaga keldi. Bundan tashqari, aholi turmush darajasining pastligi, o‘tmishda O‘zbekistonning faqat paxta etishtirib beruvchi xom-ashyo bazasiga aylantirilishi natijasida, iste’mol uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlarning eng muhim turlari chetdan olib kelinar edi.

---

[67] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.53-modda. Toshkent: O‘zbekiston, 2017 – B.18

[68] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36, 54 -moddalari. Toshkent: O‘zbekiston, 2017–B.15, 18

Birinchi navbatdagi eng muhim vazifa moliyaviy ahvolni barqarorlashtirish, davlat xazinasini tartibga solish, byudjet kamomadiga yo'l qo'ymaslik, ortiqcha, o'ta zarur bo'lmagan harajatlardan qanday bo'lmasin voz kechish zarur edi[69].Bu davrda xotin-qizlar masalasida sobiq ittifoq davridan meros qolgan qator muammolar: ishsizlik, paxta yakkaxokimligi va ijtimoiy muammolar girdobida ayollarning o'ziga-o'zi o't qo'yish muammosi, ayollar va bolalar o'limi, erta turmush va ayrim oilalarda ayollarga nisbatan zo'ravonliklar mavjud edi. Respublikada tadbirkorlikka keng yo'l ochish maqsadida o'tkazilgan xususiylashtirish islohotlari natijasida ko'plab savdo, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, mahalliy sanoat korxonalarining yopilishi mamlakatda ishsizlik muammosini yanada kuchaytirdi**.** Ayniqsa, ishsizlik erkaklarga nisbatan xotin-qizlar o'rtasida yuqori bo'lib, ishdan bo'shatilgan xotin-qizlarning deyarli yarmi mehnatga layoqatli bo'lgan har xil sohadagi mutaxassislar edi.

Mana shunday sharoitda davlat tomonidan amalga oshirilgan eng muhim tadbirlardan biri qishloqda yashovchi har bir kishiga o'rtacha 25 sotixdan er ajratib berish va tomorqa maydonlarini qariyb 4,5 barobarga ko'paytirilishi bo'ldi. Bu boradagi amaliy ishlar natijasida 1989-1990-yillarda bir yarim milliondan ortiq oilaga qo'shimcha er ajratildi, 700 ming oilaga yangi tomorqa erlari berildi[70].

O'ta murakkab vaziyatda bunday qarorning qabul qilinishi O'zbekiston bo'ylab ming-minglab odamlar,

[69] Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafoloti . Konstitutsiyamizning 1 yilligidagi nutq. 1993 yil 7 dekabr. – Toshkent:O'zbekiston, 2-jild, 1996. – B.250.

[70] Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent:O'zbekiston, 2011. – B.12.

jumladan xotin-qizlarning band bo'lishi, o'z tomorqalaridan har tomonlama unumli foydalanish yo'llarini izlashi, bozorlarda mahsulot ko'payib, narx-navolar arzonlashishi, eng muhimi, ma'lum ma'noda oilalar farovonligining ortishi, ijtimoiy keskinlikni, jumladan, oziq-ovqat taqchilligi oldi olinishiga olib keldi.

Respublikada xususiy mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga yondashuvning muhim xususiyati – uni davlat dasturlari asosida bosqichma-bosqich amalga oshirib borilganligidir. Agar 1990-1991 yillarni islohotlar tajribasini orttirish va o'rganish davri deb hisoblash mumkin bo'lsa, 1992-1994-yillar faol xususiylashtirishning birinchi bosqichiga aylandi[71]. Shunday bo'lsada, 1991-1992-yillar mobaynida 2000 ga yaqin davlat obyektlari xususiy mulkning turli shakllariga, jumladan 600 tasi xususiy mulkka, 10 tasi jamoatchilik mulkiga, sotib olish sharti bilan 80 tasi ijara mulkiga, 200 dan ortig'i aksiyadorlik jamiyati mulkiga aylantirildi[72]. 1993-yilgacha bo'lgan davrda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida xususiylashtirishga oid 20 ta davlat dasturi qabul qilindi va amalga oshirildi[73]. O'zbekiston Respublikasining xususiy mulk, kichik biznes, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirish hamda qo'llab-quvvatlash borasidagi "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish"(1991), "Jamoat birlashmalari" (1991), "Ijara to'g'risida" (1992), "Tadbirkorlik to'g'risida"(1991), "Kooperatsiya to'g'risida"(1993) gi

[71] Yoqubov D. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijalarining samarasi //"Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №4, avgust, 2014.–B.25.

[72] O'zR PAA, 975-jamg'arma, 19-ro'yxat, 01-yig'majild, 81-varaq.

[73] Karimov I.A Buyuk kelajagimizning huquqiy kafoloti. Konstitutsiyaning 1 yilligidagi nutq. Toshkent: O'zbekiston, 1996, 2-jild. – B.102

qator Qonunlari, Prezident Farmonlari va hukumat qarorlari shular jumlasidandir. Respublika hukumati keng ko'lamda xususiylashtirish islohotlarini amalga oshirib, davlat tasarrufidan chiqarilgan mulklar aksionerlik, jamoaviy hamda kooperativ mulk shakllariga aylantirila boshlandi.

Xususiylashtirish islohotlarining birinchi bosqichi (1992-1994-yillar) kichik korxonalarga qaratildi, davlat mulkini boshqarish va uni mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirish uchun kerak bo'lgan muassasalar tizimi, maxsus organlar tuzildi. Birinchi bosqichda xususiylashtirish asosan savdo, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, mahalliy sanoat korxonalarida amalga oshirilib, ular xususiy va jamoa (shirkat) mulkiga aylantirildi. Respublikaga iqtisodiy islohotlar dasturini qo'llab-quvvatlash va amalga oshirish uchun xalqaro tashkilotlar va qarz beruvchi 21 ta mamlakat texnikaviy yordam ko'rsatdi. Bu yordam 1993-1994-yillarda salkam 75 million AQSh dollariga teng bo'ldi[74]. Mazkur texnikaviy yordam mutaxassislar tayyorlashga, iqtisodiyotni boshqarish va bozor iqtisodiyotiga o'tishni davlat yo'li bilan tartibga solishga, ishchi kuchini rivojlantirishga, energetika va transport tizimini takomillashtirishga, sog'liqni saqlash, dori-darmon bilan ta'minlash va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi texnikaviy hamda insonparvarlik yordamiga, moliya, soliq va bank tizimlarini mustahkamlashga, iqtisodiyotning turli sohalarini kompyuterlashtirishga yo'naltirildi. 1994-yilnin 9 oyi davomida 1993-yilning shu davriga nisbatan nodavlat sektordagi korxonalar soni 20,0 mingtadan 27,7

[74] Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Toshkent: O'zbekiston, 3-jild, 1996 – B.251

mingtaga oshdi. Shu davr mobaynida kichik korxonalarning soni ham ko'payganligi kuzatildi, ularning soni 8421 taga etdi va o'sish sur'ati 147,9 foizni tashkil qildi. Respublikada ro'yxatga olingan 26141 ta kichik korxonalardan 15415 tasi yoki 58,9 foizi xususiy korxonalar bo'lib, ularda band aholining o'rtacha soni 130,7 ming kishini tashkil qilgan[75].

1994-yilning o'rtalaridan xususiylashtirishning ikkinchi (1994-1998-yillar) bosqichi, ya'ni ommaviy xususiylashtirish boshlandi. Bu bosqichda ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarini yaratish, ularning aksiyalarini muomalaga chiqarish, shuningdek keng ko'lamli ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlar bozorlarini barpo etish vazifalari belgilab olindi. Natijada, 1995-yil boshlarida savdo-sotiq hajmi va umumiy ovqatlanish yalpi mahsulotining 82 foizidan ortiqrog'i davlatga qarashli bo'lmagan sektorga to'g'ri keldi[76]. Qishloqda tarbirkorlikni rivojlantirishga, kichik korxonalar tashkil etishga ahamiyat berildi. Xususiylashtirish natijasida qishloqdagi mavjud ishchi kuchini ish bilan ta'minlash muammosi yuzaga keldi. 3,6 million qishloq xo'jaligida band bo'lgan mehnatga yaroqli fuqarolarning deyarli 2,2 million nafarini bemalol sanoat va xizmat ko'rsatish sohalariga o'tkazish mumkin edi[77]. Qishloq joylarida kichik biznesni rivojlantirish va xizmatlar ko'rsatish sohasini kengaytirish ushbu muammoni hal etishning eng samarali yo'li bo'lib, bu jahon tajribasida o'z isbotini topganganligi inobatga

[75] O'zR PAA, 975-jamg'arma, 20-ro'yxat, 01 -yig'ma jild, 88-varaq.
[76] Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Toshkent: O'zbekiston, 3-jild, 1996. – B.209
[77] Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Toshkent: O'zbekiston, 3-jild, 1996. – B.116.

olindi. Shu maqsadda, respublika qonunchiligida, Prezident farmonlari va hukumat qarorlarida kichik biznesni shaklantirish va rivojlantirishni ta'minlovchi zarur huquqiy asoslar yaratildi. Jumladan, kichik va xususiy biznes sohasida faoliyat olib borayotgan fuqarolardan soliq olish, ularga moliyaviy yordam ko'rsatish, imtiyozli kreditlar ajratish, ularga o'z biznesini tashkil etish, uni moddiy-texnika va xom-ashyo resurslari bilan ta'minlashda yordam berish ko'zda tutildi[78].

1993-yilda kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashuvchi jamg'arma tashkil etilib, respublikaning 187 ta tuman va shaharlarida bo'limlari ochildi[79]. Qishloq joylarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun ushbu jamg'arma tomonilan 62 million so'mdan ortiq kredit ajratildi[80]. Bu esa kichik biznes va tadbirkorlik yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan minglab tadbirkor xotin-qizlar uchun faoliyatlarini yo'lga qo'yish, kengaytirish uchun imkoniyatlar yaratdi.

Agar 1990-yilda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi butun hajmining 37 foizi davlat sektori hissasiga, shunga muvofiq 63 foizi davlatga qarashli bo'lmagan sektor hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 1994-yilda davlatga qarashli bo'lmagan sektor butun mahsulotning deyarli 95 foizini ishlab chiqardi[81]. 1995-yilda respublikada 64428 kichik va

[78] G'ofurov B. Soliq kontseptsiyasi: fuqaroga, biznesga, jamiyatga nima beradi?//Xalq so'zi, 2018 yil 1 avgust.
[79] O'zMA, M-67-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 8-varak.
[80] Karimov I.A. O'zbekistonning siyosi va ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza. Toshkent:O'zbekiston, 1996, 3-jild.– B.117.
[81] O'sha joyda. – B.219.

xususiy korxonalar tashkil topdi[82], lekin 1990-yillar o'rtalarida 1715 ta xususiy korxonalar orasida ko'plab fermer xo'jaliklari o'z faoliyatini to'xtatganligi, ro'yxatga olingan ko'pgina korxonalar ishlamayotganligi aniqlandi[83].

1995-yil 26-iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 291-sonli qarori bilan kichik biznes va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashuvchi jamg'arma faoliyati to'xtatilib, Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash Fondi (Biznes-fond) tashkil etildi[84].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil yakunlariga bag'ishlangan majlisida xususiy korxonalar etarli samara bermayotganligi aytilib, xususiylashtirishning ikkinchi bosqichida ikkita muhim vazifani bajarish, ya'ni tadbirkorlarning ishchanlik qobiliyatini keskin ko'tarish, o'zlarini tiklab olishlari uchun ularga amaliy yordam berish, bu jarayonga aholining barcha qatlamlarini, jumladan,tadbirkor va hunarmand xotin-qizlarni ham jalb qilish ko'zda tutildi.

Ushbu vazifalarni bajarishda yangidan tashkil qilingan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab quvvatlovchi maxsus Biznes fond va u bilan bog'liq Sug'urta agentligining roliga katta ahamiyat berildi.

Xususiylashtirishning mazkur bosqichi bozor tuzilmalarining shakllanishi tugallanadigan davr bo'lib, soliq, moliya va pul kredit siyosatini yanada takomillashtirishni, butun tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishni ko'zda

---

[82] O'zMA, M-67-jamg'arma, 1-ro'yxat, 43-yig'ma jild, 55-varak.

[83] Karimov I.A. O'zbekistonning siyosi va ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza. Toshkent:O'zbekiston, 1996, 3-jild.– B.120.

[84] O'zMA, M-67-jamg'arma, 1-ruyxat, 1-yig'ma jild, 8-varak.

tutib, investitsiya faoliyatini kuchaytirish, chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va shuning natijasida jahon iqtisodiy tizimiga keng miqyosda qo‘shilish, unda davlat maqsadlarini mustahkamlashdan iborat bo‘ldi.

Shu bilan birga, eng muhim vazifa – ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, ham korxonalar, tarmoqlarning, ham umuman, davlatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga erishishdan iborat edi. Iqtisodiy tizimni tubdan o‘zgartirib, xomashyo etkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish, uning sifatini va raqobatbardoshligini jahon bozori talablari darajasiga etkazish muhim strategik vazifalardan biri bo‘ldi. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda kichik biznesga, xususiy tadbirkorlikka iqtisodiy jihatdan jadal rivojlantirishni ta’minlaydigan omil sifatida qaraldi. Chunki ayni shu xususiy sektor eng harakatchan, eng tashabbuskor bo‘lgani sabab, uning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berilsa, u iqtisodiyotni tanglikdan olib chiqishga qodir lokomotiv bo‘lib xizmat qilishi, iqtisodiyotimiz haqiqiy erkin bo‘lishi mumkin edi[85]. 1995-yilga kelib, ishlab chiqarish pasayishini keskin to‘xtatishga erishildi.

Mamlakatda tadbirkorlik harakatining keng yoyilishi, yaratib berilgan qulay imkoniyatlar, aholi, xususan xotin-qizlar o‘rtasida mulkdorlik hissining shakllanishi, boqimandalik kayfiyatining yo‘qolib borishi, mehnatga yarasha daromad olish, shu asosda o‘z oilasi farovonligiga erishish tuyg‘usining kuchayishi muhim rol o‘ynadi. Buni

[85] Karimov I.A. O‘zbekistonning siyosi va ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma’ruza.Toshkent: O‘zbekiston,1996, 3-jild – B.309.

shunda ham ko‘rish mumkinki, 1995-yilda respublikada ijtimoiy faol aholi soni 8 million 474 ming 600 kishini tashkil etgani holda unda ayollar ulushi 3 million 623 ming 300 kishini tashkil etdi[86].

Kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni yanada jadallashtirish va davlat, xo‘jalik hamda jamoatchilik tuzilmalarining qulay tadbirkorlik muhiti yaratish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirishni ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 28-avgustdagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat dasturi to‘g‘risida”gi qarori asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash Davlat dasturi qabul qilindi. Ushbu dasturning asosiy vazifalari hamda yo‘nalishlarini bosqichma-bosqich ijro etish, xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni jadal rivojlantirish asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish, tegishli institutlar tizimini tashkil qilish, sohaga kredit resurslarini ajratish va xorijiy sarmoyalarni kiritish uchun maqbul sharoit yaratish maqsadida 1996-yil 9-iyulda Vazirlar Mahkamasining “Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi[87].

1996-yil boshlarida respublikada 32 ming kichik korxona mavjud bo‘lib, ular xalq xo‘jaligining 22 sohasida faoliyat olib bordi. Kichik tadbirkorlikni yanada rivojlan-

[86] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan 2018 yilda tayyorlangan maxsus ma’lumot/O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990–2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko‘rsatkichlari hamda 2011–2015 yillarga mo‘ljallangan prognozlari. Statistik to‘plam. – Toshkent:O‘zbekiston, 2011. –B.97.

[87] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi 1996 yil 9 iyulda qaror //Xalq so‘zi, 1996 yil 10 iyul.

tirish. maqsadida “Xususiy tadbirkorlik va tashabbusni qo‘llab-quvvatlash haqida” Qonun qabul qilindi, “Biznesfond”, “Madad” sug‘urta jamiyati ushbu sektor uchun xizmat qildi. Natijada, ushbu sektor tomonidan sanoat mahsulotining 44 foizi, qishloq xo‘jaligi mahsulotining esa 97 foizi ishlab chiqarildi. Xalq xo‘jaligida band bo‘lgan aholining 64 foizi ana shu davlatga qarashli bo‘lmagan nodavlat sektor hissasiga to‘g‘ri keldi[88].

Qishloq xo‘jaligida 3,8 million kishi yoki O‘zbekiston iqtisodiyotida faoliyat ko‘rsatayotgan barcha mehnatga layoqatli aholining 46,5 foizi band ekanligini hisobga olib, respublika hukumati tomonidan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini saqlab qolgan xolda, ish bilan band odamlarning sonini kamaytirib, ish unumini va daromadini ikki marta oshirish maqsad qilib qo‘yildi. AQSh, Germaniya, Gollandiya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarda qishloq xo‘jaligida yalpi ishlab chiqarishda mehnatga layoqatli kishilarning 4-5 foizi ishlasa-da, lekin ular tomonidan nafaqat mamlakatning o‘z ehtiyojini qoplaydigan darajada, balki chetga eksport qilish imkoniyatida mahsulot ishlab chiqarishi o‘rganildi. Ayniqsa, respublika aholisining 9 foizigina xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida mashg‘ul ekanligi, chet ellarda bu raqam 60-70 foizni tashkil etishiga ahamiyat berildi[89].

1996-yilning birinchi yarim yilligida respublika iqtisodiyotida jadal o‘sish davri boshlandi. Xususiylashtirish jarayoni chuqurlashdi va kengaydi, kichik va xususiy kor-

[88] Karimov I.A. Bunyodkorlik – farovon hayot asosi. Respublika Oliy Majlisining 1V sessiyasida so‘zlangan nutq. Toshkent: O‘zbekiston, 1996, 4-jild – B.163.
[89] O‘sha joyda.– B.165.

xonalar soni 19,1 mingdan ortdi, o‘z-o‘zidan bu yo‘nalishda faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkor va ishbilarmon xotin-qizlarning faoliyatlari sezilarli darajda ko‘paydi[90].

Respublika hukumati tomonidan 1997-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sifat jihatidan yangi pog‘onaga ko‘tarish eng muhim vazifa qilib qo‘yildi. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi barcha to‘siqlarga barham berish, ta’magirlik, poraxo‘rlikka qarshi qonuniy jazoni kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan imtiyozlarni amalga oshirish choralari belgilandi.

Respublika hukumatining topshirig‘iga asosan olib borilgan tizimli bozor islohotlarining xususiy sektordagi natijalari o‘rganilganda, kichik biznes va tadbirkorlik rivojiga to‘siq bo‘layotgan jiddiy muammolar aniqlandi. Bularning eng asosiysi korrupsiya bilan bog‘liq muammolar edi. Tahlillar asosida O‘zbekistonda korrupsiya muammosi dunyodagi boshqa mamlakatlarga nisbatan dolzarbroq ekanligi aniqlandi. Ma’lum bo‘lishicha, firmalarning 58 foizi ishlarini bitirish uchun pora berishlari shart ekan. Shuningdek, korrupsiyaning bir nechta qiziqarli ko‘rinishlari aniqlangan, jumladan, korrupsiyaning ko‘p qismi (55 foizi) to‘liq qonuniy harakatlarni amalga oshirish uchun “moylashga” beriladi. Bu biznesni yuritish uchun bo‘lgan boshlang‘ich sarflarning balandligini ko‘rsatadi[91]. Taxlillarga ko‘ra, rivojlanayotgan davlatlarda korrupsiyaning 40 foizi shu turga kiradi. Pora bergan firmalarning 26 foizi idora xodimlari tomonidan tahdid ho-

[90] Karimov I.Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi.–Toshkent: O‘zbekiston, 1997, 5-jild– B.82.
[91] O‘zR PAA, 975-jamg‘arma, 26-ro‘yxat,7-yig‘majild , 97-varaq.

latlari xavfidan cho‘chiydilar. Bu boshqa rivojlanayotgan hududlardagi raqamning yarmini tashkil etadi. Joylarda poraxo‘rlik ildiz otgani va poraxo‘r o‘z harakatlaridan cho‘chimaganligidan dalolat beradi. Pora uzatilgan bo‘lsa, xizmat 80 foiz bajariladi, bu masalada hech qanday noaniqlik yoki to‘siq bo‘lishi mumkin emas. Korrupsiyani bartaraf etish maqsadida davlat tomonidan uch yo‘nalishda chora-tadbirlar belgilandi:

1.Korrupsiya rivojlanishini qisqartirish uchun iqtisodiyotni liberallashtirish.

2.Sud va qonun tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta’minlash, aholi o‘rtasida axlokiy tarbiya va tushuntirish ishlarini olib borishni kuchaytirish orqali korrupsiyaninig jamiyat taraqqiyoti uchun zararli oqibatlarini ularga anglatish.

3.Xususiy sektorning davlatga bo‘lgan ishonchini oshirish.

Belgilangan choralarga qaramasdan, 1996-1997-yillarda xususiy sektor sohasidagi tekshiruvlarning tahliliy natijalari (Jahon rivojlanish banki uchun tayyorlangan hisobotda) O‘zbekistonda hali davlatga bo‘lgan ishonch to‘laqonli emasligini ko‘rsatdi. Shunday tekshiruvlar 69 ta davlatning 3600 firmasida o‘tkazilgan. So‘rovnomalarda qatnashgan O‘zbekistonning 80 foiz firmalari kichik xususiy firmalar bo‘lib, ishchilarsoni 50 dan ortiq bo‘lmagan. Institutsion tuzilmalar ko‘rsatkichlari bo‘yicha O‘zbekistonda, buning ichida siyosiy noaniqligi, tan olinganligi va mulkining himoyasizligi, sud qonunlarining ishonchsizligi, siyosiy va qonuniy masalalarda to‘siqlar borligi, shuningdek korrutsiya mavjudligi aniqlangan[92].

[92] O‘zR PAA,975-jamg‘arma, 26-ro‘yxat , 7-yig‘ma jild, 97-varaq.

Shu bilan birga, iqtisodiyotni rivojlantirishda 1998-yil 9-aprelda "Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni[93] muhim bo'ldi. 1999-yilda O'zbekistondagi kichik korxonalarda xo'jalik faoliyatlari o'rganilganda ular faoliyatidagi sustkashlik holatlari aniqlandi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida umumiy ishlab chiqarish ulushi 90-95 foizni ko'rsatgani holda, mamlakatda bu ko'rsatkich 51,9 foizni tashkil qilayotgani ma'lum bo'ldi[94]. Ularni yanada faollashtirish, tadbirkorlik salohiyatini o'stirish, yangi ish joylarini yaratish, ishlab chiqarish hajmini va xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish,sohaga xotin-qizlarni keng jalb qilish, ular tomonidan qishloq joylarda maishiy xizmat ko'rsatish hissasini yanada oshirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilandi.

Respublikada shakllangan kichik va xususiy tadbirkorlik harakatini bozor talablari asosida rivojlantirish hamisha dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki, kichik biznes: savdo sohasida – 50,6 foiz, ishlab chiqarishda – 14,3 foiz, qurilishda – 12,5 foizni tashkil qilar edi. Kichik tadbirkorlik korxonalari respublikada mavjud bo'lgan bo'sh moddiy resurslar, qishloq xo'jaligi xom-ashyosi, bo'sh mehnat resurslari, ishlab chikarish tizimlarining imkoniyatlari va hududlarda shakllanayotggan bozor tizimidan etarli darajada foydalana olmayotgan edi[95].

---

[93] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni//Xalq so'zi, 1998 yil 10 aprel.

[94] O'zR PAA,975-jamg'arma, 26-ro'yxat, 7-yig'ma jild, 97-varaq.

[95] O'zR PAA,975-jamg'arma, 26-ro'yxat, 7-yig'ma jild, 97-varaq.

Kichik biznesning rivojlanishiga kichik korxonalarning asosiy kismi kreditlardan foydalanmasligi, ularga katta muhtojlik sezsa-da (garovning yo'qligi, kafilning yo'qligi yoki banklarning baland foizlari), moliyaviy etishmovchilik sabab zamonaviy, qulay va yuqori texnologik uskunalar sotib olish uchun imkoniyatining yo'qligi, mahsulotlar narxlarining balandligi, murakkab soliq tizimi, moliya-kredit mexanizmining eskirganligi, bozor infratuzilmasining rivojlanmaganligi, biznes markazlari maslahatxonalari va biznes inkubatorlarining yo'qligi, joylarda aholi bandligi dasturi to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, oldi-sotdi va xomashyo materiallari bozorlarining kamligi, kichik va o'rta biznes sohasida mutaxassislar etishmasligi, huquqiy savodsizlik, byurokratik boshqaruvninig kuchli bosimi, nazorat qiluvchi organlarning ko'pligi, tadbikorlik faoliyati to'g'risidagi qonunlarning buzilishi va banklarga ishonchsizlik holatlari to'sqinlik qildi[96].

Biroq, tadbirkorlar, jumladan, hunarmand xotin-qizlar ishlab chiqargan mahsulotlarini sotishdan kam daromad olsalar-da, mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, ularda o'z faoliyatini davom ettirish ishtiyoqi baland ekanligi kuzatildi[97].

Uchinchi bosqich, ya'ni 1999-2000-yillarda asosan o'rta va yoqilg'i-energetika tarmog'idagi yirik korxonalar xususiylashtirildi. 2000-yilning boshlarida kichik va o'rta biznes, fermer va dehqon xo'jaliklarining huquqiy asosini mustahkamlashga qaratilgan "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolotlari to'g'risida"gi Qonun, Prezident

[96] O'zR PAA,975-jamg'arma, 26-ro'yxat, 7-yig'ma jild, 58-varaq.
[97] O'zR PAA,975-jamg'arma, 26-ro'yxat, 7-yig'ma jild, 58-varaq.

farmonlari va hukumat qarorlari qabul qilindi[98]. Tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi, uni kafolatlaydigan kuchli tizim yaratildi. Kichik va o'rta biznes subyektlari, xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxslar uchun to'lov tizimida sezilarli darajada engillik kiritildi. Kichik va o'rta biznes korxonalarining hisob yuritish, hisobot berish tartibi qisqartirildi va ancha soddalashtirildi. Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes subyektlariga kredit berish tizimi yaxshilandi. 2000-yilning birinchi yarmida kichik va o'rta biznes subyektlariga ajratilgan kredit mablag'lari 37 milliard so'mni tashkil etdi. Natijada, xotin-qizlarning ijtimoiy faol aholi sonidagi ulushi 1995-yildagi 3 million 623 ming nafardan 2000-yilga kelib, 3 million 977 ming nafarga oshgani kuzatildi[99].

Bu sohani qo'llab-quvvatlash maqsadida tashqi maqsadli kreditlar hajmini oshirish uchun Yevropa qayta tiklash va taraqqiyot banki bilan hamkorlikda dastur ishlab chiqildi. Mazkur dastur kichik va tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish uchun 20 million AQSh dollari miqdorida kredit liniyalari ochildi. Uning asosiy yo'nalishlari mahalliy xom-ashyolarni qayta ishlash, xizmat ko'rsatish va kasanachilikni rivojlantirish, kichik biznes korxonalarini tashkil etishga qaratildi[100].

Kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2000-yildan boshlab mikrokredit berish tizimi joriy etildi. Germaniya, Yaponiya, AQSh iqtisodiyoti-

---

[98] "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolotlari to'g'risida"gi 2000 yil 25 maydagi 69-sonli Qonuni (Elektron resurs). Kirish rejimi: http:/www.lex.uz(murojaat qilingan sana 18.11.2017).

[99] O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 2018 yilda tayyorlangan maxsus ma'lumot.

[100] O'zR PAA,975-jamg'arma, 30-ro'yxat, 15-0/-02-09-yig'ma jild, 218-varaq.

ning asosini yirik konsern va kompaniyalar emas, balki aynan kichik va o'rta biznes tashkil etadi, Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning yalpi ichki mahsuloti tarkibida kichik va o'rta biznes ulushi 67 foizdan ortiq. Yaponiyada kichik va o'rta biznes tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholining 80 foizi, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa 70 foizi ishlaydi[101].

Respublikadagi demografik vaziyatning o'ziga xos xususiyatini inobatga olgan holda, ya'ni aholi, ayniqsa, mehnatga qobiliyatli yoshlarning soni tez o'sib borayotganligi, yiliga tahminan 200-230 ming kishiga ko'payayotganligini inobatga olib, ortiqcha ishchi kuchlarini ish bilan ta'minlash, ishsizlik masalasini hal etish – mamlakatdagi eng muhim dolzarb iqtisodiy va ijtimoiy muammolardan biri bo'lib kelayotganligini anglash qiyin emas.

To'rtinchi bosqich – 2001-2005-yillarni o'z ichiga olib, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik sektorini kengaytirish, davlat obyektlarining to'liqligicha xususiy mulk sifatida sotilishi ulushining ortib borishi bilan izohlanadi. Mazkur yillarda kichik korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish borasidagi sarsongarchiliklar va ortiqcha xarajatlarning oldini olish maqsadida bu ishlarni tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi orqali amalga oshirish, bankrot korxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish masalalariga ahamiyat berildi.

2002-yil mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish masalalariga ahamiyat berilib, 2 mingga yaqin davlat korxonasi va obyektlari o'z mulk shaklini o'zgartirdi, bu xususiylashtirish dasturida ko'zda tutilganidan bir yarim barobar ortiqni tashkil etib, davlatga

[101] Karimov I.A.Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz.– Toshkent: O'zbekiston, 2001, 9-jild – B.396.

qarashli korxona va obyektlarning kattagina qismi, ya'ni 1 ming 260 tasi to'liq xususiylashtirildi. 38 mingga yaqin mikrofirma, kichik va o'rta korxona tuzilib, ularning umumiy soni 240 mingtaga etdi[102]. Birgina Andijon viloyatida 2000-yil 1 iyul holatiga ro'yxatga olingan kichik va o'rta biznes subyektlari soni 15570 ta bo'lib, joriy yilning 1-yanvar xolatiga nisbatan 9,2 foizga ortdi[103].

2005-yilda kichik tadbirkorlik (biznes)ning yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushi 38,2 foizni, tashkil qildi, iqtisodiyotda band aholining 64,8 foizi mazkur sohada mehnat qilayotganligi ma'lum bo'ldi[104].

Beshinchi bosqich – 2006-2009-yillardagi islohotlar davri bo'lib, mazkur bosqich O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 10-iyuldagi "2006-2008-yillarda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish to'g'risida"gi qarori[105] qabul qilinishi bilan boshlandi. Iqtisodiyotda xususiy mulkchilik rolining ortishi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav fondida davlat ulushining qisqarishi, yuridik va jismoniy shaxslarning binolari, inshootlari bilan band bo'lgan er uchastkalari xususiy mulk huquqida xususiylashtirilishi ushbu bosqichning muhim jihatidir. 2006–2010-yillarda

---

[102] Karimov I.A, Islohotlar strategiyasi – mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdir. 2002 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2003 yilda iqtisdiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza. – Toshkent: O'zbekiston, 2003, 1-jild – B.165.

[103] O'zR PAA Andijon viloyati bo'limi. 4141-jamg'arma, 18-ro'yxat. Viloyat Xokimligining 2000 yil 1-yarim yilligi yakuniga bag'ishlangan yig'ilish bayoni.

[104] O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 2019 yilda tayyorlangan maxsus ma'lumot.

[105] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2006-2008 yillarda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish to'g'risida"gi 2006 yil 10 iyuldagi PQ-407-sonli qarori (Elektron resurs). Kirish rejimi:http://www.lex.uz/rudocs/ (murojaat qilingan sana 12.12.2017).

ishlab chiqarishni texnik jihatdan muntazam modernizatsiya qilib borish uchun samarali rag'batlantirish tizimi yaratildi. Modernizatsiya va yangilash jarayonlarini jadallashtirish uchun korxonalarning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar hisobidan yo'naltirayotgan sarmoyalarini uch yilga daromad (foyda) solig'idan, o'rnatilgan va ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan yangi uskunalarni esa mulk solig'idan ozod qilindi.

2006-yilda respublikada Mikrokreditbank tashkil etilib, 2008-yil oxirlarida respublika hududlarida uning 78 ta filiali va 270 dan ziyod mini banki faoliyati yo'lga qo'yildi. Aytish mumkinki, mamlakatda mikrokredit tizimining yaratilishi hunarmand xotin-qizlar tadbirkorligining oshishida progressiv ahamiyatga ega bo'ldi. 2005-yilda 198,4 mingta, 2010-yilda 458 mingta ish o'rinlari tashkil etilgan bo'lsa, ularning katta qismi kichik biznes va tadbirkorlik, shuningdek uy mehnatining barcha shakllarini tashkil etish hisobiga to'g'ri keldi. Birgina Mikrokreditbank tomonidan 2007-yil ajratilgan 11 milliard so'm kreditlar hisobidan ish bilan band bo'lmagan xotin-qizlar uchun 12,3 ming ish o'rinlari yaratildi[106].

2007-yilda respublikada 190 mingga yaqin fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatib, ularda salkam 1,4 million kishi band edi. 2007-yilning boshida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining soni qariyb 350 mingtaga etdi yoki 2000-yildagiga nisbatan 2,3 marta ko'paydi[107].

---

[106] O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining joriy arxiv ma'lumotlari. 2010 yil, 14-jild, 34-varaq.

[107] Karimov I.A. 2006 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlang Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruza. –Toshkent: O'zbekiston, 2007, 15-jild –B. 201.

2008-yil Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini imkon qadar kamaytirishga qaratilgan "Inqirozga qarshi choralar dasturi" asosida korxonlarni modernizatsiya qilish, xalqaro sifat standartlariga o'tish bo'yicha dasturlarni amalga oshirishni tezlashtirish orqali mamlakatni ham tashqi, ham ichki bozorda barqaror mavqega ega bo'lishiga erishish, eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Inqirozga qarshi choralar dasturida kichik biznesni rivojlantirishga alohida ahamiyat berildi. Yangi tashkil etilayotgan kichik va xususiy korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Imtiyozli kredit jamg'armasining resurs bazasini ikki baravar oshirish ko'zda tutildi. Shu bilan birga, imtiyozlarni amal qilish muddati cho'zildi, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun berilgan kreditlarning muddati 12 oydan 18 oyga uzaytirildi[108].

2008-yilda kichik biznes va tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushini 48 foizga, 2010-yilga borib esa, 50-52 foizga, xizmat ko'rsatish sohasini tegishli ravishda 45 va 49 foizga etkazish uchun to'la sharoitlar borligi e'tirof etildi. Natijada, 2010-yilda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 52,5 foizga etdi[109].

Bunda tadbirkor xotin-qizlar uchun ajratilayotgan kreditlar hajmining yildan-yilga oshib borishi ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Agar 2008-yilda Respublika markaziy banki tomonidan xotin-qizlar tadbirkorligi uchun 148 milliard 700 million so'm kredit ajratilgan

[108] Karimov I.A.Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash oliy maqsadimiz.–Toshkent: O'zbekiston, 2009, 17-jild –B. 187.
[109] O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 2018 yilda tayyorlangan maxsus ma'lumot.

bo'lsa, bu ko'rsatkich 2010-yilda 250 milliard 595 million so'mni tashkil qildi[110].

Oltinchi bosqich, 2010-yildan boshlandi[111], 2011-yilning "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishi va qabul qilingan davlat Dasturi sohadagi islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Dasturga asosan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, ushbu soha rivoji uchun yanada keng yo'l ochib berishga va byurokratik to'siqlarning sezilarli darajada bartaraf etilishiga erishildi. Shu yil 24-avgustdagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4354-sonli Farmonga[112] asosan barcha darajadagi davlat boshqaruvi idoralari, huquqni muhofaza etish hamda nazorat organlari, tijorat banklari bilan o'zaro munosabatda tadbirkorlar huquqlari ustuvorligi tamoyiliga amal qilinishi ta'minlandi.

Vazirlar Maxkamasining 2010-yilning asosiy yakunlari va 2011-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida 2010-2015-yillarda, ya'ni "yaqin besh yil ichida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini kamida 60 foizga oshirish, yalpi ichki mahsulotda uning ulushini 2010-yildagi 24 foizdan

---

[110] O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining joriy arxiv ma'lumoti. 2010 y, 17-jild, 19-varaq.

[111] Yoqubov D. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijalarining samarasi //"Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №4, iyul-avgust, 2014y.

[112] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlarto'g'risida"gi2011 yil 24 avgustdagi PF-4354-soli Farmoni (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www.Lex.uz/rudocs/(murojaat qilingan sana 5.06.2017).

2015-yilda 28 foizga ko‘paytirishni ta’minlash vazifasi qo‘yildi”[113].

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 3-iyuldagi “Davlat mulki obyektlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga sotish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan 2014-yilda sotish nazarda tutilgan davlat mulki obyektlarining ro‘yxatlari tasdiqlandi[114]. Bu me’yoriy hujjat ham davlatning iqtisodiyotdagi ulushini qisqartirishga xizmat qildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 28-apreldagi “Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori iqtisodiyotda davlat ulushining qisqarishi va xususiy mulkning ortishiga xizmat qildi. Unda nol qiymatida sotiladigan obyektlar ro‘yxati keltirildi[115].

Tadbirkor ayollar tashabbusini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun respublikadagi tijorat banklari tomonidan ajratilgan imtiyozli kreditlar 2015-yilning 11 oyida 1,2 trillion so‘mni tashkil qildi[116].

O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi tomonidan (palata O‘zbekiston 2004-yil 7-iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan Tovar ishlab

---

[113] Karimov I.A. 2010 yilning asosiy yakunlari va 2011 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruza.– Toshkent: O‘zbekiston, 2011, 19-jild –.B.213.

[114] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat mulki ob’ektlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga sotish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2014 yil 3 iyuldagi qarori //Xalq so‘zi, 2014 yil 4 iyul.

[115] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2015 yil 28 apreldagi qarori //Xalq so‘zi, 2015 yil 29 aprel.

[116] “Tadbirkor ayol” O‘zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasining joriy arxiv ma’lumotlari. 2016 yil, 10 -jild, 17-varaq.

chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi negizida tashkil etilgan. Dissertant M.B). 2004–2016-yillardagi 1073 ta me'yoriy hujjatning tadbirkorlik faoliyatiga ta'sirini baholash maqsadida huquqiy hamda iqtisodiy ekspertizasi amalga oshirildi, nazorat qiluvchi organlar tomonidan tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatidagi 8 ming 394 ta tekshiruvda, shu jumladan, 7 ming 764 ta rejali va 630 ta rejadan tashqari tekshiruvda qatnashdi. Tadbirkorlar manfaati ko'zlangan holda sudlarga 202 ming 89 ta da'vo arizasi kiritilib, ulardan 160 ming 374 tasi talablari to'liq qondirildi. 415 tasi esa davlat hamda xo'jalik boshqaruvi organlari qarorlari yoki ularning mansabdor shaxslari harakatlari va harakatsizligi yuzasidan bo'lgani aniqlandi, respublikaning barcha hududida faoliyat yurituvchi Savdo sanoat palatasi qoshida hakamlik sudi tizimi joriy etildi[117]. 2015-yilda tadbirkorlik subyektlari Internet tarmog'i orqali Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro'yxatga olindi, mamlakatning barcha hududlarida- tadbirkorlik subyektlariga "Yagona darcha" tamoyili asosida Davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlari faoliyat boshladi.

2016-yil oxirlaridan mamlakat taraqqiyotida yangi davr boshlandi. Shu yili 5-oktyabrda tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga qaratilgan Prezident Farmoni imzolandi[118].

---

[117] Shayxov A. Tadbirkorlik sub'ektlari qo'llab-quvvatlanmoqda //Xalq so'zi, 2016 yil 12 avgust.

[118] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni // Xalk so'zi, 2016yil 6 oktyabr, №197.

Farmon avvalo, xususiy mulkni huquqiy himoya qilishni yanada kuchaytirishga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga va har tomonlama qo'llab-quvvatlashga, respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga yo'naltirilgan va ushbu sohada davlat siyosatining sifat jihatidan yangi darajaga o'tishidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasini har tomonlama rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga asosan respublika iqtisodiyotni yanada rivojlantirish borasida belgilangan vazifalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rniga alohida ahamiyat berildi. Jumladan, 2017-yilning "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb nomlanib, ushbu yildagi davlat Dasturida belgilangan islohotlarni amalga oshirish maqsadida respublika Prezidentining sohaga oid qator Farmonlari va qarorlari qabul qilindi [119].

Farmon kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berish, ularning faoliyatiga asossiz aralashuvni tubdan qisqartirish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldi

[119] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki ob'ektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4933 sonli, "Eksport-import operatsiyalarini tartibga keltirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1995 yil 11 apreldagi PF-1096 sonli Farmoniga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi PF-4902 sonli, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili institutini ta'sis etish to'g'risida"gi PF-5037 sonli, "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" 2005 yil 5 oktyabrdagi PF-3665 son Farmoniga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi PF-5102 sonli farmonlari, hamda "Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2746, "Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish Kafolat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2768 sonli, "Kasanachilikni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2996 sonli, "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3225 sonli qarorlari.

olinishini ta'minlash, ularning profilaktikasi samaradorligini oshirish va huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslikni davlat organlarining birinchi darajali vazifasi sifatida mustahkamladi. Ushbu maqsadlarda davlat organlariga, eng avvalo, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi tuzilmalarga o'z faoliyatlarida belgilangan talablarni hamda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari ustuvorligiga so'zsiz amal qilish va o'z faoliyatlarini tanqidiy qayta ko'rib chiqish vazifasi yuklatildi.

2017-yilga qadar tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratilishi natijasida 1200 tadan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, 160 tadan ziyod qonun, O'zbekiston Prezidentining 200 taga yaqin farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qariyb 300 ta qarori qabul qilindi[120]. Ammo, tadbirkorlikka doir qonun hujjatlarining tahlili va inventarizatsiyasi shuni ko'rsatmoqdaki, sohaga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlar bu darajada ko'p sonli ekani ulardagi muhim normalarni to'g'ri tushunish va qo'llashni qiyinlashtiradi, qolaversa, ulardan amaliyotda yagona tartibda foydalanish borasida muayyan murakkabliklar tug'diradi.

Bugungi kunga kelib, tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning institutsional tizimi yaratildi. Tadbirkorlar huquqlarining kafili Asosiy Qonunimizning 93-moddasiga muvofiq Prezidentdir. Parlament tomonidan tadbirkorlik bo'yicha qonunlarning qabul qilinishiga, sudlar tomonidan tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarining himoyalanishiga, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura va boshqa

[120] Saidov A."Biznes-Ombudsman"–Prezident loyihasi (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://parlament.gov.uz. (murojaat qilingan sana 3.08.2018).

huquqni muhofaza qiluvchi organlar tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish yo'lida ish olib borayotganiga qaramasdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasiga kelib tushayotgan ko'plab murojaatlar xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lida hali ham to'siq hamda cheklovlar borligidan, ularga to'liq erkinlik berilmayotganidan, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarga yo'l qo'yilayotganidan dalolat bermoqda.

Tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik va to'sqinlik qilganlik, ularning faoliyatini asossiz to'xtatib qo'yganlik uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi to'g'risidagi qonun hujjatlari normalari talablari qat'iy bajarilishini, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga etkazilgan zararning bevosita aybdorlardan undirilishini ta'minlash topshirildi. Ushbu me'yor davlat organlariga aybdor xodimlarga nisbatan nafaqat intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikning eng qattiq choralarini qo'llash majburiyatini yuklabgina qolmasdan, balki tadbirkorlik subyektlariga etkazilgan zararning bevosita aybdorlardan undirilishini ta'minlashni ham yukladi. Ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi noqonuniy tekshirishlarni o'tkazilishiga, ayniqsa, davlat organlari xodimlarining noqonuniy hatti-harakatlari oqibatida tadbirkorlik subyektlarining faoliyati asossiz to'xtatilishiga va zarar etkazilishiga yo'l qo'ymaslikka yo'naltirildi.

2017-yilning 1-yanvaridan boshlab ilgari ko'rilmagan choralar, jumladan, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini

rejadan tashqari tekshirishlarning barcha turlari bekor qilindi. Bundan yuridik shaxsning tugatilishi bilan bog'liq tekshirishlar, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlari buzilishi holatlari to'g'risidagi murojaatlari asosida faqatgina nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining qaroriga muvofiq o'tkaziladigan qisqa muddatli tekshiruvlar bundan mustasno. Shunday qilib, nazorat qiluvchi organlar endilikda rejadan tashqari tekshirishlar o'tkazishni tashkil qilish huquqiga ega emas.Ular faqat jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlari buzilishi holatlari to'g'risidagi murojaatlari asosida qisqa muddatli tekshirishlar o'tkazishning cheklangan imkoniyati saqlanib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi "Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil to'g'risida"gi qonun loyihasi respublika rahbarining 2017-yil 5-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili institutini ta'sis etish to'g'risida"gi PF-5037-sonli Farmoni[121]ga muvofiq ishlab chiqildi. Ushbu Farmon asosida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Parij prinsiplariga asosan, yangi, inson huquqlari bo'yicha milliy institut, ya'ni Biznes-Ombudsman instituti ta'sis etildi. Bu ko'rilgan chora-tadbirlar, yillar davomida tadbirkorlik bilan shug'ullanib kelgan

[121] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili institutini ta'sis etish to'g'risida"gi PF-5037-sonli Farmoni (Elektron resurs). Kirish rejimi:http://www.lex.uz/rudocs/(murojaat qilingan sana 12.09.2018).

xotin-qizlar faoliyatidagi sun'iy to'siqlarni bartaraf etish, ortiqcha ovoragarchiliklarning oldini olish, ularni huquqiy jihatdan har tomonlama qo'llab-quvvatlash imkoniyatini berdi. Haqiqatdan ham, xotin-qizlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati jarayonida ularning qo'llab-quvvatlanishi natijasida 2017-yilga kelib, respublikada kichik biznes subyektlari soni 120 mingtani tashkil qilib, jumladan, 4 ming 550 dan ortiq fermer xo'jaliklarini xotin-qizlar boshqarmoqda edi[122]. Zero, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini, xususan kichik biznes va tadbirkorlik rivojini xotin-qizlar faoliyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Bob bayonidagi fikrlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

O'zbekistonda mustaqillik yillarida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor islohotlari samaradorligini oshirishda xotin-qizlarning roli va o'rni tobora ortib bormoqda. Jamiyat hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi, kichik biznes va tadbirkorlik sohasida mehnat qilishi uchun zarur huquqiy va ijtimoiy kafolotlarning yaratilganligi shundan dalolat beradi.

So'nggi yillarda ayollarning siyosat va iqtisodiyotga keng jalb qilinishi tufayli jamiyatda ayollarning mavqei mustahamlanib borayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Avvallari ayollar faqat uy-ishlari, bola tarbiyasi bilan shug'ullanishi kerak, degan fikr mavjud bo'lsa, endilikda jamiyatni ayollarning keng ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Darhaqiqat, respublika xotin-qizlarining qa-

[122] O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining joriy arxiv ma'lumotlari. 2017 yil, 27-jild, 12-varaq.

riyb 70 foizi ijtimoiy foydali mehnat bilan band ekanligi buning isbotidir.

Respublikada kichik biznes va tadbirkorlikni jadal taraqqiy toptirish barobarida, tadbirkor ayollarning Vatan ravnaqi, oilalar farovonligi yo'lidagi sa'y-harakatarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash ularning oila va jamiyadagi mavqeini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

IKKINCHI BOB

RESPUBLIKA XOTIN-QIZLARINING IJTIMOY-IQTISODIY FAOLLASHUVIDA AYOLLAR TASHKILOTLARINING ROLI

2.1. Xotin-qizlarning kichik biznes va tadbirkorlik sohasidagi faoliyatlarini oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarning o‘rni

O‘zbekistonda xotin-qizlarning kichik biznes va tadbirkorlik harakatidagi faoliyatining yildan-yilga kengayib borishi, ularning jamiyat rivojida muhim ijtimoiy kuchga aylangani, hech shubhasiz mustaqillik yillarida amalga oshirilgan bu boradagi davlat siyosati nafaqat yurtimizdagi ko‘p millionli xotin-qizlar hayotida, balki mamlakat taraqqiyotida juda katta progressiv ahamiyatga ega bo‘lganligining yorqin dalilidir. Shunisi ahamiyatliki, bu boradagi muhim vazifalar, istiqbolli davlat dasturlarini amalga oshirishda davlat tashkilotlari bilan bir qatorda nodavlat notijorat tashkilotlari ham muhim rol o‘ynadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunining (Qonun 1999-yil 14 aprelda qabul qilingan, 2004-yil 30-aprelda uning XXVIII bo‘limiga o‘zgartirishlar kiritilgan. Dissertant M.B.) 2-moddasida “Nodavlat notijorat tashkiloti” – jismoniy

va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir", deb ta'rif berilgan[123]. Qonunga ko'ra, nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolarning ixtiyori bilan tuziladi, daromad (foyda) olish ularning asosiy faoliyati bo'lmasligi kerak. Agar ular pullik xizmat ko'rsatsa, ya'ni qonunda qayd etilganidek noshirlik faoliyatini amalga oshirsa, tadbirkorlik tuzilmasini tashkil etsa, ushbu mablag'larni o'z faoliyatini takomillashtirishga sarflashi nazarga olingan.

O'zbekistonda 9 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari bo'lib, ulardan 376 tasi ayollar muammolari bilan shugullanadi**[124].** Bugungi kungacha respublikada ayollarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini shakllantirishga ko'maklashayotgan ayollar tashkilotlarining muayyan tizimi yaratildi. Davlat siyosatida ushbu xotin-qizlar tashkilotlari faoliyati ayollar manfaatlarining amaldagi haqiqiy ifodachisi va himoyachisi, barpo etilayotgan fuqarolik jamiyatining tom ma'nodagi uzviy bir qismi sifatida e'tirof etiladi. Ushbu tizimning asosini O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tashkil etadi.

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi 1991-yil 23-fevralda tashkil etilgan, u o'z oldiga qo'ygan keng ko'lamdagi vazifalar ichida davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga ayollarni jalb etish asosiy o'rin tutadi. Shu sababli, qo'mita xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi rolini oshirish,

[123] O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni // Xalq so'zi, 1999 yil 15 aprel.

[124] Mirziyoev Sh.M. Oliy majlis Senatining 20-yalpi majlisidagi nutqi (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www.kun.uz//(murojaat qilingan sana 30.07.2019).

ularning ijtimoiy, ma'naviy va kasbiy o'sishi uchun shart-sharoitlar yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan dasturlar ishlab chiqish va ularning bajarilishini tashkil etish borasida muntazam ishlarni amalga oshirib kelmoqda. O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining respublikaning barcha hududlarida bo'limlari bo'lib, 2016-yilda 43.934 ta boshlang'ich tashkilotlarni o'zida birlashtirgan[125].

O'zbekiston Hotin-qizlar qo'mitasining respublikada fuqarolik jamiyati barpo etishda o'ziga xos mavqeiga ega bo'lishida, avvalo O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 1995-yil 2-mart kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni[126]ga asosan O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi raisi ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari, hududiy xotin-qizlar qo'mitalarining raislari esa joylardagi hokimlarning o'rinbosarlari sifatida belgilab qo'yilishi bo'ldi.

Qo'mita qoshida turli yo'nalishlardagi mavjud uyushma, komissiya va to'garaklar xotin-qizlarning kasb mahoratlarini, ularning etakchilik qobiliyatlarini oshirish, ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va turli targ'ibot ishlarini yuritishga ko'maklashmoqda. "Ayol va sport" komissiyasi, "Ayol va ekologiya", "Huquqshunos ayol", "Ijodkor ayol", "Ayol va salomatlik", "Faxriy ayollar" kabi uyushmalar, "Rahbar ayollar", "Iqtidorli qizlar", "Orasta qizlar"

[125] O'zbekiston xotin qizlar qo'mitasining joriy arxiv ma'lumotlari. 2016 yil, 17-jild, 19-varaq.

[126] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 martdagi"O'zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-1084 sonli Farmoni//Xalq so'zi 1995 yil 2 mart.

to‘garaklari tomonidan qator ijobiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Ayniqsa, qo‘mitaning kichik biznes va tadbirkorlik yo‘nalishida faoliyat yuritib kelayotgan ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalari xotin-qizlar tadbirkorlik harakatini keng rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25-maydagi “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borasida muhim bosqich bo‘ldi Oila, ayollar va bolalar manfaatlaridan kelib chiqib, yillarga alohida nomlar berilishi, jumladan “Oila yili” (1998), “Ayollar yili” (1999), “Sog‘lom avlod yili” (2000), “Onalar va bolalar yili” (2001), “Sihat salomatlik yili” (2005), “Barkamol avlod yili” (2010), “Mustahkam oila yili” (2012), “Sog‘lom bola yili” (2014), “Sog‘lom ona va bola yili” (2016) deb e’tirof etilishi va ushbu yillarda qabul qilingan davlat dasturlariga asosan ayollar sog‘lig‘ini, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollarning oiladagi muammolarini bartaraf etish, ular bandligini ta’minlash, tadbirkorlik va kasanachilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilishi o‘zining ijobiy samaralarini berdi.

2014-yil 6-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori qizlarni sog‘lom tarbiyalash, ularga chuqur bilim berish, iste’dodli va ijodiy-intelektual, tadbirkorlik salohiyatini yuzaga chiqarish, har jihatdan qo‘llab quvvatlashga oid sa’y-harakatlar ko‘lamini kengayishiga sabab bo‘ldi. Tashkilot tomonidan o‘tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy

loyihalar yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish, qizlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni turli mafkuraviy tahdidlardan ishonchli tarzda himoyalash, oila, mahalla, o'quv muassasasi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, kichik biznes va tadbirkorlik sohasida o'z ishini ochmoqchi bo'lgan qizlarga huquqiy yordam ko'rsatish, biznes yuritishga o'qitish, banklardan imtiyozli kreditlar olishga ko'maklashish, kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan, nogironligi bor ayollarga ayollarni ijtimoiy muhofaza qilish, ularni kasb-hunarga o'rgatish, uy-joy muammolarini hal etishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga qo'mita xotin-qizlar masalalaridagi mavjud muammolarni o'rganish, ularni bartaraf etishdagi davlat siyosatida ayollar va hukumat o'rtasida "ko'prik" vazifasini bajarib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Prezident Farmonida[127]belgilangan vazifalarda xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning amaliy natijasiga erishish, o'z biznesini tashkil etish va yuritishda aholiga, jumladan, xotin-qizlarga har tomonlama ko'maklashish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash kabilar belgilab qo'yildi.

[127] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanadarivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"giFarmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017, 6-son, 70-modda//Xalqso'zi, 2017 yil 8 fevral. 28 (6722)-son. "O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi"ning veb-sayti(Elektron resurs). Kirish rejimi:http://www.lex.uz/.(murojaat qilingan sana 17.04.2018).

O‘zbekistonda oilani rivojlantirish masalasiga Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot maqsadlari doirasida global darajada qaraladi. 2018-yil 2-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2018-yil 28-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi[128]. Ushbu tarixiy hujjatlarning imzolanishiga asosiy sabab, bugungi kunda jamiyatning muhim bo‘g‘ini hisoblangan oila instituti bilan bog‘liq jiddiy muammolar va kamchiliklarning yig‘ilib qolganligi, oilalarda ajralishlar sonining o‘sib borayotganligi kuzatilmoqda. Oilada, ayniqsa yosh oilalarda ajralishlar sonining o‘sib borayotganligi zamirida ma’lum ma’noda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, tadbirkorlik uquvi va kasbiy malakaning etishmasligi, ishsizlik, u bilan bog‘liq ravishda migratsiya jarayonlari ham yotadi. Tahlillarga ko‘ra, 2012-2016-yillar, ya’ni besh yil mobaynida respublika shahar va qishloqlarida jami tuzilgan nikohlar 299 mingtadan 275 mingtaga kamaygan bo‘lib, jami ajralishlar soni 17,9 mingtadan 29,3 mingtaga ko‘paygan[129]. Agar 2012-yilda ma’lumoti bo‘yicha 13767

[128] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018yil 2 fevraldagi Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi2018 yil 28 iyundagi qarori(Elektron resurs). Kirish rejimi:http://www.uza. uzdocuments Uzbekistan/(murojaat qilingan sana 17.04.2018).

[129] O‘zbekiston ayollari va erkaklari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi Statistik materiallar tarqatishni texnik qo‘llab-quvvatlash sho‘‘basi, 2016.–B.65; 2017.–B.67.

ta oliy, 8297 ta tugallanmagan oliy, 129447 ta o'rta maxsus, 147537 ta umumiy o'rta va quyi ma'lumotli xotin-qizlar nikohdan o'tgan bo'lsa[130], 2016-yil ma'lumoti bo'yicha 13091 ta oliy, 10989 ta tugallanmagan oliy, 197635 ta o'rta maxsus, 53333 ta umumiy o'rta va quyi ma'lumotli xotin-qizlar nikohdan o'tgan[131]. Bu holat bugungi kunda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarining hamkorlikda muhim choralar ko'rishini talab qilmoqda.

Erta nikohning oldini olish bo'yicha olib borilgan tizimli tadbirlarga qaramay, yosh qizlarni turmushga uzatish va u bilan bog'liq muammolar kutilgan natijani bermayapti. Ajralishlar va u bilan bog'liq ravishda oilada farzand tarbiyasidagi muammolar yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa yoshlar o'rtasida o'z joniga qasd qilish, ular o'rtasida jinoyatchilikning kamaymayotganligida namoyon bo'lmoqda. Oila institutini mustahkamlash borasidagi konsepsiyada muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilab berildi.

"Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni[132]ni ijrosini ta'minlash maqsadidagi Vazirlar

---

[130] O'zbekiston ayollari va erkaklari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi Statistik materiallar tarqatishni texnik qo'llab-quvvatlash sho''basi, 2016.– B.66.

[131] O'zbekiston ayollari va erkaklari. – Toshkent:O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi Statistik materiallar tarqatishni texnik qo'llab-quvvatlash sho''basi, 2017.– B.71.

[132] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining"Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-sonli Farmoni/Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.02.2018 y., 06/18/5325/0653-son.

Maxkamasining qaroriga asosan O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi muassisligida Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tashkil etildi[133].

Jamoat fondining asosiy vazifalari xotin-qizlarni va oilani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan, og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar va oilalarga, nogironligi bo‘lgan ayollarga moddiy yordam ko‘rsatish, xotin-qizlarga oilaviy va xususiy tadbirkorlik, hunarmandchilikni tashkil etishda, mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallashda yordam berishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining bu boradagi qarorining 5-bandida O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va “Oila” markazining asoslangan hisob-kitoblariga muvofiq har yili 300 milliard so‘mgacha bo‘lgan miqdorda ajratiladigan davlat byudjeti mablag‘lari, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar Jamoat fondi mablag‘larini shakllantirish manbalari sifatida belgilab berildi[134].

Ushbu qarorning 6-bandida Jamoat fondining mablag‘lari Vasiylik kengashining qaroriga muvofiq:

---

[133] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2018 yil 14 martdagi 201-son qarori(Elektron resurs). Kirish rejimi:http://www.Lexuz. (murojaat qilingan sana 17.09.2018).

[134] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2018 yil 14 martdagi 201-son qarori(Elektron resurs). Kirish rejimi:http://www.Lexuz. (murojaat qilingan sana 17.09.2018).

- xotin-qizlarni va oilani har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar va oilalarga, nogironligi bo'lgan ayollarga moddiy yordam ko'rsatish;

-xotin-qizlarga oilaviy va xususiy tadbirkorlik, hunarmandchilikni tashkil etishda, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashda ko'maklashish;

-xotin-qizlarga oilaviy va xususiy tadbirkorlikni tashkil etishda imtiyozli kreditlar berish;

-onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, oila institutini mustahkamlash bo'yicha vazifalarning amalga oshirilishini moliyaviy qo'llab-quvvatlash;

-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma'naviy-axloqiy negizlari va an'anaviy oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha maqsadli ishlar olib borilishiga ko'maklashish;

-og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni, shu jumladan, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarni turar-joy bilan ta'minlashda boshlang'ich badallarini qaytarilmaslik sharti bilan to'lab berishga moliyalashtirishga yo'naltirilishi belgilab qo'yilgan[135].

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi o'zbek ayollarining Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlaridagi tadbirkor ayollar bilan hamkorligini rivojlantirish, chet el tajribasini

[135] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 2018 yil 14 martdagi 201-son qarori(Elektron resurs). Kirish rejimi:http://www.Lexuz. (murojaat qilingan sana 17.09.2018).

O‘zbekistonga tadbiq etish va ulardan samarali foydalanish borasida ham qator ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, “Tadbirkor ayol” assotsiatsiyasi va xalqaro tashkilotlar hamkorligida “Ishsiz ayollarni o‘qitish, ularga hunar o‘rgatish”, “Innovatsion metodlar yordamida hayot darajasini ko‘tarish” kabi loyihalardir.

Shu bilan bir qatorda ayollarning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishi vazifalari bilan “Tadbirkor ayol” O‘zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi, “Olima ayol”, “Sharq ayoli” (xalqaro ayollar jamg‘armasi), “Ayol va jamiyat” instituti, O‘zbekiston huquqshunos ayollarining jamoat birlashmasi, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati qoshidagi “XXI asr ayoli” markazi (“Kamolot” hozirda Yoshlar Ittifoqi) kabi tashkilot va xalqaro jamg‘armalar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasi qoshidagi “Ijodkor ayollar” jamoat birlashmasi, “Ilimpaz xayal” olima ayollar uyushmasihamda “Faxriya ayollar” uyushmasi, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasida “Faol ayollar qanoti, “Adolat” sotsial demokratik partiyasida Xotin-qizlar Kengashi, “Milliy Tiklanish” demokratik partiyasida “Ayollar qanoti” hamda tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasida “Ayollarning siyosiy faolligi, jamiyatdagi roli va mavqeini oshirish bo‘limi” faoliyat olib bormoqda.

Respublikada nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini aniq ijtimoiy maqsadlarga yo‘naltirish, ularning fuqarolik jamiyatining faol institutlariga aylantirishga uslubiy va amaliy yordam berish maqsadida 2005-yilda O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari Milliy Assotsiatsiyasi tashkil etildi. Hozirgi kunda ushbu tashkilot o‘z atrofiga 5 mingdan ziyod tashkilotni birlashtir-

gan. Ma'lumotlarga ko'ra, ularning 30-33 foizi bevosita ayollar masalasi bilan shug'ullanadigan uyushmalardir[136].

2003-yil 15-noyabrda tashkil topgan Tadbirkor va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining "Ayollarning siyosiy faolligi, jamiyatdagi roli va mavqeini oshirish bo'limi" vakillari xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning kasbiy va ijodiy izlanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish, kichik biznes va tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi ayollarga amaliy va moliyaviy yordam ko'rsatish borasida muntazam ishlarni amalga oshirib kelmoqda[137].

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida"gi Qonuniga siyosiy partiyalardan ko'rsatiladigan deputatlikka nomzodlarning kamida 30 foizini ayollar tashkil etishi to'g'risida norma kiritilib, kvota joriy etilishi davlat va jamiyat boshqaruvida ayollar faolligini oshishiga xizmat qildi[138].

2009-yil saylov yakuniga ko'ra, 33 nafar ayol O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputati etib saylanib, bu deputatlar umumiy sonining 22 foizini tashkil etdi. Senatda 15 nafar ayol faoliyat yuritib, ular umumiy deputatlarning 15 foizini tashkil etdi. 2014-yilgi saylovlardan so'ng esa O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasida 15 nafar, Senatda 17 nafar, mahalliy kengashlar deputatlarining 23 foizdan ziyodini ayollar tashkil etgan[139].

---

[136] O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi(Elektron resurs). Kirish rejimi:http://www./ ngo.uz. (murojaat qilingan sana 17.04. 2017).

[137] O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi. Vikipediya (Elektron resurs). Kirish rejimi:/ http://.uz.mwikipedia.org (murojaat qilingan sana 17.04.2017).

[138] "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida"gi Qonun. 2004 yil.

[139] Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqchga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. –B.343.

Siyosiy partiyalar safida ayollar ulushi yildan-yilga ortib bordi. Jumladan, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasida 41 foizdan 49,1foizga[140], O‘zbekiston “Adolat” sotsial demokratik partiyasida 38 foizdan 46 foizga[141], O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasida 40 foizdan 46 foizga[142], O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasida 35 foizdan 40 foizga ortganligini ko‘rish mumkin[143].

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi a’zolaridan 25000 nafari tadbirkorlik faoliyatini olib borayotgan bo‘lib, ularning 51 foizi xotin-qizlardir. Kichik biznes, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash maqsadida partiya “Ayollar qanoti” “Ayollar bandligi - oila farovonligi garovi”, “Ayollar ijtimoiy himoyasi - ijtimoiy faollik poydevori”, “Aholi bandligi - ijtimoiy himoyaning eng maqbul yo‘li” kabi loyihalarni olib boradi[144].

O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi “Ayollar qanoti”ning 10 dan ortiq loyihalari bo‘lib, ular orasida “Sog‘lom oila-sog‘lom jamiyat-porlok kelajak”, “Farzandlari sog‘lom yurt qudratli bo‘lur”, “Bir oyda – bir ish o‘rni” loyihalaridir. Bundan tashqari “Yilning eng faol adolatchi ayoli”, “Adolatli qaynona” ko‘rik-tanlovlari ham muntazam o‘tkaziladi.

---

[140] O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2019 yil 9 oktyabrdagi №3-8/2-sonli xati.

[141] O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining joriy arxiv ma’lumotlari. 2019 yil, 3-jild, 12-varaq.

[142] O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2019 yil 10 oktyabrdagi01-618-sonli xati.

[143] O’zLiDePning joriy arxiv ma’lumotlari. 2019 yil, 3-jild, 12-varaq.

[144] O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2019 yil 9 oktyabrdagi №3-8/2-sonli xati.

Partiyaning “Bir oyda bir ish o‘rni” loyihasi doirasida 2017-yilda 38 nafar xotin-qizlarga tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun kredit olishga ko‘maklashildi[145].

O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi “Ayolar qanoti”ning asosiy yirik loyihalari “XXI asr ayoli” loyihasi 2008-yilda tashkil etilgan bo‘lib, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan islohotlar jarayonida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, mamlakat xotin-qizlari orasidan iste’dod egalarini kashf etish, ularning ma’naviy, huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirish, shuningdek oila va jamiyatda munosib o‘rin egallashlariga ko‘maklashish, ularga fidokorona mehnati, erishgan yutuqlarini munosib taqdirlash maqsadini ifodalaydi. 2017-yilgacha loyiha doirasida tanlovning tuman (shahar) bosqichlarida 10000 dan ortiq, Qoraqalpog‘ison Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichlarida 2000 dan ortiq , respublika bosqichlarida jami 140 nafar faol partiya a’zolari ishtirok etib, ularning 32 nafari turli darajadagi rahbarlik lavozimlarida ishlamoqda[146].

Shuningdek, bandlik bo‘yicha “Ustoz-shogird” loyihasiga asosanjami 23 turdagi o‘quv kurslari tashkil etilgan bo‘lib, loyihaning 2017-yildagi tanlovida 1122 nafar xotin-qizlar va yoshlarga tikuvchilik, to‘quvchilik, milliy liboslarga bezak berish, gilamdo‘zlik, milliy qo‘g‘irchoqlar yasash, zardo‘zlik, kulolchilik, pazandachilik bo‘yicha bilimlar berilgan[147].

---

[145] O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining joriy arxiv ma’lumotlari. 2019 yil, 3-jild, 12-varaq.

[146] O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik” demokratik partiyasining joriy arxiv ma’lumotlari. 2019 yil, 13-jild, 16-varaq.

[147] O‘sha joyda.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirishda O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Oila” ilmiy amaliy markazi, “Tadbirkor ayol” O‘zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi, O‘zLiDeP “Ayollar qanoti” hamda hamkor tashkilotlar o‘z faoliyatlarida xotin-qizlarni va oilani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan, og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar va oilalarga, nogironligi bo‘lgan ayollarga moddiy yordam ko‘rsatish, xotin-qizlarga oilaviy va xususiy tadbirkorlik, hunarmandchilikni tashkil etishda, mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallashda yordam berishdan iborat.

O‘zbekiston Liberal demokratik partiyasi ayollarning siyosiy faolligi, jamiyatdagi o‘rni va mavqeini oshirish borasidagi faoliyatini o‘zining Harakat dasturi asosida oltita yo‘nalishda olib boradi. Jumladan:

Birinchi yo‘nalish: ayollar huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning siyosiy-huquqiy saviyasi va faolligini yanada oshirishdir. Bu yo‘nalishda xotin-qizlarning siyosiy huquqiy bilimlarini oshirishga ko‘maklashish, yurtimizda bo‘layotgan siyosiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni, hukumat tomonidan chiqarilayotgan qarorlar va yangi qabul qilinayotgan qonunlar mazmun-mohiyatini xotin-qizlarga etkazish, davlat va jamiyat qurilishida ularning siyosiy faolligi, jamiyatdagi o‘rni va mavqeini yanada ko‘tarishdir;

Ikkinchi yo‘nalish: ayollarda tadbirkorlik ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kichik va xususiy biznesga jalb etish, ayollarning bandlik muammolarini bartaraf etish, tadbirkor va fermer ayollarni qo‘llab-quvvatlash, ayollarga amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli

islohotlar mazmun mohiyati va pirovard maqsadini angalatib borishdan iborat;

Uchinchi yo'nalish: xotin-qizlar o'rtasida fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan yo'nalish bo'yichachekka qishloqlarda keng aholi qatlamlari, xususan, xotin-qizlar hayotida mavjud bo'lgan muammolar monitoringini tashkil etish hamda amaliy uslubiy yordam berishdir;

To'rtinchi yo'nalish: Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, sog'lom oilani shakllantirish maqsadida "Sog'lom oila –mustahkam oila" loyihasi doirasida tizimli ishlarni amalga oshirish;

Beshinchi yo'nalish: "Oilaviy tadbirkorlikdan-mustahkam oilaga" yo'nalishi bo'lib, bu yo'nalishdagi ishlar 2012-yil 16-martda O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik Palatasi tomonidan "Oilaviy tadbirkorlik" to'g'risidagi Qonun qabul qilinishi bilan bog'liq.

Oltinchi yo'nalish: Ommaviy xayriya tadbirlari. O'zLiDeP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo'mitasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari "Ayollarning siyosiy faolligi, jamiyatdagi o'rni va mavqeini oshirish bo'limi" va guruhlari tomonidan yil davomida ommaviy xayriya tadbirlarini o'tkazib kelmoqda[148].

Ta'kidlash lozimki, "Oilaviy tadbirkorlikdan-mustahkam oilaga" loyihasi O'zLiDeP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi O'zLiDeP Fraksiyasi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi,

[148] O'zLiDeP "Ayollar qanoti"ning joriy arxiv ma'lumotlari. Toshkent, 2014 yil, 7-jild, 32-varaq.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O‘zbekiston Respublikasi Davlat tijorat Xalq banki, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, “Qishloq qurilish banki” OATB, “O‘z-sanoatqurilishbank” OATB, “Aloqabank” OATB, “Tadbirkor ayol” O‘zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilib kelinmoqda[149].

Loyihaning maqsadi partiya targ‘ibotini yanada kuchaytirish va tadbirkor ayollar safini ko‘paytirish, “Oilaviy tadbirkorlik” to‘g‘risidagi qonun va qonunosti hujjatlari borasidagi huquqiy bilimlarini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faoligini oshirish, kichik biznes va tadbirkorlik, hunarmandchilik, kasanachilik faoliyatiga keng jalb etish, ularga oilaviy biznesni rivojlantirishda ko‘maklashish, tijorat banklaridan kreditlar olishida yordam berish hamda yangi va qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratishdan iborat.

2012-2013-yillarda “Oilaviy tadbirkorlikdan – mustahkam oilaga” loyihasida respublika bo‘yicha 20404 nafar xotin-qizlar ishtirok etdi, 2180 nafar xotin-qizlarga 3 milliard 888 million 70 ming so‘m miqdorida kreditlar olib berildi, 3396 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi[150].

2014-yil – “Sog‘lom bola yili” Davlat dasturi doirasida jumladan, O‘zLiDeP Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining “Ayollar qanoti” tashabbusi bilan respublikaning barcha hududlarida 3670 ta partiyaviy tadbirlar va 2 ta maxsus loyiha tashkil etilib, ularda 249955 nafar xotin-qizlar ishtirok etdilar. Ayniqsa, chekka hududlardagi mahallalarda olib boril-

[149] O’zLiDeP “Ayollar qanoti”ning joriy arxiv ma’lumotlari. Toshkent, 2014 yil, 7-jild, 32-varaq.
[150] O‘sha joyda.35-varaq.

gan ishlar natijasida 274 nafar xotin-qizlar kasanachilik va boshqa tadbirkorlikka jalb etildi va shu maqsadlarda 4 milliard 98 million 904 ming so'm kredit olib berishda ko'maklashildi. Buning natijasida chekka hududlarda 2100 ta yangi ish o'rinlari yaratildi[151].

2015-yil "Oilaviy tadbirkorlikdan - mustahkam oilaga" loyihasi doirasida 500 ga yaqin tadbirlar tashkil etilib, ularda 17 280 nafar xotin-qizlar ishtirok etdi, natijada banklar tomonidan 558 nafar xotin-qizlarga 11 milliard 491 million 753 ming so'm kreditlar ajratildi, 1300 ta yangi va qo'shimcha ish o'rinlari yaratildi[152].

"Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi Markaziy Osiyodagi eng dastlabki ayollar nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanadi hamda respublikaning barcha hududlarida o'z filiallariga ega. Assotsiatsiyaning asosiy maqsadi – shakllanayotgan mehnat bozorida ayollarning faol ijtimoiylashuvi uchun qulay sharoitlar yaratish, tadbirkorlik tashabbuslari va turli shakldagi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, tadbirkor ayollarning huquqlarini ximoya qilish, ularning tadbirkorlik va jamoat tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, moliyaviy resurslardan foydalanishini ta'minlashga ko'maklashish, o'zaro ishonch va tadbirkorlikdagi sheriklikni hamda Markaziy Osiyo va MDH, Yevropa davlatlarining ayollari, biznes va madaniy aloqalarini integratsiyalashuviga ko'maklashishdan iborat.

"Tadbirkor ayol" uyushmasi (hozirda "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi)ni tash-

[151] O'zLiDeP "Ayollar qanoti"ning joriy arxiv ma'lumotlari. Toshkent, 2014 yil, 8-jild, 18-varaq.
[152] O'sha joyda. 25-varaq.

kilotchisi va dastlabki rahbari D.Maxmudova tashkilot faoliyatida birgina shiorga amal qilgan: "Odamlar yaxshi ahvolda ekanligida sizga murojaat etishadi, deb o'ylamang. Ular og'ir ahvolda qolgandagina oldingizga kelishadi, bunga doimo shay bo'ling"[153].

"Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi 1991-yilda nafaqat O'zbekiston, balki butun MDHdagi birinchi nohukumat tashkiloti bo'ldi. 1991–1992-yillardagi murakkab o'tish davrida, ittifoq parchalanishi munosabati bilan iqtisodiy aloqalar uzilgan, korxonalarda muammolar yuzaga kelgan vaqtda ayollarga, ya'ni boshlovchi tadbirkorlar uchun qisqa muddatli kurslar tashkil etilib, o'z ishini qanday ochish, hisob-kitob ishlarini tashkil etish, soliqlarni to'lashga o'qitildi. Germaniyalik hamkorlar, ya'ni "Kichik tadbirkorlikka ko'maklashish markazi" yordami bilan ayollarni kichik tadbirkorlikka o'rgatish amaliy o'yin ko'rinishida amalga oshirilgan. "Start Up, ya'ni o'z ishingizni qanday boshlashingiz mumkin" dasturi bo'yicha 4 mingdan ortiq tadbirkor ta'lim oldi. Tadbirkor ayollar safi kengayib, 1995-yilda respublikamizda 9 ming nafar tadbirkor ayol bor edi. Bu paytda uyushmaning ko'plab viloyatlarda o'z bo'linmalari ochildi. Tashkilotning o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash modeli xalqaro konferensiyalarda nohukumat tashkilotlar uchun eng maqbul faoliyat yuritish uslubi sifatida tan olindi[154].

Respublikada xususiy mulk, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab- quvvatlash va uni yanada rivojlantirish

[153] Mahkamova F. Oqila, ishbilarmon va shijoatli. Xotin-qizlar har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda //Xalq so'zi, 2017 yil 29 iyun.
[154] Mahkamova F. Oqila, ishbilarmon va shijoatli. Xotin-qizlar har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda //Xalq so'zi, 2017 yil 29 iyun.

masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi bejiz emas. 2012-yil 15-mayda esa “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni kuchga kirdi. Farmonda xususiy mulk va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish, ularning moddiy va kredit resurslaridan foydalanishini kengaytirish, biznes muhitni yaxshilash va boshqa bir qancha chora-tadbirlar dasturi belgilab berildi[155]. Bu kabi islohotlar natijasida, bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati tobora kengayib bormoqda, iqtisodiyotning boshqa soha hamda tarmoqlarida ishlab chiqarish salmog‘ining oshib borayotganida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, mazkur sohaning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 2005-yildagi 10 foizdan 2014-yilda 31,9 foizga, qishloq xo‘jaligida tegishli ravishda 85,7 foizdan 98,3 foizga, savdoda 43,7 foizdan 45,4 foizga, eksport hajmida esa 6 foizdan 26 foizga oshdi[156].

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalar xam keng jalb etildi. Xususan, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Germaniya taraqqiyot banki (KfW), Xitoy Xalq Respublikasi xukumati va boshqa xorijiy investorlar tomonidan kreditlar ajratildi[157].

---

[155] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4725-sonli Farmoni//Xalq so‘zi, 2012 yil 16 may.

[156] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi tomonidan 2018 yilda tayyorlangan maxsus ma’lumot.

[157] “Tadbirkor ayol” O‘zbekiston ishbilarmon ayollar asotsiatsiyasi xaqida ma’lumotlar (Elektron resurs) Kirish rejimi: https://cbu.uz/uze/press-tsentr/novosti/(murojaat qilingan

Yevropada "Rising Tide Europe" tarmog'i 25 dan ortiq mamlakatlardagi 90 ta investor ayollarni birlashtirgan bo'lib, u tomonidan har yili 6-10 start-apga investitsiya ajratiladi. Ayollar tadbirkorligiga ko'mak beruvchi "Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti"ning AWEP (Arab Women Entrepreneurship Project) ayollarga o'z biznesini ochish uchun ko'maklashishga qaratilgan dasturi 2011-yildan boshlab Misr, Iordaniya, Iroq, Kuvayt, Livan va Morokashga faoliyatini qaratgan[158]. Yaqin Sharqda ham ayollar va erkaklar o'rtasida biznes sohasida oliy ma'lumot olish bo'yicha notenglik pasayib borayotganligiga qaramay, tengsizlik hamon saqlanib qolmoqda, ya'ni faqatgina 12 foiz ayollar o'zining shaxsiy biznesiga ega bo'lib, ular maishiy sohada sog'likni tiklash va go'zallik salonlarida faoliyat olib boradilar[159].

2009-2017-yillarda O'zbekiston Xotin qizlar qo'mitasi, "Tadbirkor ayol" assotsiatsiyasi va Germaniyaning xalqaro hamkorlik jamg'arma kassalar fondi o'rtasidagi Hamkorlik Kelishuvi asosida "O'zbekistonda moliyaviy sektorning inklyuziv rivojlanishiga doir Jamg'arma kassalari hamkorlik loyihasi" amalga oshirildi. Loyihaning maqsadi ayollar tadbirkorligi rivojiga ko'maklashishdan iborat bo'lib, respublikamizdagi yosh xotin-qizlarga o'z daromadlari orqali o'zlarining jamiyat, davra, oilalarida ongli hayot kechirishlariga imkon berishga qaratildi. Loyiha faoliyati respublikamiz bo'ylab yoyildi. Asosan maqsad mamlakat bo'yicha va kamdan kam chet el loyihalari boradigan olis hududlar-

sana 3.10.2019).

[158] Одра Шаллал. Мир стереотипов. Что мешает женскому предпринимательству?Elektron resurs).Режим входа: https://www.forbes.ru >forbes.women (дата обращения3.10.2019).

[159] O'sha joyda.

da ham xotin-qizlarning vakolatlariga yo'naltirildi. Loyiha "Daromad keltiradigan bandlik borasida ayollar va yosh qizlarni qo'llab quvvatlash" loyihasini ham amalga oshirdi. Jami loyiha asosida qayta tiklanuvchi kredit fondidan 130 ming nafar ayollar 2 milliard so'mgayaqinkredit olib, 515 ta ishchi o'rini yaratildi. 3098 maslahat olgan ayollardan 2155 nafari loyihadan tashqari boshqa banklardan kredit olib, o'z tadbirkorlik faoliyatini olib bormoqda[160].

2010-yilda xalqaro moliya institutlari tomonidan kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga 146 million AQSh dollari hajmida kreditlar ajratilgan bo'lsa, 2015-yilga borib esa, 155 million dollarni tashkil etishi mo'ljallandi. Jamg'arma O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi bilan hamkorlikda hududlarda xotin-qizlar maslahat markazlarini tashkil etdi. Ular xotin-qizlarning moliyaviy savodxonligini oshirish, oilaviy biznes sohasida bilim va kasb egallashi, kredit olishiga, olis qishloq tumanlarida ayollar o'rtasida tadbirkorlikni kengaytirish, kasanachilikni tashkil qilishiga ko'maklashdi. Jamg'arma tomonidan qariyb 6,5 ming nafar xotin-qizga maslahat yordami ko'rsatildi. 10 ming nafardan ortiq xotin-qizlar biznes-ko'nikmalarini rivojlantirishga doir ishbilarmonlik tadbirlarida ishtirok etdi. Tadbirkor xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylarda yashayotgan ayollarni mikrokreditlash orqali boshlang'ich kapital bilan ta'minlashga muhim ahamiyat berildi. Natijada, ajratilgan kreditlar umumiy hajmi 14 milliard so'mdan oshdi"[161].

---

[160] Muvaffaqiyat tajribalari –O'zbekistonda xotin-qizlar uchun moliyaviy sektorni rivojlantirish. O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va Jamg'arma kassalari fondi o'rtasidagi hamkorlik loyihasi.–Toshkent: O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, 2017.– B.2.

[161] "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar asotsiatsiyasi haqida ma'lumot (Elektron resurs). Kirish rejimi:http:cbu.uz/uze/press-tsentr/novosti/(murojaat qilingan sana 18.12.2017).

O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik sohasiga 2001-yilda 171,5 milliard so‘m, 2010-yilda 2690,2 milliard so‘m ajratilgan bo‘lsa, 2014 yilga kelib soxaga 9158,0 milliard so‘m ajratildi, natijada 2001–2014-yillar mobaynida sohaga yo‘naltirilgan kreditlar miqdori 53 baravardan ko‘proq o‘sgan[162].

O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, Respublika Markaziy banki boshchiligida hamda “Tadbirkor ayol” O‘zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi, Savdo-sanoat palatasi va “Hunarmand” uyushmasi ishtirokida 2013-yildan boshlab tadbirkor ayollarning loyihalarini hayotga keng tadbiq etish, ular uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, ayniqsa qishloq ayollari ishbilarmonligini rivojlantirish, il-g‘or ish uslublarini ommalashtirish maqsadiga qaratilgan “Tadbirkor ayolning eng yaxshi loyihasi” tanlovi o‘tkazib kelinmoqda. Jumladan, 2014-yil “Tadbirkor ayolning eng yaxshi loyihasi” ko‘rik tanlovida g‘olib bo‘lgan “Sport jihoz lyuks” xususiy korxonasi rahbari Qimmatxon Sultonova. “Ipoteka-bank” tomonidan 100 million so‘mlik imtiyozli kredit olgan. Kreditni korxonani yanada ravnaq topishi uchun sarflab, qo‘shimcha 20 ta ish o‘rni tashkil etib, jamoani 50 nafarga etkazgan. Korxonada bolalar va o‘smirlar uchun sport liboslari hamda anjomlari ishlab chiqariladi Tadbirkor ayol o‘z korxonasi imkoniyatlaridan foydalanib, ichki bozorni import o‘rnini bosuvchi sanoat mahsulotlari bilan to‘ldirmoqda[163].

---

[162] Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni islox etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-ommabop risola.– Toshkent: Ma’naviyat, 2016 –B.42.

[163] Tadbirkorlik rivoji-farovonlik asosi//Xalq so‘zi, 2016 yil 3 mart.

2015-yili uning quyi bosqichlarida ishtirok etgan bir yarim mingdan oshiq tadbirkor ayollarning loyihalari "Ishlab chiqarish sohasidagi eng yaxshi loyiha", "Servis sohasidagi eng yaxshi loyiha", "Qishloq joylarga mo'ljallangan eng yaxshi loyiha" kabi yo'nalishlarda saralanib, qatnashchilarning 42 nafari yakuniy bosqichda ishtirok etdi. Ushbu tanlovda biznes loyixalari birinchi va ikkinchi o'rinlarga loyiq topilgan 28 g'olibga tijorat banklaridan 4,7 milliard so'mdan ziyod kredit ajratildi[164].

Boshqa ayollarga o'zining tajribasi bilan o'rnak bo'la oladigan yana bir ayol, Toshkent viloyatidagi "Kombi Vostok" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari-Komila Nosirovadir. U tadbirkorlik sohasidagi imtiyozlardan foydalanib, 2016-yil Ipoteka bank Sergeli tumanidan olgan 1 milliard so'mlik kredit hisobiga korxonani kengaytirdi. O'zining 40 kishidan iborat jamoasi bilan Respublikamizning eksport salohiyatini ortishiga hissasini qo'shmoqda, ishlab chiqarayotgan parfyumeriya mahsulotlarining 60 foizini MDH mamlakatlariga eksport qiladi[165].

"Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi Buxoro viloyati bo'limi raisi. D.Ahmedova, 1930 nafar a'zosi bor jamoaga rahbarlik qiladi. U 2012-yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondi tomonidan tasdiqlangan loyihasiga asosan biznes-inkubator tashkil etgan. Unga ko'ra, tadbirkorlikni yo'lga qo'ymoqchi bo'lgan 220 nafar xotin-qizga zarur bilim berildi, 59 nafariga tikuvchilik, pazandalik, sar-

[164] 2015 yil – Tadbirkor ayollarning eng yaxshi loyihalari aniqlandi //"Tadbirkor ayol" jurnali, 2016, 1-son. – B.12.
[165] Tadbirkorlik rivoji-farovonlik asosi//Xalq so'zi, 2016 yil 3 mart.

taroshlik, zardo'zlik, kulollik sir-sinoatlari o'rgatildi. 2016-yilda mazkur inkubator viloyatni qamrab oldi. Jondor, Romitan, G'ijduvon, Shofirkon, Qorako'l, Olot, Peshku tumanlarida trenerlar tayyorlanib, o'quv kurslari tashkil qilingan.

Tadbirkor ayollar tashabbusini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun banklar tomonidan imtiyozli kredit mablag'lari ajratilmoqda. Xususan, 2015-yilning 11 oyida tijorat banklari tomonidan ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga 1,2 trillion so'mdan ziyod kredit resurslari ajratildi[166]. 2017-yil "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar asotsiatsiyasi, Savdo sanoat palatasi hamkorligida o'tkazilgan "Tadbirkor qizning eng yaxshi loyihasi" tanlovining respublika bosqichida 82 nafar ishbilarmon qiz o'zining biznes loyihasi bilan qatnashdi. 28 nafar g'olib qizlarga "Agrobank" tomonidan kredit olish huquqini beruvchi sertifikatlar topshirildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonlikul kasb-hunar kolleji bitiruvchisi Orazbiyka Mirzabaevaga non va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishga doir innovatsion loyihasi uchun 30 million so'm miqdorida kredit olish uchun sertifikat topshirildi[167].

Bozor munosabatlari har qanday kishidan bo'lgani kabi ayollardan ham bozor ko'nikmalariga ega bo'lish, biznesni muvaffaqiyatli yuritish ko'nikmalarini egallashni talab qiladi. Shuning uchun ham assotsiatsiya ta'lim sohasiga katta e'tibor berib keladi. Jumladan biznes-startapni tashkil etish bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini olib borish, biznes-reja, hisob-kitob, marketing, menejment, fermer xo'jaligini yuritish, mutaxassisliklari bo'yicha o'z

[166] "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasining kreditlar haqidagi joriy arxiv ma'lumotlari. 2016 yil, 12 -jild, 18-varaq.
[167] Furqatov F. Tadbirkor qizlarning biznes loyihalari //Xalq so'zi, 2017, №230.–B. 4.

pedagog–trenerlarini tayyorlash, qandolatchilik, gilamdo'zlik, kulolchilik, zardo'zlik, mehmonxona ishi kabi 28 ta yo'nalish bo'yicha kasbiy ta'lim berish, huquqiy soha va etakchilik san'ati bo'yicha ta'lim berish faoliyati bilan shug'ullanadi. Maslahatchilik yo'nalishida tashkilot biznes-eksport menejmenti, turli ko'rgazmalar o'tkazish, hamkorlik, jihoz,tovar sotish uchun xorijiy sheriklarni izlash va o'zaro foydali mustahkam aloqalarni o'rnatishga intiladi. Bundan tashqari psixologiya, etika, qulay ish va mehnat sharoitlari yaratish hamda tashkilotchilikni rivojlantirish bo'yicha turli maslahat amallari yo'lga qo'yilgan. Hozirga qadar assotsiatsiya tomonidan 50 mingdan ortiq ayollarga kasbiy ko'nikma bo'yicha ta'lim berilib, ularning 80 foizi ish bilan ta'minlandi. 43 ming nafar ayolga esa biznes olib borish ko'nikmalari o'rgatilib, ularnig 75 foizi o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ydi. Yana 6 ming nafar ayol etakchilik san'atiga o'rgatildi[168].

Tadbirkor ayollar faoliyatining ko'lami kengayib borib, ular boshqa davlatlardagi tadbirkor ayollar faoliyati bilan hamkorlik qilish orqali xalkaro tajribani o'rganish va o'z faoliyatlarini zamon talablariga mos ravishda yangi bosqichga ko'tarishga intilmoqdalar.

Assotsiatsiyaning Qoraqalpog'istonda va viloyatlardagi bo'limlari qoshida ayollarni biznes asoslariga o'qitadigan va yuridik maslahatlar beradigan markazlar ochilgan. Bu markazlarning hududiy bo'limlarda tadbirkorlik alifbosi, biznesning huquqiy asoslari yuzasidan seminarlar, treninglar o'tkazish izchil yo'lga qo'yilgan

[168] "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar asotsiatsiyasi haqida ma'lumot (Elektron resurs). Kirish rejimi: http: //www.gazeta.norma.uz.(murojaat qilingan sana 12.12.2017).

"Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi **t**ashkil etilganidan buyon 100 ming nafardan ziyod xotin-qizlar orasida ta'lim dasturlarini o'tkazdi. 40 ming nafar ayol kasbiy ko'nikmalarga o'qitildi, ularning 80 foizi ishga joylashtirildi. Biznesga o'qitilgan 30 ming nafar ayolning 75 foizi o'z biznesiga ega. 4 ming nafar ayol etakchilik ko'nikmalariga o'qitildi[169].

Andijon viloyatida faoliyat olib borayotgan "Tadbirkor ayol" uyushmasi Assotsiatsiyaning viloyatdagi bo'limi hisoblanib, statistik ma'lumotlarga ko'ra uyushma a'zolari soni 2012-yil 500 nafar, 2013-yil 1000 nafar, 2014-yil 1500 nafarni tashkil etgan. 2012-yil 800 ta, 2013-yil 1000 ta, 2014-yil 1500 ta yangi ishchi o'rinlari yaratilgan. 2016-yilga kelib, uyushma tomonidan tadbirkor ayollarning huquqiy bilimlarini va moliyaviy savodxonliklarini oshirish maqsadida 151 ta seminar-trening hamda respublikada 5 ta tadbirkorlar ko'rgazmasi o'tkazildi[170].

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan jami tadbirkorlarning 35 foizi, fermerlarning esa 10 foizini ayollar tashkil etadi. Assotsiatsiya o'z atrofiga 12 mingdan ziyod tadbirkorlik subyektini birlashtirgan. O'zbekistonda 200 mingga yaqin tadbirkor ayol rasman ro'yxatdan o'tgan holda faoliyat olib bormoqda, 300 mingga yaqin ayol esa mustaqil ish yuritmoqda[171].

2016-yilda assotsiatsiya a'zolaridan Oliy Majlisning Senatida2 nafar senator, Qonunchilik palatasida 4 nafar

[169] "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar asotsiatsiyasi haqida ma'lumot (Elektron resurs). Kirish rejimi: http: //www.gazeta.norma.uz.(murojaat qilingan sana 12.12.2017).

[170] "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasining Andijon viloyati bo'limi joriy arxivi ma'lumotlari. 2016 yil, 3-jild, 4-varaq.

[171] Mahmudova G. Xususiy mulk va kichik biznesning ishonchli himoyasi//Xalq so'zi, 2016 yil 12 oktyabr.

deputat, xalq deputatlarining joylardagi kengashlarida 20 nafar deputat ish olib borgan.Assotsiatsiya 2000-yili BMTning "Eng yaxshi sheriklik loyihasi" nominatsiyasi bo'yicha UNIFEM mukofoti, 2005-yili BMTning "Kasbga o'qitish va mikrokreditlash orqali ayollarning iqtisodiy maqomini oshirishga ko'maklashish" nominatsiyasi bo'yicha UN-HABITAT mukofoti, 2006-yili BMTning "Ish o'rinlarini tashkil etish va kasbiy ta'lim berish" nominatsiyasi bo'yicha GFUND mukofoti sovrindori bo'lgan[172].

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda aytish mumkinki, xotin-qizlar tadbirkorlik harakatiga asos solindi. Sovetlar davrida faqatgina arzon ishchi kuchi sifatida qaralgan O'zbekiston ayollari, bugungi kunda zamon bilan hamnafas qadam tashlovchi, jamiyatdagi islohotlar, muhim qarorlar qabul qilish jarayonlarining faol ishtirokchisi sifatida ijtimoiy kuchga aylandi. Bir paytlar asosan ko'proq iste'molchi sifatida qaralgan o'zbek xotin-qizlari bugungi kunda moddiy ne'matlar yaratuvchi, zamonaviy texnologiyalar asosida jahon bozorida raqabatlasha oladigan eksportbop maxsulotlar ishlab chiqarayotgan, xalqaro bozor munosabatlari darajasida fikr yuritadigan, uzoqni ko'zlab qabul qilinayotgan istiqbolli dastur va loyihlarning faol ijrochisi bo'lgan ilg'or tadbirkorga aylanmoqda. Bu jarayonda nodavlat-notijorat tashkilotlarining faollashuvi, xotin-qizlarning kichik biznes va tadbirkorlikdagi faoliyatlarini yanada rivojlantirishda xalqaro tajribani O'zbekistonda qo'llash bo'yicha olib borilayotgan ishlar ko'lamida nafaqat Markaziy Osiyo, balki rivojlangan dunyo davlatlari bilan munosabatlari geografiyasining kengayib borayotganligi diqqatga sazovordir.

[172] Mahmudova G. Xususiy mulk va kichik biznesning ishonchli himoyasi//Xalq so'zi, 2016 yil 12 oktyabr.

2.2.Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikrokreditlashtirish tizimining ahamiyati

Istiqlolning dastlabki yillaridanoq, respublika davlat siyosatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish eng muhim strategik vazifa sifatida belgilanib, bosqichma-bosqich qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Dunyo tajribasiga nazar tashlansa, iqtisodiyotda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotganiga guvoh bo‘lish mumkin.Jahon bozorida bozor konyukturasi o‘rta hisobda har to‘qqiz oyda o‘zgarib turadi[173]. Kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlari esa o‘z faoliyatini bozor talabiga tez moslashtira oladi. Bu hol mamlakat iqtisodiyotidagi barqarorlikni saqlaydi.

O‘tgan davr mobaynida davlatimiz tomonidan tadbirkorlarni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash borasidagi tizimli islohotlar natijasida mamlakat banklari to-

[173] Mikrokreditlar haqidagi ma’lumot (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://ru.m.wikipedia.org.(murojaat qilingan sana 27.11.2018).

monidan ularga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifat jihatidan yaxshilanib bordi, ajratilayotgan kredit turlari va stavkalarida ham ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Respublika banklari tomonidan ajratilayotgan imtiyozli kreditlar sifatidagi mikrokreditlar soha rivojida muhim ahamiyatga ega.

Mikrokredit so‘zi (inglizcha microcredit) etimologik jihatdan kichik kredit degan ma’noni bildiradi. Mikrokreditlar aholining kambag‘al qatlamiga, kichik tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchilarning moliyaviy ahvolini yaxshilashlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ko‘pgina davlatlarda aholining nochor toifalariga beriladi. Mikrokreditlash tizimining kelib chiqish tarixiga nazar tashlansa, uning mohiyatini yaxshiroq tushunish mumkin[174].

Mikrokreditlash konsepsiyasi iqtisodchi Muhammad Yunus tomonidan ishlab chiqilgan. U bangladeshlik bo‘lib, uning Vatani dunyodagi eng nochor davlatlardan biri edi. Muhammad Yunus AQShda bilim olgan va 1974-yili Vataniga qaytgach, ocharchilikka karshi harakatga qo‘shiladi. U o‘z faoliyatida amin bo‘ladiki, hatto eng kam miqdordagi kredit ham och qolmay yashab qolish uchun kambag‘allarga hal qiluvchi ahamiyatga ega ekan. U o‘zining atiga 27 dollar bo‘lgan birinchi kreditini bambukdan mebel tayyorlovchi ayolga beradi. Muhammad Yunus banklar o‘z kreditlarini o‘rtahol tadbirkorlarga berishdan manfaatdor emasliklarini tushunadi. Chunki bunday tadbirkorlarda bank mablag‘ini qaytara olmaslik xavfi ko‘proq. U 1976-yili “Gramin” bankiga (inglizcha Grameen Bank) asos soladi va uning banki kambag‘al bangladeshliklarga mikrokreditlar berish bilan shug‘ulla-

[174] Mikrokreditlar haqidagi ma’lumot (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://ru.m.wikipedia.org.(murojaat qilingan sana 27.11.2018).

nadi. 1976-yilning o'zida uning banki tomonidan kambag'allarga ja'mi 5 milliard dollar bo'lgan 4 milliondan ortiq kreditlar beriladi. Kreditlarning bankka qaytishini ta'minlash maqsadida norasmiy kredit oluvchilar guruhi tuzilib, uning a'zolari bir birini qo'llab-quvatlaydilar. Mikrokredit berishga asoslangan bunday tizimni rivojlantirish maqsadida Gramin banki uy joylar qurish, qishloq xo'jalik ishlari bo'yicha tadbirkorlik uchun mikrokreditlar bera boshlaydi[175].

Mikrokreditlash tizimining ko'pchilik loyihalari asosan ayollar uchun mo'ljallangan, chunki kambag'al oilalarning ko'pchiligini noto'liq oilalar tashkil etadi. Oilani boqish yolg'iz ona zimmasida bo'lgan bunday oilalar nochorlikdan ko'proq azoblanadi. Shuning uchun ham Gramin banki mikrokreditlarining 96 foizi ayollarga beriladi. Mikrokreditlash tizimi bugungi kunda jahonning ko'pgina davlatlarida, jumladan AQShda ham qo'llaniladi[176].

Mustaqillik yillarida tadbirkorlarga kreditlar berish orqali ularni moliyaviy jihatdan qo'llab quvvatlash maqsadida 1993-yili 21-iyulda O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga ko'maklashuvchi jamg'arma tashkil etildi va u 1995-yil 26-iyulda Biznes fond nomini oldi. Biznes fond faoliyatida tadbirkorlarni biznesga o'qitish bo'yicha xalqaro loyihalar ham amalga oshirildi. Jumladan, shulardan biri uning ishtirokidagi chet el investitsiyalarini jalb etish bo'yicha umumiy miqdori 3 million 600 ming ekyu bo'lgan Bozor ko'nikmalarini rivojlantirish markazining (BKRM)"TASIS" dasturi asosida-

[175] O'sha manba.
[176] Mikrokreditlar haqidagi ma'lumot (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://ru.m.wikipedia.org.(murojaat qilingan sana 27.11.2018).

gi loyihadir. 1996-yilning 1-yarmida respublikamizning hammma viloyatlaridan 72 ta tadbirkorlarni Angliya va Italiyaga tajriba almashishga jo'natildi. 300 dan ortik tadbirkorlar Toshkent, Nukus, Andijon, Buxoro, Namangan, Urganch shaxarlarida ikki xaftalik o'quv kurslarida o'qidilar. Biroq, Biznes fond tomonidan ajratilgan kreditlar tadbirkorlarga to'g'ri yo'naltirilmadi, tadbirkorlarda o'z faoliyalarini olib borish uchun ularda etarli darajada bilim va ko'nikmalar hosil qilinmadi. Birgina misol, respublika bo'yicha moliyaviy nochorligi sababli jami 26091,1 ming so'm miqdorida kredit olgan 36 ta korxona, xom-ashyo yo'qligi sababli jami 80246,2 ming so'm kredit olgan 52 ta korxona 1998-yil 1-aprel holatiga faoliyatini to'xtatdi[177]. Faoliyat ko'rsatmayotganligi sababli jami 21935,6 ming so'm kredit olgan 26 ta korxona kreditni kaytarib berdi[178]. Faoliyat ko'rsatmayotganligi sababli jami 103678 ming so'm kredit olgan 59 ta korxonaning ishi huquqni muhofaza qilish organlariga topshirildi[179]. Natijada, Biznes fond faoliyati 1997-yil iyulda to'xtatildi.[180]

Jahon tajribasidan kelib chiqib, respublikamizda 2000 yilda kichik va o'rta biznes subyektlariga mikrokredit ajratish mexanizmi ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etildi[181]. Respublika statistika qo'mitasining kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlanishiga oid statistik ma'lumotlari ham aynan 2000-yildan boshlanadi. Bugungi kunda respublikamizda mikrokreditlash tizimidan – xususiy

[177] O'zMA, M-67-jamg'arma, 1-ro'yxat, 41-yig'ma jild, 94 -varaq.
[178] O'zMA, M-67-jamg'arma, 1-ro'yxat, 41- yig'ma jild, 96 -varaq.
[179] O'zMA, M-67-jamg'arma, 1-ro'yxat, 41- yig'ma jild, 98 -varaq.
[180] O'zMA, M-67-jamg'arma. 1-ro'yxat, 118-yig'ma jild, Biznes Fond viloyat boshkarmalari bo'limlarining tugatilishi haqidagi hujjatlar (buyruq, qaror, dalolatnoma) 14-varaq.
[181] Karimov I. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz.Toshkent: O'zbekiston, 9-jild.–B. 15.

tadbirkorlikni rivojlantirishdagi asosiy moliyaviy ko'mak sifatida keng foydalanilib kelinmoqda. Jumladan, 2006-yil 6-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mikrokreditbank aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to'g'risida"gi PF-3750-sonli farmoniga asosan "Mikrokreditbank" aksiyadorlik tijorat banki tashkil etildi. Davlatimiz rahbarining tadbirkorlik subyektlariga mikrokreditlar ajratish tizimini rivojlantirishga qaratilgan qator qaror va farmonlari[182]ga asosan kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, hamda fermerlikni rivojlantirish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznes va kasanachilikni faollashtirish yo'li bilan yangi ish o'rinlarini yaratish, ayniqsa, qishloq joylarda aholi keng qatlamlariga mikromoliyaviy mablag'lar berishni yanada rivojlantirish borasida ko'pgina tizimli ishlar amalga oshirildi. Bu kabi islohotlar, iqtisodiy sohada xotin-qizlar ulushini yanada ko'paytirishga, hamda ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish uchun katta shart-sharoitlar yaratishga xizmat qildi.

Respublikada xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi mavqeini oshirish va ularning ahvolini yaxshilash, ayollarning ish bilan bandligi masalasini hal qilish, ayniqsa, qishloq joylarida xotin-qizlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish, O'zbekistonda jamiyatni modernizatsiyalash va demokratik yangilash, jamiyat va davlat qurilishi jarayonlarida xotin-qizlar rolini kuchaytirishga yo'naltirilgan tadbirlarni

[182] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mikrokreditbank" aktsiyadorlik-tijorat bankining tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2008 yil 10 noyabrdagi PF-4051 sonli, "Ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2010 yil 28 iyuldagi PF-4232-sonli Farmonlari. (Elektron resurs). Kirish rejimi: http: //www.gazeta.norma.uz.(murojaat qilingan sana 5.07.2017).

amalga oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Barcha sohalardagi kabi mehnat bozorida ham, aynan, xotin-qizlar masalalariga alohida urg'u berilib, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ayollar uchun yangi ish o'rinlari yaratish, ularning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, uy mehnati va kasanachilikni rivojlantirish masalasiga oilalar farovonligini ta'minlash hamda daromad manbalarini shakllantirishning asosiy omili sifatida qaraladi. Bu borada davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan tizimli choralar ko'rilib, muayyan tadbirlar amalga oshirilib, jumladan, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan ham ushbu masalada tegishli davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda bir qator ishlar bajarildi. Xususan, qo'mita O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 28-iyuldagi "Ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni talablaridan kelib chiqib, ta'lim muassasalarini bitirgan yoshlarni ish bilan ta'minlash, ayollar tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, chekka hududlarda istiqomat qiluvchi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagidagi yoshlar va xotin-qizlar uchun bank xizmatlaridan yanada kengroq foydalanishlariga ko'maklashdi.

Tasdiqlangan rejaga asosan 2010-yil 24-martidan 24-iyunigacha Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on va Piskent tumanlarida, Sirdaryo viloyatining Boyovut va Sirdaryo tumanlarida, Jizzax viloyatining Zomin va G'allaorol tumanlarida, Samarqand viloyatining Oqdaryo

va Oqtosh tumanlarida, Navoiy viloyatining Qiziltepa va Navoiy tumanlarida, Buxoro viloyatining G‘ijduvon va Jondor tumanlarida, Surxondaryo viloyatining Sherobod va Qumqo‘rg‘on tumanlarida, Qashqadaryo viloyatining Qamashi va Koson tumanlarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasining To‘rtkul va Chimboy tumanlarida, Xorazm viloyatining Bog‘ot va Urganch tumanlarida, Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahri va Rishton tumanlarida, Andijon viloyatining Oltinko‘l va Asaka tumanlarida hamda Namangan viloyatining Mingbuloq va Kosonsoy tumanlarida “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish joylari tashkil etish, axolining keng qatlami uchun, ayniqsa kasb-xunar kollejlari bitiruvchilari va xotin-qizlarning bank xizmatlaridan foydalanishlarini yanada kengaytirish” mavzusida seminarlar tashkil etildi[183].

Olib borilgan sa’y-harakatlar natijasida xotin-qizlar o‘rtasida tadbirkor va fermer ayollar safi yanada kengaydi. Jumladan, xotin-qizlar boshqarayotgan o‘quv markazlari, xususiy firmalar, ishlab chiqarish korxonalari soni ortdi, mazkur korxona va tashkilotlarning ulushi iqtisodiy jabhaning rivojlanishiga hissa bo‘lib qo‘shilmoqda.

Fermer xo’jaliklarini rivojlantirish, uy mehnatini takomillashtirish, kasanachilikning yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiyalashuvidan foydalanish, oilaviy biznes va kichik korxonalarni rivojlantirish, shaxsiy tomorqa, dehqon fermer xo‘jaliklarida chorva mollari sonini oshirish va ushbu katta kapital mablag‘larni talab etmaydigan yo‘nalishlar orqali xotin-qizlar va qishloq yoshlari o‘rtasidagi ishsizlik muammosini hal etish yo‘lida amaliy natijalarga erishildi.

[183] O‘zbekiston Xotin qizlar qo‘mitasining joriy arxiv ma’lumotlari. 2011 yil, 12-jild, 18-varaq.

Ana shu ustuvor yo'nalishlarga uyg'un holda mamlakatda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy huquqlarini muhofaza qilish, ularning turli yo'nalishlardagi iqtidorini rag'batlantirish borasida ko'plab me'yoriy hujjatlar qabul qilingan.

2012-yil 16-martda O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik" to'g'risidagi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning 3-moddasida shunday deyiladi: "Oilaviy tadbirkorlik oila a'zolari tomonidan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat turidir. Qonunning 5-moddasi oilaviy tadbirkorlik ishtirokchilari haqida bo'lib, unda oila boshlig'i, uning xotini (eri), bolalari va nabiralari, ota-onasi, mehnatga qobiliyali yoshga to'lgan boshka qarindoshlari oilaviy korxona ishtirokchilari bo'lishi mumkin" deyilgan[184].

Xotin-qizlarning iqtisodiy jabhadagi imkoniyatlarini yanada kengaytirishning birinchi sharti-ayollarni ish bilan bandligini ta'minlashdir. Davlatimiz tomonidan qator yillardan buyon xotin-qizlar uchun ish o'rinlari yaratish bo'yicha turli dasturlar ishlab chiqilmoqda. Ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish va kichik korxonalar va mikrofirmalarni rivojlantirish uchunmunosib shart-sharoitlar yaratish mazkur dasturlarning asosiy maqsadi bo'ldi.

Dasturlarda har bir hududda kichik biznes, kasanachilik, aholiga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish evaziga ishchi o'rinlar yaratishga alohida e'tibor berildi. Shuningdek, yurtimizdagi tadbirkor ayollarni bir g'oya ostida jamlash, ularning barcha harakatlarini mamlakat iqtiso-

[184] O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 16 martdagi "Oilaviy tadbirkorlik" haqidagi qonuni//Xalq so'zi, 2012 yil 17 mart.

dini yanada yuksaltirishga, ayolning bemisl qirralarini ochishga safarbar qilish maqsadida O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan “Tadbirkor ayol portali” yaratildi, “Tadbirkor ayol” O‘zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi tomonidan “Tadbirkor ayol” jurnali chop etila boshlandi.

“2014-yilning eng yaxshi loyihasi” tanlovida g‘oiblikni qo‘lga kiritgan tadbirkor ayollarning ijtimoiy ahamiyatga molik 15 ta biznes loyihasiga tijorat banklari tomonidan 2014-yil yanvar-aprel oylari davomida 410 million so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratildi. “Sog‘lom bola” Davlat dasturiga asosan O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi xotin-qizlar qo‘mitalari, BMTning UN WUMEN tuzilmasi bilan hamkorlikda “Mikrokreditbank” ATB ko‘magida (2013-yil 1-oktyabr kuni №ISC2013-20-sonli shartnoma asosida) “Qoraqalpog‘iston ayollarining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish” loyihasi amalga oshirildi. Loyihaning asosiy maqsadi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumanidagi “Tikozek”, “Bozatay” va “Madeli” qishloqlarida yashayotgan ehtiyojmand oila ayollaridan o‘zaro yordam guruhlari (O‘YOG) tuzgan holda guruh kafilligi ostida imtiyozli kredit mablag‘larini ajratish va shu orqali qishloq ayollarining ijtimoiy faolligini oshirish, oilalardagi iqtisodiy farovonlikka qo‘shayotgan xissasini ortishiga ko‘maklashishdir.160 dan ortiq qishloq ayollari bilan suhbatlar, uchrashuvlar o‘tkazildi, 22 ta o‘zaro yordam guruhlari tashkil etildi. Loyihada 110 nafar ayol ishtirok etdi. Ta’lim dasturining 1 bosqichi doirasida saralangan ayollar seminar-treninglar bilan qamrab olindi va ularning huquqiy va iqtisodiy savodxonligi darajasini ko‘tarishga erishildi.

Ta'lim dasturining 2-bosqichida mablag' sarflash, daromad olish hamda uni qaytarish bo'yicha bilimlari va moliya madaniyati shakllantirildi va o'qitish jarayoni 2014-yil 1-apreligacha davom etdi. 80 nafar ayol-Mikrokreditbank ekspertlariga "biznes-loyihalarini" o'rganish uchun taqdim etdi[185].

2014-yilda "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasini Xalqaro ayollar assambleyasi, Professional ayollar assotsiatsiyasi, Xalqaro mehnat tashkiloti a'zosi sifatida deyarli barcha taraqqiy etgan dunyodavlatlarida yaxshi tanishadi, shu tufayli tadbirkor ayollarning xalqaro biznes anjumanlarida, ayollar tadbirkorligi, gender masalalari va boshqa mavzulardagi tadbirlarda ishtirok etish uchun taklif qilishadi. Shu yilning aprel oyida Hindistonda o'tkazilgan yirik xalqaro anjumanda assotsiatsiyaning 15 nafar vakilasi O'zbekiston tadbirkor ayollarining salohiyatini namoyish etgan bo'lsa, sentyabr oyida Tailandda ham shunday taqdimotda ishtirok etishdi.Mustaqillik yillarida assotsiatsiyaning vakillari 200 dan ortiq xalqaro konferensiyalarda ishtirok etdilar. Assotsiatsiya haqida BMT Taraqqiyot dasturining "Insonning rivojlanishi to'g'risida"gi ma'ruzasida, Jahon bankining ma'ruzalarida iliq gaplar aytilganligi mazkur ayollar tashkilotining dunyoda yaxshi tanilganligidan dalolat beradi[186].

2014-yil aprel-may oyi davomida 14 ta o'zaro yordam guruhlaridagi 71 nafar ayolga guruh kafilligi ostida 3% imtiyozli kreditlar ajratildi. Jami "Mikrokreditbank" Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali tomonidan 142 million

[185] O'zbekiston Xotin- qizlar qo'mitasining joriy arxiv ma'lumotlari. 2015 yil, 15-jild, 47-varaq.

[186] Tadbirkor ayollar yurt, jamiyat va oila obodligiga hissa qo'shmoqda(Elektron resurs). Kirish rejimi:http: //turkistonpress.uz (murojaat qilingan sana 2017 yil 18 aprel).

so‘m miqdorida kreditlar ajratildi. Bundan tashqari Yevropa Ittifoqining Institutsional rivojlantirish va hamkorlik dasturi doirasidagi “Ehtiyojmand oilalarga daromad manbalarini yaratishda ijtimoiy yordam ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha yangi dasturlar” loyihasi (Loyiha 2013-yil 2-oktyabr kuni № 2013/318-598-son-li) shartnoma asosida amalga oshirilib, uning muddati 22 oyni tashkil qilgan. Loyiha O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi mahalliy va xalqaro hamkorlar bilan Toshkent shahri Uchtepa tumanidagi “Ko‘kcha-Oqtepa” mahallasida, Toshkent viloyati Chirchiq shahridagi “Gulzor” va Qibray tumanidagi “Zebuniso” mahallalarida, Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanidagi “Furqat” va “Boruxov” mahallalarida amalga oshirilgan[187].

O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi yordamida 8 ta hududda “Ayollar ijtimoiy moslashuv markazlari” (Andijon, Namangan, Farg‘ona, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm va Qoraqalpog‘iston Respublikasi) faoliyat olib boradi. Markazlarga hayotida qiyin ahvolga uchragan ayollar murojaat qiladi. Ularga psixolog, yurist va ijtimoiy xizmatchilar o‘z yordamini beradi. 2014-yilning 1-choragi davomida markazlarga 550dan ortiq ayollar murojaat qilgan bo‘lsa, 101 tasiga yuridik maslahat, 120 tasining sog‘lig‘i tiklandi, 265 ta ayolga ijtimoiy yordam berildi. 200 dan ortiq ayol kasbiy ko‘nikmaga ega bo‘lib, ishga joylashdi va o‘z oilasining iqtisodiy holatini yaxshilashga hissa qo‘shdi. Respublikadagi dala shiyponlarida ayollarning mehnat huquqlarini ta’minlash borasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

[187] O‘zbekiston Xotin- qizlar qo‘mitasining joriy arxiv ma’lumotlari. 2015 yil, 15-jild,58-varaq.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida - 12 ta tumandagi 2100 nafar ayollarga;

Andijon viloyatida - 13 ta tumanning 39171 nafar ayollarga;

Navoiy viloyatida - 244 ta dala shiyponidagi ayollarga;

Namangan viloyatida - 4 ta eng namunali shiyponlardagi xotin-qizlarga;

Samarqand viloyatida - 7 ta tumanda 700 ta ayolga;

Farg‘ona viloyatida - 200000 nafardan ortiq ayolga;

Toshkent viloyatida - 8 ta tumandagi 1166 nafar ayolga;

Xorazm viloyatida - 10 ta tumandagi 443 ta dala shiyponidagi ayollarga;

Qashqadaryo viloyatida -329 ta dala shiyponlarida va 6 ta mehnat-rohat lagerlaridagi 4621 ta ayolga o‘zaro shartnoma asosida mehnat daftarchalari ochib berildi[188].

Agar 2014-yilgi “Tadbirkor ayolning eng yaxshi loyihasi” tanlovi g‘oliblariga 2 milliard so‘mdan ortiq kreditlar ajratilgan bo‘lsa, 2015-yilda bu ko‘rsatkich 4 milliard 123 million so‘mni tashkil etdi. Tanlov g‘olibi bo‘lib, 1,2-o‘rinlarni egallagan tadbirkor ayollarning 28 ta loyihasi 2016-yil davomida to‘liq va sifatli amalga oshirilishi doimiy tarzda monitoring qilib borildi[189]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 2-dekabrdagi 10-22-6-sonli majlis bayoniga muvofiq O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Tadbirkor ayol” O‘zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi, Savdo-sanoat palatasi va tijorat banklari hamkorligida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent

[188] O‘zbekiston Xotin- qizlar qo‘mitasining joriy arxiv ma’lumotlari. 2015 yil, 15-jild, 15, 47-varaq.

[189] O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasining veb sayti 2015 yilgi ma’lumot (Elektron resurs). Kirish rejimi: http: // www.wcu.uz/ (murojaat qilingan sana 5.11.2017).

shahrida faoliyat yuritayotgan ayol tadbirkorlar o'rtasida "Tadbirkor ayolning eng yaxshi loyihasi" ko'rik tanlovi o'tkazildi. Ushbu ko'rik tanlov ishtirokchilaridan 13 nafar tadbirkor ayol imtiyozli kredit olish sertifikatiga ega bo'ldilar. Shuningdek, Samarqand shahrida "Tadbirkor ayol» O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi viloyat bo'limi tomonidan tashkil etilgan tadbirda assotsiatsiya vakili Zuhra Rahmonova uyushma faoliyati to'g'risida fikr yuritib, 2016-yilda tadbirkorlarning 40 foizini xotin-qizlar tashkil qilishini, uyushma tomonidan 100 ming nafardan ortiq xotin-qizlar orasida ta'lim dasturlari o'tkazilganligini, 40 ming nafar ayol kasbiy ko'nikmalarga, 30 ming nafar ayol biznes ko'nikmalariga o'qitilganligini ta'kidladi[190].

2017-yil "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" da jamiyat rivojiga to'siq bo'lib kelayotgan muammolar demokratik oshkoralik asosida ochib tashlandi. Jumladan, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik sohasining rivojiga to'siq bo'lib kelayotgan muammolar tadbirkorlar bilan bo'lgan muloqotlar jarayonida o'rganildi. Erishilgan yutuqlar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar har tomonlama tahlil qilindi. Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, "Eng muhimi, mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida noreal raqamlar ortidan quvish, amalga oshmaydigan xomxayollarni haqiqat sifatida taqdim etishdek noma'qul ish uslubitanqidiy qayta ko'rib chiqildi. Amaliy natijadorlik, inson manfaati va yana bir bor inson manfaati islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi"[191]. Bu ochiqlik respublika bank tizimida ham xizmat ko'rsatish madaniyatini talab

[190] Mo'minova G. «Tadbirkor ayol» – mustaqillik tengdoshi(Elektron resurs). Kirish rejimi: http: //zarnews.uz/xfsearch/(murojaat qilingan sana 5.11.2017)

[191] Sh.M.Mirziyoevning Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan uchrashuvdashi nutqi //Xalq so'zi, 2018 yil 8 mart.

darajasiga ko'tarish, fuqarolarda, bank tizimiga bo'lgan ishonchni ta'minlashda o'z ifodasini topdi. Aholini ish bilan bandligini ta'minlash, kam ta'minlangan va hojatmand qatlamlari daromadlarini oshirish muhim masalaga aylandi.

Yurtimizda ayollar va yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb etish, oilaviy tadbirkorlik va kasanachilikni rivojlantirish maqsadida 2017-yilda tadbirkor ayollar uchun 1 trillion so'm, ta'lim muassasalarini bitirib chiqadigan 10 mingga yaqin yoshlarimiz uchun 60 milliard so'm kredit mablag'lari ajratish ko'zda tutildi[192]. 2017-yil "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari" yili davomida "Xalq qabulxonalari"da tadbirkorlar bilan bo'lgan muloqotlar, ayniqsa ayollar uy mehnatini, kasanachilikni rivojlanishiga to'siq bo'lib kelayotgan muammolarning mavjudligi respublika hukumati tomonidan yangicha yondashuvga asoslangan kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishiliga sabab bo'ldi. Jumladan, 2018-yil "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"dagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga asosan "Har bir oila – tadbirkor" davlat dasturi qabul qilindi.Ushbu davlat dasturining qabul qilinishi yurtimizda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tardi. Dastur doirasida kreditlarni ajratish tartibi to'g'risidagi Nizomda kreditlarni berish tartibi va muddatlari belgilab berildi[193].

---

[192] Sh.M.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2017.–B.347.

[193] O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining "Har bir oila–tadbirkor" dasturi doirasida kreditlar ajratish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi 2018 yil 8 iyundagi 20/1-sonli qarori (Elektron resurs). Kirish rejimi: http: //lex.uz.(murojaat qilingan sana 7.10.2018).

Imtiyozli kredit eng kam ish haqining 150 baravaridan – 1000 baravarigacha miqdorda ajratilib, 6 oygacha imtiyozli davr bilan 3 yildan ko'p bo'lmagan muddatga ajratiladi. Foiz stavkasi yillik 7 foiz miqdorida belgilanadi[194].

Nizomda kreditlar amalga oshiriladigan loyihaning biznes-rejasiga muvofiq o'zini-o'zi qoplash jihatlaridan kelib chiqib, 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 5 yil muddatgacha ajratilishi mumkinligi, bunda berilayotgan imtiyozli davr va kreditni qaytarish muddati batafsil asoslantirilishi kerakligi belgilab qo'yildi .Kredit olish uchun taqdim etiladigan hujjatlar ham soddalashtirilib, tadbirkorlar uchun qulay bo'lishi hisobga olindi[195].

Mikrokredit summasi – eng kam ish haqi miqdorining 200 barobarigacha bo'lib, asosiy qarzni to'lashga olti oy muddatli imtiyozli davrni hisobga olgan holda uch yilgacha muddatga beriladigan bo'ldi. Yillik foiz stavkasi miqdorlari: bitta ish joyi yaratilganda - 9 foiz, ikkita ish joyi - 8 foiz, uchtadan to'rttagacha ish joylari - 7 foiz, beshta va undan ortiq ish joylari yaratilganda - 6 foizni tashkil etadi[196].

Shu bilan birga bozor islohotlarini chuqurlashtirish, zamonaviy texnologik uskunalarni xarid qilish, ichki va tashqi bozorlarda xaridorgir bo'lgan raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish uchun tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar olish imkoniyatlarini kengaytirish yo'li orqali kichik tadbirkorlik subyektlarini jadal rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar

---

[194] "Har bir oila–tadbirkor" dasturi doirasida kreditlar kimlarga beriladi?(Elektron resurs). Kirish rejimi: http: //uza.uz/oz/society.(murojaat qilingan sana 15.10.2018).

[195] Har bir oila–tadbirkor" dasturi doirasida kreditlar kimlarga beriladi?(Elektron resurs). Kirish rejimi: http: //uza.uz/oz/society.(murojaat qilingan sana 15.10.2018).

[196] "O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil 13 fevral, 6-son, 71-modda.

yaratish, buning asosida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda kichik tadbirkorlikning rolini oshirish maqsadida Kafolat jamg'armasi tashkil etildi[197].

Davlatimizning soha rivojiga qaratilgan moliyaviy islohotlari kichik biznes va tadbirkorlik sohasida faoliyatini boshlayotgan va faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarimiz hayotida ham ijobiy o'zgarishlar yasadi. O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, "Tadbirkor ayol assotsiatsiyasi, O'zLiDeP "Ayollar qanoti" o'z faoliyatlarida qabul qilinayotgan Farmon va qarorlar mohiyatini xotin-qizlarga etkazish, ularning huquqiy bilimlarini oshirish va tadbirkorligini rivojlantirishga moliviy ko'mak berish borasida qator ishlarni amalga oshirdilar. Ushbu nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga moliyaviy ko'maklashishga qaratilgan qator tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zLiDeP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo'mitasining 2017-yil 3-fevraldagi 01-08/08-sonli Qaroriga asosan "Oilaviy tadbirkorlikdan - mustahkam oilaga" nomli loyihaning tuman (shahar) bosqichlarida 26 660 nafar xotin-qizlar ishtirok etib, respublikamizdagi etakchi tijorat banklari tomonidan 1137 nafar xotin-qizlarga 9 milliard 909 million 570 ming so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Buning natijasida 4598 ga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi[198].

"Ayollar qanoti" faollari hisoblangan tadbirkor, fermer xotin-qizlar xonadonma-xonadon yurib kam ta'minlangan, uyda o'tirgan xotin-qizlarni tadbirkorlik, fermerlik, hunarmandlik bo'yicha faoliyatga jalb etdilar.

[197] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish kafolat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2768 sonli qarori. "O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil 20 fevral, 7-son, 85-modda.

[198] O'zLiDeP"Ayollar qanoti"ning joriy arxiv ma'lumotlari. 2017 yil, 5-jild, 18-varaq.

Natijada, 608 nafar xotin-qizlarga 4 milliard 634 million so'm miqdorida kreditlar olib berildi[199]. Mamlakat tadbirkor ayollarini qo'llab-quvvatlashning eng samarali usullaridan biri – ularning faoliyatiga moddiy ko'maklashish, ya'ni tadbirkorlik faoliyatlarini imtiyozli kreditlar bilan ta'minlashdir. 2017-yilda "Tadbirkor ayol" assotsiatsiyasi va "Mikrokreditbank" ATB o'rtasida tuzilgan hamkorlik memorandumiga asosan ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun 10 milliard so'm imtiyozli kredit ajratilib, minglab tadbirkor ayollarimiz ushbu mablag'lardan unumli foydalanib, o'z biznеslarini rivojlantirishga, yuzlab yangi ish o'rinlari tashkil qilishga muvaffaq bo'ldilar[200].

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining "Tadbirkor qizning eng yaxshi loyihasi-2017-yil" hamda "Mahallaning eng namunali tadbirkor ayoli" tanlovlari bo'yicha bank tuzilmalari tomonidan kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining tadbirkorlik faoliyatlarini tashkil etish, ularning o'z biznеslarini yo'lga qo'yishlari hamda tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq loyihalarini moliyalashtirish uchun 11 milliard so'm miqdorida imtiyozli mikrokreditlar ajratildi[201].

"Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da "Har bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi qaroriga[202]asosan imtiyozli mikrokreditlar ajratish ko'lami yanada kengaytirildi.

---

[199] O'sha joyda, 28-varaq.

[200] "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasining joriy arxivi ma'lumotlari. 2017 yil, 12-jild, 27-varaq.

[201] O'zbekiston Xotin- qizlar qo'mitasining joriy arxiv ma'lumotlari. 2017 yil, 17-jild, 34-varaq.

[202] O'zbekiston Respublikasi Prezidenting "Har bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi 2018 yil 7 iyundagi qarori //Xalq so'zi, 2018 yil 8 iyun.

2017-yil 5-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili institutini ta’sis etish to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilindi. Farmon asosida “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Biznes-Ombudsmanni joriy etishdan maqsad respublika iqtisodiyotining asosiy yo‘nalishiga aylangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning erkinligini yanada oshirish va ular faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarni tubdan qisqartishdir[203]. Chunki tadbirkorlik rivojidagi to‘siqlar tufayli bugungi kunda xotin-qizlar muammolarining ayrimlari o‘z echimini to‘liq topmayapti:

- doimiy ravishda xotin-qizlar bandligini ta’minlash;
- ayrim xotin-qizlarning odam savdosi qurboniga aylanayotganligi;
- xotin-qizlar o‘rtasida jinoyatchilikning o‘sishi.

Bu muammolarning echimi, avvalo ta’lim bilan bog‘liqdir. 1997-yilda ishlab chiqilgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga asosan respublikada 12 yillik uzluksiz ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, yangi maktablar qurildi va rekonstruksiya qilindi, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari qurilib, ularda eng ilg‘or moddiy-texnika ta’minoti yo‘lga qo‘yildi. Kollejlarning iqtisodiyot uchun zarur mutaxassislar etkazib berishdagi vazifasidan kelib chiqib, yangi yo‘nalishlarda o‘qitish tizimi tashkil etildi. Biroq, o‘quvchilarning uzoq masofada joylashgan kasb-hunar

[203] Saidov A.”Biznes-Ombudsman”–Prezident loyihasi (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www. parlament.gov.uz/ (murojaat qilingan sana 16.09.2018).

kollejlariga qatnashi, ularni kasbga yo'naltirishda ixtiyoriy tanlovning buzilishi, kadrlarni hududlar ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini hisobga olmagan holda tayyorlanishi bandlik bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqardi. Ko'p xollarda bitiruvchilar hisobot uchungina xususiy korxonalarga 3-4 oydan keyin bo'shatib yuborish shartlari bilan ishga joylashtirildi. Masalan, 2016-yili 477 ming 743 nafar yosh yigit-qiz kollejlarni bitirib chiqqan va ularning 438 ming 503 nafari yoki 91,8 foizi ish bilan ta'minlangani to'g'risida ma'lumot berilgan. Ma'lum vaqt o'tgandan keyin ishga joylashganlarning aksariyati o'z ish joylarida ishlamayotgani ma'lum bo'lgan[204].

Prezident Sh. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlariga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishda "Yurtimizda yiliga 1,5 million odamni ishga joylashtirishga ehtiyoj bo'lsa-da, 2016-yili Bandlikka ko'maklashish markazlari atigi 248 ming kishini yoki 16,5 foizini ishga joylashtirganligi, ayniqsa kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish bo'yicha to'rt tomonlama shartnomalarni amalga oshirish borasida ko'plab qo'shib yozish holatlari bartaraf etilmagan"ligini keskin tanqid qildi[205]. Ammo ahvol jiddiy tus olgach, ayrim "mutasaddi rahbarlar" tomonidan tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi xususiy korxonalar bandlikni ta'minlashda qonun buzulishlarining asosiy aybdori sifatida tegishli jazolarga tortildi. Respublikamizda ishsizlarning ko'pchiligini kollej bitiruvchilari tashkil etmoqda. Lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy korxonalarni

[204] Kasb-hunar kolleji bitiruvchilarini ishga joylashtirish (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www. lex.uz/ (murojaat qilingan sana 16.09.2017).

[205] Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.Toshkent:O'zbekiston, 2017. 270-b.

aholi bandligini ta'minlashdagi ishtiroki ixtiyoriy bo'lib, har bir korxonaning ish kuchiga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqadi[206].

Masalaning yana bir jihati aholi migratsiyasi bilan bog'liqdir. Bozor islohotlari natijasida ko'plab davlat korxonalarining yopilishi tufayli Rossiya, Turkiya, Koreya va boshqa xorijiy davlatlarga pul topish maqsadida fuqarolarning noqonuniy yo'l bilan ketishi kuchaydi. Natijada, ko'p xollarda o'zbek fuqarolarining odam savdosi qurboniga aylanishi bilan bog'liq muammolar yuzaga keldi. Ayniqsa, ular orasida xotin-qizlarning ham bo'lishi juda achinarli edi. Mana bu holatlar oilalarda otasi yoki onasi chetga ishlash uchun ketishi oqibatida ayni o'smir yoshidagi o'g'il-qizlarimizning nazoratsiz qolishi va u bilan bog'liq ravishda jinoyatlarning ko'payishiga sabab bo'ldi.

Ma'lumki, aholi bandligini ta'minlash, oilalar farovonligini oshirishning birdan bir yo'li kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishdir.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq qabulxonalari" va "Vertual qabulxona"siga ko'pgina tadbirkorlardan tushgan murojaatlarda davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralarining tadbirkorlik subyeknlari faoliyatiga noqonuniy aralashuvlari bayon etilgan. Murojaatlar o'rganib chiqilganda turli cheklovlar ularning faoliyatiga to'siq bo'layotganligi, ular to'laqonli darajada erkin harakat qila olmayotganliklari ma'lum bo'ldi[207].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-martdagi "Tadbirkorlik subektlari va keng aholi qat-

[206] Kasb-hunar kolleji bitiruvchilarini ishga joylashtirish (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www. lex.uz/ (murojaat qilingan sana 16.09.2017).
[207] Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://Uz24uz>society (murojaat qilingan sana 16.09.2017).

lamiga mikrokreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining 1-ilovasiga asosan 2021-yil 1-yanvarga qadar 18 ta faoliyat turlari (asosan maishiy xizmatlar) bilan shug‘ullanadigan yangi ro‘yxatga olingan yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlik subektlari ushbu qarorda ko‘zda tutilgan qoidalarga binoan mikrokreditlarni rasmiylashtirishda 6 oy muddatga qat’iy belgilangan soliq to‘lovidan ozod etish imtiyozi berildi[208].

Yangi korxonalarning tashkil etilishi, rivojlanib borib o‘rta va yirik korxonalarga aylanishi, ayrim korxonalar faoliyatining to‘xtab qolishi kabi jarayonlar bozor iqtisodiyoti uchun xos xususiyatlardir. Bu kabi jarayonlar bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan bizning respublikamizda ham hamisha aholi bandligi bo‘yicha muammolarni yuzaga chiqarib, ularni doimo xal qilib borishni taqozo etadi. Serquyosh va unumdor tuproqli yurtimizning nafaqat qishloqlarida, balki shahar xonadonlarida ham tomorqa xo‘jaliklarini yanada rivojlantirish, oilaviy biznesni keng yo‘lga qo‘yish orqali ayollar bandligi borasidagi muammolarni bartaraf etish mumkin. Prezident Sh. Mirziyoyevning ayollar bandligi bilan bog‘liq muammolarga to‘xtalib, “ayollar uchun doimiy ish joylari yaratish borasidagi muhim masala bilan bir qatorda, oilaviy biznes, kasanachilik, hunarmandchilik, tomorqa xo‘jaligini keng rivojlantirish ishlari ham oqsamoqda”, degan o‘rinli fikrlari xotin qizlar tashkilotlari faoliyatini qayta ko‘rib chi-

[208] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subektlari va keng aholi qatlamiga mikrokreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 17 martdagi PQ-2844-sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 12-son, 187-modda.

qish va faoliyat yo'nalishini yangi bosqichga ko'tarish mas'uliyatini yanada oshirdi[209] .

2017-yil Respublikada tashkil etilgan jamoatchilik guruhlarining faoliyati natijasida jami 5 milliondan ortiq oilaviy muammolar o'rganildi. Natijada, 22 mingta oila ajralib ketishining oldi olindi, 36 ming fuqaro ish bilan ta'minlandi, 14,5 ming kishiga esa oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha kredit olishga ko'maklashildi[210].

O'tgan davrda davlatimiz tomonidan amalga oshirilgan bozor munosabatlariga o'tish va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan davlat islohotlarining samarasi o'laroq, mustaqillik yillarida kichik biznes va tadbirkorlik rivojlanib bordi hamda aholining ushbu sohada bandligi tobora ortib bordi. Agar 2000-yilda respublika bo'yicha 4467,1 ming kishi, 2010-yilda 8643,9 ming kishi kichik tadbirkorlikda band bo'lgan bo'lsa, 2017-yilga kelib ularning soni 10541,5 ming kishiga etdi. Kichik tadbirkorlikda band aholi 2000-yilda jami bandlarning 49,7 foizini, 2010-yilda jami bandlarning 74,3 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilga kelib kichik tadbirkorlikda band bo'lgan aholi jami bandlarning 78 foizini tashkil etdi, bunda oilaviy tadbirkorlik muhim rol o'ynadi[211] .

Respublikada oilaviy tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoit yaratilishi natijasida aholi, xotin-qizlar bandligini ta'minlash ko'lami yanada kengaydi. Agar 2012-yili oilaviy tadbirkorlik hamda hunarmandchilikni rivojlantirish

[209] Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.Toshkent: O'zbekiston, 2017.– B.43.

[210] O'zbekiston Xotin- qizlar qo'mitasining joriy arxiv ma'lumotlari. 2017 yil, 17-jild, 34-varaq.

[211] O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 2018 yilda tayyorlangan maxsus ma'lumot.

maqsadlari uchun 91,3 milliard so‘m kredit mablag‘lari ajratilgan bo‘lsa, 2016-yilda ushbu raqam 367,2 milliard so‘mga etdi, aniqrog‘i to‘rt barobar oshdi. 2017-yilda yurtimizda 8 mingdan ortiq oilaviy korxonalar mavjud bo‘ldi. Lekin hududlar kesimida o‘rganilganda yuridik maqomga ega oilaviy tadbirkorlik subyektlari sonidagi keskin farq ko‘zga tashlanadi. Xususan, Toshkent shahrida 1 ming 27 ta, Farg‘ona viloyatida 1 ming 102 ta, Toshkent viloyatida mingga yaqin oilaviy korxonalar faoliyat yuritayotgan bir paytda Sirdaryo viloyatida atiga 9 ta, Namangan viloyatida 37 ta oilaviy korxona mavjud edi. Mazkur holatlarga fuqarolarning oilaviy tadbirkorlik subyektlariga berilgan qonuniy imtiyozlar hamda qulayliklar haqida etarlicha tushunchaga ega emasliklari sabab bo‘lgan[212].

2017-yil 9-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa er egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5199 son Farmoni qabul qilindi[213]. Farmonga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fermer, dehqon xo‘jaliklari faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Har yili fevralga qadar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari raislari ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlari bilan birgalikda uyma-uy yurib, hududdagi dehqon xo‘jaliklari va tomorqa er

[212] Mahkamova F. Oilaviy tadbirkorlik nega oqsamoqda? //Xalq so‘zi, 2017 yil 20 iyun.
[213] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fermer, dehqon xo‘jaliklari faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga sharx//Xalq so‘zi, 2017 yil 11 oktyabr.

egalarining ekin maydonlarini xatlovdan o'tkazadi. Ularda yil davomida ekiladigan ekin turlari va etishtiriladigan mahsulot hajmlarini oila ehtiyoji va sotish uchun mo'ljallangan qismlarga ajratgan holda aniqlaydi. Mahsulot etkazib berish bo'yicha shartnomalar tuzilishi, ekinlarning to'liq va sifatli ekilishi, agrotexnik tadbirlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi yuzasidan jamoatchilik nazoratini tashkil etadi. Qarorda yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joyni obodonlashtirish uchun berilgan er uchastkalarining tomorqa qismida asossiz ravishda qishloq xo'jaligi ekinlari ekmagan yoki uni obodonlashtirmagan er egalariga nisbatan belgilangan er solig'i stavkasining uch barobari oshirilgan miqdori qo'llanishi belgilab qo'yildi. Dehqon xo'jaligi yuritish uchun uy-joy qurish huquqisiz berilgan er uchastkalarida qishloq xo'jaligi ekinlari ekmagan er egalarining er uchastkasiga bo'lgan huquqi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinadigan bo'ldi. Bu esa erdan unumli foydalanishda aholi, xotin-qizlar mas'uliyatini yanada oshishiga xizmat qiladi.

Respublikada oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, mehnat bilan band bo'lmagan xotin-qizlarni tadbirkorlikka, kasanachilikka jalb etish borasida juda katta imkoniyatlar mavjud. Bu borada etarli huquqiy va moliyaviy imtiyozlar yaratildi. Endigi maqsad o'tgan yillar mobaynida yakka tadbirkorlikdan yirik oilaviy tadbirkor darajasiga etishib chiqqan, yirik ishlab chiqarish muassasalari, qo'shma korxonalarni boshqarib kelgan faol ishbilarmon ayollar tajribasidan unumli foydalanish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ishlab chiqarishga joriy etish, bu borada innovatsion yondoshuvlardan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Bu bob yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

O‘zbekistonda xotin-qizlarning kichik biznes va tadbirkorlik sohasidagi faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati nafaqat ayollarning jamiyatda ijtimoiy kuchga aylanishida, balki mamlakat taraqqiyotida ham progressiv ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu boradagi istiqbolli davlat dasturlarini amalga oshirishdagi vazifalarni bajarishda davlat tashkilotlari bilan bir qatorda nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati ham muhim rol o‘ynadi.

Respublikada ayollarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini shakllantirishga ko‘maklashadigan ayollar tashkilotlarining muayyan tizimi yaratildi. Mazkur xotin-qizlar tashkilotlari ayollar manfaatlarining amaldagi haqiqiy ko‘makchisi va himoyachisiga, barpo etilayotgan fuqarolik jamiyatining uzviy bir qismiga aylandi. Ushbu tizimning asosini O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi tashkil etadi.

Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotida, ayniqsa, iqtisodiyotning tarkibiy qismi bo‘lgan tadbirkorlik sohasida xotin-qizlarning mavqei muhim o‘ringa ega. Binobarin, mamlakatda tadbirkor xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ularning oila va jamiyat hayotida munosib o‘rin egallashlariga, oilaviy tadbirkorlikni keng yo‘lga qo‘yishlariga imkon beradi. Ayni paytda, 14 ming nafardan ziyod ishbilarmon ayollarni o‘z safiga birlashtirgan “Tadbirkor ayol” assotsiatsiyasi biznesni boshlamoqchi bo‘lgan ayollarga ko‘maklashish, ularning tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish, pirovardida yangi ish o‘rinlari yaratishga xizmat qiladi.

Tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlashning eng samarali usullaridan biri – ularning faoliyatiga moddiy ko‘maklashish, ya’ni tadbirkorlik faoliyatlarini imtiyozli kreditlar bilan ta’minlashdir. Shu bois, “Tadbirkor ayol” O‘zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi va “Mikrokreditbank” ATB o‘rtasida tuzilgan hamkorlik memorandumiga asosan ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar ajratilishi, minglab tadbirkor ayollarning ushbu mablag‘lardan unumli foydalanishi, o‘z bizneslarini rivojlantirishga, yuzlab yangi ish o‘rinlari tashkil qilishiga yordam berdi.

UCHINCHI BOB

RESPUBLIKA XOTIN-QIZLARINING KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA JALB ETILISHINING AHAMIYATI

3.1. Tadbirkor xotin-qizlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi soliq imtiyozlari va ularning soha rivojiga ta’siri

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor islohotlarini amalga oshirish jarayonida ayollar rolining ortishi, ularning jamiyat hayotining barcha sohalarida faol ishtirok etishi, onalik burchlarini bajarish bilan ishlab chiqarishdagi mehnat faolliklarini muvaffaqiyatli tarzda birga qo‘shib olib borish uchun zarur huquqiy va ijtimoiy kafolatlarning yaratilganligi shundan dalolat beradiki, respublika hayotining barcha sohalarini qamrab olgan tub o‘zgarishlar, yangilanishlar jarayoni tufayli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish demokratik jarayonlarni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri edi. Shuning uchun ham istiqlolning ilk kunlaridan boshlab xotin-qizlar bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator masalalarga, ya’ni ayollarning jamiyatdagi mavqeini, ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, o‘zlaridagi salohiyatni turli jabhalarda namoyon etishlari uchun yanada keng va real imkoniyatlar yaratib

berish; hattoki, uy bekasi vazifasini ado etib yurgan ayollarni ham bee'tibor qoldirmaslik uchun kerakli shart-sharoit yaratish; ayollarning uy-ro'zg'or bilan bog'liq bo'lgan yumushlaridan, farzandlar tarbiyasidan, o'z oilasidan uzoqlashmagan holda oila daromadini ko'paytirishga o'z ulushini qo'shishi uchun uyda turib mehnat bilan band bo'lishlarini ta'minlash; xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, ularning kichik biznes hamda oilaviy biznes bilan shug'ullanishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratish va tadbirkor ayollarga har tomonlama ko'maklashishga alohida e'tibor berib kelindi[214].

O'zbekistonda aholini bozor munosabatlari sharoitida yashash va ishlashga o'rgatish, tadbirkorlik va kichik biznesni to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, texnik yordam ko'rsatish bo'yicha bir qancha dasturlar amalga oshirildi. Jumladan, respublika "Tadbirkorlar palatasi", "Biznes-fond", "Bandlikka ko'maklashish fondi", Yevropa Ittifoqining TACIS dasturi, "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi hamda boshqa davlat va nohukumat tashkilotlarining faoliyati ana shunga qaratilgan[215].

Mamlakat taraqqiyotida kichik biznes va tadbirkorlik qay darajada ahamiyatga ega bo'lsa, amalga oshirilayotgan soliq siyosatining ham alohida o'rni bor. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi "Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes-

[214] O'zMA. M-69-jamg'arma, 1-ro'yxat, 93-yig'ma jild, 82-varaq.

[215] Новые возможности, открывающееся перед женщинами в сфере занятности / Доклад о положении женщин в РУз. – Ташкент: Бюро гендер и развитие. 1999. –С. 45; "O'zbekistonda xotin-qizlarning ahvoli" haqidagi ma'ruza. BMTRD (Birlashgan Millatlar tashkiloti Rivojlanish dasturi) "Gender va rivojlanish" byurosining tashabbusi bilan O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan iqtisodiy tadqiqotlar markazi va "Gender va taraqqiyot" RBEC/UNDP regional dasturi. –Toshkent, 1999. –B.57.

ni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2003-yil 30-avgustdagi Farmoni[216] muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Farmon mamlakat iqtisodiyotida xususiy sektor ulushini yanada oshirish, aholi bandligini to'laroq ta'minlash, kichik biznes va tadbirkorlikni tobora jadal rivojlantirish maqsadida qabul qilindi. Farmonga muvofiq 2004 yil 1 yanvardan boshlab o'rta korxonalar ham kichik korxonalar jumlasiga kiritilib, soddalashtirilgan soliq to'lash huquqiga ega bo'ldilar.

Bunga qadar Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi 159-sonli qaroriga asosan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun soliqqa tortish soddalashtirilgan tizimining qo'llanish tartibi tasdiqlangan edi. Bu tartib avvalo, soliq to'lovchilarning hisobotlar taqdim etishida ham qulayliklar yaratdi. Soddalashtirilgan soliq to'lovchilar yilda va yilning har choragida bir marotaba hisobot topshiradigan bo'ldilar. Bu esa tadbirkorlar, xususan kichik biznes sohasida faoliyat yuritayotgan ko'plab xotin-qizlarning vaqti tejalishiga, o'sha vaqtni korxonani yanada rivojlantirishga sarflashi uchun imkoniyat yaratdi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga amal qiluvchi "Nogironlar" jamoat birlashmasi, "Nuroniy" jamg'armasi, "O'zbekiston chernobilchilari" uyushmasiga tegishli bo'lgan xodimlar sonining 50 foizi nogironlardan, urush va mehnat faxriylaridan iborat mikrofirmalar, kichik korxonalar yagona soliq to'lashdan ozod etildilar. Ma-

[216] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi "Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2003 yil 30 avgustagi Farmoni//Xalq so'zi, 2003 yil 31 avgust.

salaning yana bir muhim jihati shundaki, o'rta korxonalarning soddalashtirilgan soliq to'lash tizimiga o'tkazilishi bilan yagona soliq to'lovchilar soni yana 5 foizga ko'paydi. 2004-yilga kelib kichik va o'rta biznes subyektlari ro'yxatdan o'tgan jami korxonalarning 93 foizini tashkil etdi. Bu 2002-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,5 foiz ko'p demakdir. Tahlillar natijasida shu narsa ayon bo'ldiki, bunda kichik va o'rta biznes subyektlari salmog'ining o'sishi asosan sanoat, qishloq xo'jaligi va qurilish kabi iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarida ko'zga tashlandi[217].

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2004-yil byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 567-sonli qaroriga muvofiq esa, yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tartibida bir qator o'zgarishlar ro'y berdi. Ushbu qarorga ko'ra, 2003-yildan boshlab yuridik shaxslar daromadiga solinadigan soliq stavkasi avvalgi 20 foizdan 18 foizga pasaytirildi[218].

Kuzatilishicha, o'tgan davr mobaynida iqtisodiy islohotlar jarayonida O'zbekistonda soliq yuki darajasi yildan yilga muntazam ravishda pasayib borgan. Agar 1999-yilda ushbu ko'rsatkich yalpi ichki mahsulotning 38,7 foizini, 2002 yilda 33,2 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2003-yilda bu ko'rsatkich 32,5 foizga tushganini ko'ramiz[219]. Soliq yukini taqsimlashda to'g'ri va egri soliqlarning nisbati katta ahamiyatga ega. Bu jarayondagi soliq siyosatida to'g'ri soliqlar darajasining egri soliqlar darajasiga nisbatan kamaytirilishi davom etgani ham kuzatiladi. Davlat va hukumat tomonidan yuridik shaxslardan olinadigan

[217] Soliq yuki yengillashdi //XXI asr gazetasi, 2004 yil 15 yanvar.
[218] Yangiliklardan xabaringiz bormi?//X X1 asr gazetasi, 2004 yil 22 yanvar.
[219] O'sha joyda.

daromad solig‘i stavkalarini pasaytirishga soliq siyosatining asosiy maqsadlaridan biri sifatida qaralgan va u bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. Xususan, 1995-yil 2-iyulda daromad solig‘i stavkasi 38 foiz, 1999-yili 33 foiz, 2002-yili 24 foiz, 2003-yili 20 foiz va 2004-yilda kelib 18 foiz qilib belgilangan. Bu davrlarda ayrim xususiyatli korxonalar uchun belgilangan imtiyozlarga ko‘ra, soliq stavkasi 7 foizgacha pasaydi. Mutaxassislarning fikricha, soliq stavkasining 18 foizga kamayishi korxonalarga 20 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ni o‘z faoliyatiga yo‘naltirish imkonini berdi[220].

Tadbirkor xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini ta‘minlashda iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi, kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanish darajasi, mehnat sharoitlari va boshqalar bilan birga, ularning mehnat bilan band bo‘lishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi o‘ziga xos omillar – tug‘ilish, maktabgacha bolalar muassasalari bilan ta‘minlanish, ijtimoiy sohaning rivojlanganlik darajasi, xotin-qizlar ishchi kuchining kasbiy malaka xususiyatlari, ayollarning ijtimoiy mehnat motivatsiyasi tashkil etadi[221]. Mazkur omillarning takomillashtirilishi xotin-qizlar mehnat faoliyatining yanada yaxshilanishiga zamin yaratadi.

O‘z mehnat faoliyatini yuritayotgan ayollarning asosiy qismini oilaning yakka yoki asosiy boquvchilari tashkil etadi. Bular boquvchilari yo‘q yolg‘iz onalar, qariya ota-onalari bo‘lganlar, ishsiz va nogiron erkaklarning rafiqalari va boshqalardir. Ish haqi bunday ayollar va ularning oila a‘zolari uchun hayot kechirishning yagona manbaidir[222],

[220] Yangiliklardan xabaringiz bormi?//XX1 asr gazetasi,2004 yil 22 yanvar.
[221] O‘zMA. M-69-jamg‘arma, 1-yig‘ma jild, 88-ish, 34-varaq.
[222] Abilov O‘. Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2003. – B.166.

ayollarning ko‘pchiligi ishlashga majbur, negaki, oila byudjetini to‘liq qoplash zarurati, buni talab etadi. Statisik ma’lumotlarga qaraganda oxirgi besh yil ichida korxona va tashkilotlarda yollanib ishlovchi xotin-qizlar ichida oliy ma’lumotlilar 31,7 foizdan 33,7 foizga, o‘rta maxsus ma’lumotlilar 47,5 foizdan 49,5 foizga ortgan, o‘rta va tugallanmagan o‘rta ma’lumotlilar esa 20,8 foizdan 16,8 foizga kamaygan[223]. Bu ko‘rsatkichlar xotin-qizlarning ma’lumot darajasiga qaramay, bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda o‘z oilalarining moliyaviy holatini yaxshilashga bo‘lgan intilishlarini ortganligini ko‘rsatadi**.**

Ayrim olimlar, buning sababi, ba’zi erkaklar oila mas’uliyatini o‘z zimmasiga olishdan bosh tortayotganligi, ayollarning esa dadilligi, jur’atliligi ularni dangasa qilib qo‘yayotgan bo‘lsa kerak, deb hisoblashadi[224].

1997-yildagi xotin-qizlarning mehnat va turmush sharoitlarini o‘rganish bo‘yicha ma’lumotlarga ko‘ra, ayollarning 55 foizi uchun ishlashning asosiy sababi oila uchun mablag‘ topish zarurligi bo‘lsa, 14 foizi uchun moddiy jihatdan mustaqil bo‘lish istagi ekan[225].

Ishlab chiqarish sohasida oliy va o‘rta maxsus ma’lumotga ega bo‘lgan ayollarning siqib chiqarilishi asosiy muammolardan biri bo‘lib, ishdan bo‘shatilgan xotin-qizlarning yarmiga yaqini mehnatga layoqatli yoshdagi turli soha mutaxassislari hisoblanadi. Ish bilan band bo‘lmagan xotin-qizlarning 1996-yildagi ma’lumot bo‘yicha tarkibi quyidagicha, ya’ni: oliy – 6 foiz, o‘rta maxsus – 19

[223] O‘zbekiston ayollari va erkaklari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi Statistik materiallar tarqatishni texnik qo‘llab-quvvatlash sho‘‘basi, 2017.– B.182.
[224] Safaeva M. Odamiylik fazilatlari makoni // Oila, 2005. –B.15.
[225] O‘zMA. M-69-jamg‘arma, 1-yig‘ma jild, 88-ish, 38-varaq.

foiz, umumiy o‘rta – 62 foiz, to‘liqsiz o‘rta – 13 foizdan iborat bo‘lganligi bilan izohlanadi. Ularning yosh ko‘rsatkichi quyidacha bo‘lgan: 18 yoshgacha – 14 foiz, 18 yoshdan 30 yoshgacha – 49 foiz, 30 yoshdan 50 yoshgacha – 35 foiz, pensiya yoshiga etib qolganlar – 2 foiz va qolgan boshqalar – 0,5 foizni tashkil etgan[226]. Shunga ko‘ra, ayollarni mehnat bozoriga jalb etish orqali ular faoliyatini tashkil etish lozim edi.

Ayollarning ahvoli bilan bog‘liq muammolarga davlat e’tiborining ortayotganligi xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, soliq imtiyozlaridan bahramand etish, ularning o‘zi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratish bilan birga, ularning iqtisodiy islohotlar jarayonidagi faolligini oshirish imkonini beradi. Mamlakatdagi 20-24 yoshdagi xotin-qizlarning 50,4 foizi qaysidir kasb egasi bo‘lib, ular orasida ayniqsa, o‘qituvchilar, vrachlar, hamshira, tikuvchi, tarbiyachi, buxgalter, iqtisodchilar muhim o‘rin egallagan[227].

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri xotin-qizlarga biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanish imkoniyatini yaratdi. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand viloyatlarida 1997-yilda o‘tkazilgan so‘rovnomada aniqlanishicha, xotin-qizlarning 7,0 foizi o‘z biznesiga ega ekanligi, 34,1 foizi xususiy tadbirkorlik bilan bemalol shug‘ullana olishi mumkinligini, 26,3 foizi o‘ziga ishonchi yo‘qligini ta’kidlagan. Shuningdek, shahar ayollarining (35,5 foiz) biznes

[226] “O‘zbekistonda xotin-qizlarning ahvoli” haqidagi ma’ruza. BMTRD (Birlashgan Millatlar tashkiloti Rivojlanish dasturi) “Gender va rivojlanish” byurosining tashabbusi bilan O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan iqtisodiy tadqiqotlar markazi va “Gender va taraqqiyot” RBEC/UNDP regional dasturi. – Toshkent, 1999. – B.51.

[227] O‘zMA, M-69-jamg‘arma, 1-yig‘ma jild, 93-ish, 114-varaq.

faoliyati bilan shug‘ullanish xohishlari qishloq ayollarinikiga (32,8 foiz) nisbatan faolligi kuzatildi[228].

Xotin-qizlar o‘rtasida tadbirkorlik faoliyati mustaqillik tufayli qo‘llab-quvvatlandi, bu esa, aynan ularning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga xizmat qildi. Xususan, Biznes fond, O‘ztadbirkorbank, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki hamda Davlat mulki qo‘mitasi hamkorligida muntazam ravishda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek, mahsulotlarni eksport qilish maqsadida O‘zbekiston tadbirkorlarining “Tashabbus” tanlovini o‘tkazib kelmoqda. Tanlov yakunlariga ko‘ra, “Yil tadbirkori” nomiga sazovor bo‘lgan g‘oliblar pul mukofoti bilan, “Yilning eng yaxshi biznes loyihasi” sovrindorlari esa imtiyozli kredit bilan taqdirlanadigan bo‘ldi[229]. Masalan, “Tashabbus – 95” tanlovida Qoraqalpog‘iston Respublikasidan – 56 nafar, Andijon viloyatidan – 85, Farg‘ona viloyatidan –72 , Jizzax viloyatidan – 78, Buxoro viloyatidan – 283, Qashqadaryo viloyatidan – 52, Navoiy viloyatidan – 83, Namangan viloyatidan – 70, Samarqand viloyatidan – 59, Sirdaryo viloyatidan – 46, Surxondaryo viloyatidan – 21, Toshkent viloyatidan – 30, Xorazm viloyatidan – 25 va Toshkent shahridan – 150 nafar tadbirkorlar ishtirok etdi[230]. Shulardan 479 nafari “Yilning eng yaxshi loyihasi” yo‘nalishida, 621 nafari “Eng ilg‘or biznesmen, ishbilarmon” yo‘nalishida qatnashdi[231].

Mazkur tanlovda 1993-yilda Nukus shahrida tashkil topgan, “milliy kiyim kechaklar tikish va yodgorlik mah-

[228] Женщины Uzbekistana. Statisticheskiy sbornik. – Tashkent, 2000. – S.156.
[229] O‘zMA, M-67-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 43-yig‘ma jild, 54-varaq.
[230] O‘zMA, M-67-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 43-yig‘ma jild, 15-varak.
[231] O‘zMA, M-67-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 44-yig‘majild, 34-varak.

sulotlarini tayyorlashga ixtisoslashgan Ayzoda" xususiy firmasining rahbari Uderbayeva Ayzoda g'oliblikni qo'lga kiritib, qo'rikning maxsus sovriniga sazovor bo'lgan[232].

Xususan, Sirdaryo viloyati Guliston shahrida tashkil qilingan "Mohira" xususiy ustoz-shogird o'quv markazi rahbari M.Otaeva 1999-yili AQShning "Kaunterpart Konsorsium" jamg'armasiga zardo'zlikni rivojlantirish bo'yicha o'z loyihasini taqdim etib, unga jamg'arma tomonidan 500 AQSh dollari miqdorida grant ajratilgan. Tadbirkor ayol bu mablag' bilan o'z ishini yo'lga qo'yib, "Tashabbus – 2002" va "Tashabbus – 2004" tanlovlarida "Eng yaxshi tadbirkor" sifatida g'olib bo'lgan[233].

Xorazm viloyati To'rtko'l tumanidan tadbirkor ayol L.Yo'ldosheva esa, 2003-yili "Tadbirkorbank"ning To'rtko'l bo'limidan 10 million so'm miqdorida kredit olib, "Lola" kichik korxonasini ishga tushirgan edi. 2005-yilga kelib, korxonaning aylanma mablag'i 42-43 million so'mni tashkil qilgan[234].

Shuningdek, Navoiy shahridagi "Paxtakor-M" korxonasi rahbari M.Yusupova, Samarqand viloyatidagi "Dilsevar" xususiy firmasi rahbari O.Tursunova, Toshkent shahridagi "Fayz-Baraka" qo'shma korxonasi rahbari M.Akramova, "Dilbar davr qizi" xususiy korxonasi rahbari D.Xadjayeva kabi tadbirkor ayollar muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqdalar[235].

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish ishlab chiqarish quvvatini joylashtirishga, hududning qator ijtimoiy-iqti-

---

[232] O'zMA, M-67-jamg'arma, 1-ro'yxat, 44-yig'ma jild, 24-varak.
[233] O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining joriy arxiv ma'lumotlari. 17-jild, 33-varaq.
[234] Inomova S. E'zozli ayol iqboli: davr, jamiyat, shaxs. – Toshkent: O'qituvchi NMIU, 2005. – B.32
[235] O'sha joyda. – B.33-34.

sodiy va madaniy xususiyatlariga bog‘liq. Bu jarayonda yaqindan hamkorlik qilayotgan BMTning Xotin-qizlar ahvoli borasidagi jamg‘armasi (YUNIFEM – Xotin-qizlar manfaatlari yo‘lidagi taraqqiyot) rivojlanayotgan mamlakatlarda xotin-qizlarning siyosiy va iqtisodiy rolini oshirishga ko‘maklashadigan ko‘ngilli jamg‘arma bo‘lib, u asosan quyidagi uch yo‘nalishda faoliyat ko‘rsatadi[236]:

- tadbirkor va ishlab chiqaruvchi sifatida ishlash uchun xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini oshirish;
- qarorlar qabul qilishda xotin-qizlar ishtirokini oshiruvchi boshqaruv va rahbarlikka yordamlashish;
- xotin-qizlar borasida inson huquqlariga amal qilinishini ta’minlash.

Respublika miqyosida 2009-yil mobaynida kichik biznesning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, aholi bandligi va yangi ish o’rinlarini tashkil etishga ko‘maklashish maqsadida amalga oshirilgan choralar sifatida quyidagilarni e’tirof etish mumkin:

- tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning hajmi 2008-yilga nisbatan 1,5 barobarga oshib, 1,8 trillion so‘mni tashkil etdi. Xususan, “Mikrokreditbank” tomonidan umumiy qiymati 462 milliard so‘m kredit ajratildi;
- Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Germaniya taraqqiyot banki, XXR hukumati va boshqa xorijiy investorlar mablag‘lari hisobidan jami 121,8 million dollar yoki 2008-yilga nisbatan 1,5 barobarga ortiq kredit resurslari jalb qilindi;

---

[236] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Sammitining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan yalpi majlisidagi nutqini o‘rganish bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2010. – B. 19.

- sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasining 8 foizdan 7 foizga tushirilishi natijasida 23,6 milliard so'm miqdoridagi mablag' mazkur korxonalar ixtiyorida qoldirildi[237].

2010-yilga kelib, kichik biznes subyektlari yalpi ichki mahsulotning qariyb 50 foizini ishlab chiqardi, bu jarayonda tadbirkor ayollarning ham munosib ulushi borligini ta'kidlash joiz. Holbuki, 2000-yilda bu ko'rsatkich 30 foizni tashkil etar edi[238]. Bunday natija birinchi navbatda kichik biznes va tadbirkorlikning davlat tomonidan doimiy qo'llab-quvvatlanib kelinayotganligi samarasidir.

So'nggi yillarda mamlakatda nafaqat iqtisodiy islohotlar, kichik biznes va tadbirkorlik rivojida, balki xotinqizlar hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Shu o'rinda soliq sohasida mutlaqo yangicha islohotlar olib borilayotganini alohida ta'kidlash joiz. Ilg'or mamlakatlar tajribasiga asosan, soliq tizimi jamiyat bilan mutanosib ravishda rivojlanadi va o'zgarib borsagina, undan jamiyat rivojiga va a'zolariga kerakli darajada manfaat keladi. Biroq, respublikada mustaqillikning dastlabki davrida soliq tizimi dogmatik holatga tushib, taraqqiyot yo'nalishiga to'sqinlik qila boshlagan edi. Buni quyidagi tahlillarda ko'rish mumkin:

- avvalo, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimida soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar zimmasidagi soliq yuki darajasidagi

[237] Sodiqov Sh. Kredit riskini boshqarishni takomillashtirish //Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2010, №3. – B. 74.

[238] Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.//Xalq so'zi, 2010 yil 29 yanvar.

farq keskin oshib ketdi. Bu butun dunyoda tan olingan soliqlarning adolatlilik tamoyiliga zid bo‘lib qoldi;

- qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirish mexanizmi iqtisodiyotga salbiy ta’sir etib kelgan bo‘lsa, mehnatga haq to‘lash fondiga yuqori soliq stavkalarining belgilanishi oqibatida soliq to‘lovchilar tomonidan xodimlarning real sonini ko‘rsatishdan manfaatdorligi yo‘qolib, “yashirin” iqtisodiyotning avj olishini tezlashtirdi;

- soliq to‘lovchilarga berilgan soliq imtiyozlari ularning o‘zlari, davlat byudjeti va iqtisodiyot uchun iqtisodiy manfaat keltirmay qo‘ydi;

- soliq imtiyoziga ega bo‘lgan korxonalarning bankrotga uchrashi holatlari ham ro‘y bera boshladi, sog‘lom raqobat muhitiga jiddiy putur etkazdi;

- mavjud soliq nazorati insofli tadbirkorlik subyektlarini himoya qilish, soliq to‘lashdan ongli ravishda qochib kelgan soliq to‘lovchilarni adolatli jazolashni ta’minlay olmadi.

Mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini yanada kengaytirish va ular duch keladigan muammolarning oldini olish maqsadida soliqlar yukini kamaytirish va biznes faoliyatiga nazoratchi idoralarning asossiz aralashuviga chek qo‘yish, mikromoliyalashtirish hamda mikrokredit tashkilotlari to‘g‘risida ko‘plab huquqiy hujjatlar[239] tizi-

[239] O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni(1991 yil); O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig‘ini joriy etish to‘g‘risida”gi (1998 yil 10 oktyabr); “Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (PF-2086, 1998 yil 10 oktyabr); “Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta’minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi (PF-4058, 2008 yil 28 noyabr) farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi rezidentining “Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (PQ-1112, 2009 yil 15 may), “Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to‘ldirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (PQ-1047, 2009 yil 26 yanvar) qarorlari.

mining yaratilishi tadbirkorlik sohasi rivojini ta'minlashga xizmat qildi. Jumladan, 2009-yilda kichik sanoat korxonalari uchun yagona soliq to'lovi 8 foizdan 7 foizga pasaytirildi, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun esa qayd etilgan soliq miqdori o'rtacha 1,3 barobar kamaytirildi. 1996-2010-yillar mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun belgilangan soliq stavkalari 38 foizdan 7 foizga, ya'ni 5,4 marta qisqardi[240].

Kredit uyushmalari, aholining ish bilan bandligi, oilaviy xususiy biznesni, kasanachilikni rivojlantirishga oid qonunlarga zarur o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi. Bu esa, jamiyatning muhim tayanchi bo'lgan oilalar farovonligining oshishiga huquqiy zamin yaratdi va ayollarni iqtisodiy munosabatlarga kirishishi uchun imkoniyat ochib berdi. Ayniqsa, ish bilan ta'minlashda asosiy omillardan biri bo'lgan kredit mablag'larining ajratilishi bu borada muhim ahamiyat kasb etdi. Masalan, 2008-yilda respublika bo'yicha tadbirkor ayollar uchun jami 90 milliard 87 million so'm kredit ajratilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2007-yilga nisbatan 47 milliard so'm ko'paygan. Mikrokredit bank tomonidan faoliyatini yangi boshlagan ayollar uchun 11 milliard 76 million so'm miqdorida kreditlar berilib, ushbu mablag' hisobidan 12 ming 332 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan[241]. Surxondaryo viloyatida ham tadbirkor ayollarga, xotin-qizlar mehnatidan foydalanadigan va ayollar boshqaradigan korxonalarga, shuning-

[240] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. –Toshkent: Iqtisodiyot, 2010. –B.27.

[241] Sultonov A. Ayolning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'rni. "Ayol–ma'naviyat gulshani" respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. –Jizzax, 2009. –B.44.

dek, yakka tartibda faoliyat yuritadigan 5 mingga yaqin tadbirkor xotin-qizlarga 8,8 milliard so‘m miqdorida kreditlar ajratildi. Ajratilgan kreditlar hisobiga 10 ming 483 nafarga yaqin ayol ish bilan ta’minlandi[242]. Bu borada xotin-qizlar uchun maqbul ish o‘rinlari yaratishda davlat jamg‘armasi hisobidan katta hajmdagi kreditlar ajratila boshlanganligi ham ijobiy ahamiyat kasb etdi. 2008-yilning birinchi yarim yilligida viloyatda chorva sohasini rivojlantirishga hissa qo‘shishga istagi bo‘lgan 45 nafar ayolga 49,5 million so‘mlik kredit berildi. Shuningdek, respublika miqyosida uyda chorva bilan band bo‘lgan 32 mingdan ortiq bo‘lgan ayollarga rasman mehnat daftarchalari berildi. Umuman, 2007-yil birinchi yarim yilligi davomida 908 nafar tadbirkor ayolga 3 milliard 46 million 800 ming so‘m miqdordagi mablag‘ tijorat banklari tomonidan ajratildi[243].

Davlat tomonidan tadbirkor ayollarning qo‘llab-quvvatlanishi, ularga kreditlar olishda va soliq to‘lashda imtiyozlarning yaratilishi respublika hududlarida tadbirkorlik xotin-qizlar sonining oshishiga, ammo ayrim mutasaddi rahbarlar va nazoratchilarning ta’magirligi hamda sun’iy to‘siqlarning mavjudligi ular faoliyatining susayishiga sabab bo‘ldi.

“Tadbirkor ayol” ishbilarmon ayollar uyushmasi Qashqadaryo viloyat bo‘limi rahbari Oynisa Ochilovaning ma’lumotlariga ko‘ra, 20 yil ichida, ya’ni 2012-yilga kelib, viloyatda tadbirkor ayollar soni 10 mingdan oshgan va chet ellik hamkorlar bilan ishlash yo‘lga qo‘yil-

[242] O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasining joriy arxiv ma’lumotlari. 2008 yil, 17-jild, 19-varaq.

[243] Akbarova F. Ayolga ehtirom – mustaqillik sharofatidan. “Ayol va mustaqillik” respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Toshkent, 2010. – B. 7.

gan. Qarshi tumanidan tadbirkor 2011-yilda "Yil ayoli" ko'rik tanlovining viloyat bosqichi g'olibi, hunarmandlik mahsuloti ishlab chiqaruvchi "Gulshan" xususiy firmasining rahbari Qunduz Karimova tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan ayollarga barcha sharoitlar yaratilganligini, "yildan-yilga savdo aylanmasidan olinadigan soliq hajmi tushib borayotganligini" ta'kidlaydi. Ammo yaratilgan shart-sharoitlarga qaramay, huquq himoyachilaridan Nodir Ahadov tadbirkor ayollarning huquqlari toptalayotgani va tadbirkorlik qilayotgan ayollar oldida ko'plab sun'iy qiyinchiliklar turgani haqidagi ma'lumotlarni, ya'ni tadbirkorlar pullarini bankka o'tkazishga majburligini va naqd pul olishda muammolarga duch kelayotganligini izohlaydi[244].

Jizzaxlik tadbirkor Matluba Yusupova o'z uyida milliy taomlar va pishiriqlar tayyorlab sotishni yo'lga qo'ygan edi. U tadbirkorlik faoliyati uchun sharoitlar yaxshi ekanligini ta'kidlagani holda, ammo tegishli organlarning ayrim xodimlari ta'magirligidan aziyat chekkanligini va o'zining tadbirkorlik faoliyatida chorasizlikdan noqonuniy ishlashga majbur bo'layotganligini bildiradi[245]. Bu kabi holatlar, ya'ni bir tomondan respublika hududidagi mahalliy hokimliklar moliyaviy vakolatlarining yo'qligi tufayli, ikkinchi tomondan yuqoridagi kabi qonun buzilishlarining mavjudligi mahalliy soliqlarning yig'iluvchanlik darajasining tushib ketishiga sabab bo'ldi, mahalliy byudjetlarda juda katta moliyaviy tanglikni keltirib chiqardi.

[244] Shodiyor Sayf "O'zbek tadbirkor ayollari soni oshmoqda ekan, sharoit yaratilganmi?(Elektron resurs). Kirish rejimi:https://www.bbc.com/uzbek(murojaat qilingan sana 7.10.2019).
[245] O'sha joyda.

Jahon banki har yili “Ease of Doing Business” reytingi bo‘yicha 181 ta mamlakatning holati haqida natijalarni e’lon qiladi. 2007–2008-yillarda O‘zbekiston erkin tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha 140 o‘rindan 138 o‘ringa ko‘tarilgan bo‘lsa, ish o‘rinlarini tashkil etish bo‘yicha 75 o‘rindan 76 o‘ringa tushib qolgan. Biznes sohasida korrupsiyani nazorat qilish bo‘yicha esa 172 o‘rindan 170 o‘ringa ko‘tarildi, soliq yuki bo‘yicha 161 o‘rindan 162 o‘ringa tushgan[246].

2012-yilning 1 yanvaridan boshlab, go‘sht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan mikrofirma hamda kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi stavkasi soliqqa tortishdan ozod etilgan mablag‘lar korxonalarni asosiy faoliyati bo‘yicha texnik qayta ishlash va modernizatsiyalashga yo‘naltiriladigan bo‘lsa, 50 foiz pasaytirildi[247].

Iqtisodiyotdagi soliq yuki darajasi umumiy ko‘rsatkich ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, iqtisodiyotning ayrim soha va tarmoqlaridagi nisbatan yuqori soliq yukini kamaytirish borasidagi amaliy ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir, soliq yukini kamaytirilishi bevosita soliq stavkalari va soliq bazasidagi o‘zgarishlarda o‘z ifodasini topadi. Xususan, 2014-yilda yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘i stavkasi 9 foizdan 8 foizga, jismoniy shaxslar daromad solig‘ining quyi stavkasi esa 8 foizdan 7,5 foizga pasaytirildi. Agar 1992-yilda korxonalarning foyda solig‘i stavkasi 45 foiz bo‘lgan bo‘lsa,

[246] Достижения и перспективы развития женского предпринимательства в Республике Узбекистан.Европейская Экономическая комиссия ООН– С.6 (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www.unece.org/ (murojaat qilingan sana 17.02.2019).

[247] Habibidinov X. Soliq imtiyozlari va preferentsiyalari kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik sub’ektlari rivojida rag‘batlantiruvchi omil bo‘lmoqda //Xalq so‘zi, 2016 yil 22 iyul.

2016-yilga kelib u 7,5 foizni tashkil etdi. Tegishli ravishda yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi shu davrda 40 foizdan 2 foizga, mikrofirma va kichik korxonalar uchun esa 15 foizgacha tushirildi[248].

2010-2015-yillarda ro‘yxatga olingan kichik biznes subyektlari (fermer va dehqon ho‘jaliklaridan tashqari) soni 193800 tadan 225998 taga etdi, sohaning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 1,8 barobar oshdi. 2010–2015-yillar davomida, ya’ni 5 yil ichida soliq yukini engillashtirilishi bilan bog‘liq islohotlar davom ettirildi. Natijada, mikrofirma hamda kichik korxonalar tomonidan to‘lanayotgan yagona soliq stavkasi 7 foizdan 5 foizga pasaytirildi[249].

2015-yilning 1 iyulidan boshlab kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga oid hamma rejali tekshiruvlar to‘rt yil davomida faqat bir marta o’tkaziladigan bo‘ldi. Agar biror bir tadbirkorlik subyekti soliqlarni o’z vaqtida to‘lamagan, uning bu harakati birinchi marta amalga oshirilgan, aybi aniqlanib, davlatga etkazilgan zarar 30 kun davomida to‘liq to‘lansa, respublikada amal qilayotgan Jinoyat kodeksining 184-moddasiga ko‘ra jinoiy javobgarlikka tortilmaydigan bo‘ldi. 2016-yildan boshlab, iqtisodiyot tarmoqlarida xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarda yagona soliq to‘lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizga tushirildi. Yagona soliq stavkasi joriy qilinib, Inqirozga qarshi choralar dasturiga asosan kichik biznes sohasida bir qator imtiyoz va preferensiyalar qo‘llanila boshlandi. Unga ko‘-

[248] Voronin S. Soliq tizimidagi yangilanishlar (tadbirkorlik rivojida hal qiluvchi o‘rin tutadi//Xalq so‘zi, 2017 yil 11 iyul.

[249] Habibidinov X. Soliq imtiyozlari va preferentsiyalari kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik sub’ektlari rivojida rag‘batlantiruvchi omil bo‘lmoqda //Xalq so‘zi, 2016 yil 22 iyul.

ra jismoniy shaxslarning mikrofirma hamda kichik korxonalarni ta'sis etishdan oladigan dividend ko'rinishidagi daromadlari, yuridik shaxslarning kapitallashuviga, investitsiyalarga, ilgari olingan kreditlar bo'yicha hisob-kitob qilishga yo'naltirilgan mablag'lari besh yil davomida soliqdan ozod qilindi[250].

O'zbekistonda soliq yukining umumiy ko'rsatkichi davlat byudjetining maqsadsiz fondlariga nisbatan 2017-yilda o'rtacha 19,5 foizini tashkil etdi. 2018 yilgi dastlabki natijalarga asosan, o'rtacha 18,5 foiz atrofida bo'ldi. Mavjud holatni yaxshilash maqsadida yangi soliq konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unga asosan soddalashtirilgan soliqqa tortish mexanizmi ishga tushdi. Yillik aylanmasi 1 milliard so'mdan yuqori bo'lib, ilgari soddalashtirilgan tartibda soliq to'layotgan kichik korxonalar umumbelgilangan tartibda soliq to'lashga o'tkazila boshlandi[251].

Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari o'rtacha 30 foizga pasaytirildi va tadbirkorlik subyektlarini faoliyat ko'rsatayotgan joyiga qarab tabaqalashtirish kengaytirildi[252].

Bugungi kunda jahondagi eng mashhur "Adidas", "Neyk", "Indezit", "Knauf" kabi brendlar ham o'z vaqtida kichik oilaviy korxona bo'lgan, davlat tomonidan ko'rsatilgan rag'bat tufayli yirik kompaniyalarga aylangan. 2018-yilda respublikadagi mavjud korxonalarning qariyb 19 mingdan ortig'i yoki 15,8 foizi 1 milliard. so'mdan ziyod

---

[250] O'sha joyda.

[251] Hudoyqulov S. Soliq sohasidagi o'zgarishlardan kim qanday naf ko'radi//Xalq so'zi, 2019 yil 13 mart.

[252] Hasanov G'. Soliq qonunchiligiga 2018 yildan kiritilayotgan yangiliklar(Elektron resurs). Kirish rejimi:http:// kommersant.uz/uztag/soli (murojaat qilingan sana 15.02.2018).

aylanmaga ega, 101,8 mingtasi yoki 84,2 foizi esa 1 milliard so'mdan kam aylanmaga ega soliq to'lovchilardir. 19 mingdan ortiq kichik biznes subyektlarining umumbelgilangan soliq to'lash tartibiga o'tkazilishi adolatli soliqqa tortishning mohiyatini ifodalaydi[253].

O'zbekistonda 2018-yilgi Davlat byudjeti daromadlarida 30 foizgacha bo'lgan yuqori daromad solig'i stavkasi qo'llanilganda soliq tushumlari 6 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilgi Davlat byudjetiga, garchi soliq stavkalari keskin kamaytirilgan bo'lsa-da, ushbu soliq bo'yicha 11,5 trillion so'm kelib tushishi kutilmoqda. Soliyoq ma'murchiligini takomillashtirish ham bugungi kunda e'tiborga molik masalaga aylandi. Masalan, oxirgi 20 yil davomida Davlat byudjeti prognoz ko'rsatkichlari o'rtacha 3-3,5 trillion so'mdan ortiq bo'lgani holda, 2018-yilda davlat byudjetiga soliq tushumlari prognoz ko'rsatkichi qariyb 12,5 trillion so'mdan ziyodi bilan bajarildi. Bu avvalgi yillarga nisbatan o'rtacha 4 marta ko'pdir[254].

2017-yilda amaldagi soliqqa tortish tizimida tadbirkorlik faoliyatiga tegishli aytarli o'zgarishlar yuz bergani yo'q. Tadbirkorlik subyektlari to'laydigan asosiy soliq stavkalari, majburiy to'lovlar 2016-yil rejasida qoldi. 2017-yilning 1-yanvaridan boshlab, fuqarolarning byujetan tashqari pensiya jamg'armasiga o'tkazadigan sug'urta badallari 7,5 foizdan 8 foizgacha ortdi[255]. 2018-yilda soliqlarning prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan hududlarda 5,5 trillion so'm qo'shimcha mablag'

[253] Hudoyqulov S. Soliq sohasidagi o'zgarishlardan kim qanday naf ko'radi //Xalq so'zi, 2019 yil 13 mart.
[254] O'sha joyda.
[255] Voronin S. Soliq tizimidagi yangilanishlar (tadbirkorlik rivojida hal qiluvchi o'rin tutadi//Xalq so'zi, 2017 yil 11 iyul.

qoldirildi. Bu viloyat, tuman, shaharlarni rivojlantirish, aholini qo'llab-quvvatlash, maktablar, bog'chalar, zavodlar qurish, tibbiy xizmat sifatini oshirish ishlari uchun 2017-yildagiga nisbatan 6 barobar, 2016-yildagiga qaraganda 32 barobar ko'p mablag' sarflanadi deganidir[256].

Eski soliq tartibi soliq to'lovchilar manfaatlariga mos kelmasdi, aksincha ularga ko'proq moliyaviy zarar keltirib, ularning raqobatdosh, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishiga yo'l bermasdi. Natijada ular soliq to'lamaslik kayfiyatini kuchayishiga, oxir oqibat soliq madaniyati darajasiga pasayishiga sabab bo'ldi[257].

Mustaqil rivojlanishning butun davri mobaynida iqtisodiyot kelajagini ta'minlaydigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar, imtiyoz va preferensiyalar yaratish, har tomonlama ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Ana shu hayotiy tamoyillar asosida olib borilgan keng ko'lamli ishlar tufayli xalqning qon-qoniga singib ketgan tadbirkorlik nafaqat qayta tiklandi, balki yangicha ma'no-mazmun bilan boyib, respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yanada yuksak bosqichga ko'tarishga xizmat qilayotgan asosiy kuchga aylandi.

Darhaqiqat, ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlari yaratish, shu asosda aholi daromadlarini ko'paytirish hamda farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tobora muhim rol o'ynamoqda. Soha vakillariga qo'shimcha imtiyoz hamda preferensiyalar, xususan,

[256] Hudoyqulov S. Soliq sohasidagi o'zgarishlardan kim qanday naf ko'radi//Xalq so'zi, 2019 yil 13 mart.
[257] O'sha joyda.

soliq imtiyozlari berilayotgani muvaffaqiyatlarni yanada mustahkamlamoqda[258].

Olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri – bu soliq siyosatini yanada liberallashtirish, soliqqa tortish tartibini soddalashtirish, soliq yukini pasaytirish, xo'jalik subyektlarining huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning moliya-xo'jalik faoliyatiga noqonuniy aralashishga chek qo'yish bo'yicha choralar majmuini amalga oshirish hisoblanadi.

Iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari ta'minlanishida soliq yuki bosqichma-bosqich pasaytirilayotgani muhim omil bo'ldi. Hozirgi paytda ko'plab mamlakatlarda korxona hamda muassasalar foydasidan olinadigan soliq stavkasi o'rtacha 12,5-39,5 foizni tashkil etayotgan bo'lsa, O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich 1995–2016-yillar mobaynida 38 foizdan 7,5 foizga tushirilganligi e'tiborga molik jihatdir[259]. Soliq stavkasining bunday sezilarli darajada pasaytirilishi xo'jalik subyektlari uchun ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, aylanma mablag'larni ko'paytirish, mahsulot tayyorlash va xizmatlar eksportini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratishda moliyaviy madad bo'lmoqda. Bundan tashqari u soliqqa tortish bazasini kengaytirish, soliq to'lashdan bosh tortish hamda daromadlarni yashirish darajasini kamaytirish, yig'ilayotgan soliqlarning to'liqligini ta'minlash imkonini bermoqda.

---

[258] Habibidinov X. Soliq imtiyozlari va preferentsiyalari kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik sub'ektlari rivojida rag'batlantiruvchi omil bo'lmoqda //Xalq so'zi, 2016 yil 22 iyul.

[259] Habibidinov X. Soliq imtiyozlari va preferentsiyalari kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik sub'ektlari rivojida rag'batlantiruvchi omil bo'lmoqda //Xalq so'zi, 2016 yil 22 iyul.

Oldin amalda bo‘lgan soliq tartibi ish beruvchi kichik korxona egalari va tadbirkorlarga o‘z xodimlariga maosh to‘lashlarida ham qiyinchiliklar tug‘dirardi. Xodimga to‘lanadigan 1 million so‘m maoshdan 300-450 ming so‘mgachasi soliqqa olinardi. Shuning uchun korxona rahbarlari xodimlari sonini yashirib, ular maoshini “konvertda” berar edi. Natijaga ko‘ra, bugungi kunda respublikada 13 milliondan ortiq mehnatga yaroqli fuqarolarning ish haqidan soliq to‘laydiganlar soni 4,6 million tashkil qilmoqda, bu xolat davlat byudjetiga ham katta zarar keltirmoqda[260].

Yangi soliq konsepsiyasi oldingi soliqdagi kamchiliklarga ham barham berdi, jismoniy shaxslar endilikda 12 foizlik stavkada daromad solig‘i to‘laydigan bo‘ldi, jahon soliq tizimida bu ko‘rsatkich o‘rtacha 20 foizni tashkil qiladi[261].

Natijada, hozirda respublikada yuridik shaxs sifatida emas, balki yakka tartibda tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun davlat ro‘yxatdan o‘tayotgan tadbirkorlar ko‘paydi. 2018-yilda yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 199 974 ta bo‘lib, 2017-yilga nisbatan ular soni 34 830 taga ortgan[262]. Chunki yuridik shaxslarning soliq to‘lovi moliya-xo‘jalik faoliyati natijalariga qarab olingan bo‘lsa, foliyat ko‘rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar qat’iy belgilagan soliqni to‘laydi.

Ayniqsa, kollejlarni tamomlagan yoshlar o‘n ikki oy davomida yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyatini

[260] G‘ofurov B. Soliq kontseptsiyasi: fuqaroga, biznesga, jamiyatga nima beradi?//Xalq so‘zi, 2018 yil 1 avgust.

[261] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi to‘g‘risida”gi 2019 yil 2 iyuldagi Farmoni(Elektron resurs). Kirish rejimi: http://uza.uz> society(murojaat qilingan sana 5.09.2019).

[262] Soliq qonunchiligigiga oid 2018 yil ma’lumotlari (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www.httsp:/me/kmrsnt.uz(murojaat qilingan sana 12.03.2019)

boshlab, davlat ro'yxatidan o'tsa, olti oydan keyingina soliq to'laydigan bo'ldi[263].

Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 31-iyuldagi 219-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida" Nizomda yakka tartibdagi tadbirkorlar hodim yollash bo'yicha berilgan engilliklardan foydalanadi[264].

Nogironligi bo'lgan fuqarolarni tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun ham sharoitlar yaratilgan va soliq to'lashda engilliklar mavjud. Ular faoliyatiga huquqiy asos O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-sonli Farmonidir[265].

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq to'lovlarida yanada engilliklar yaratish va soliq yukini ko'proq kamaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi, unga ko'ra belgilangan soliq stavkalari o'rtacha 30 foizga pa-

---

[263] Saidov K. Davlat soliq qo'mitasi yangiliklari (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www.httsp:/me/kmrsnt.uz(murojaat qilingan sana 12.03.2019).

[264] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 iyuldagi "Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 219-sonli qarori (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www.httsp:/me/kmrsnt.uz(murojaat qilingan sana 3.05.2018).

[265] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 1 dekabrdagi PF-5270-sonli Farmoni (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www.lex.uz.docs.(murojaat qilingan sana 12.03.2019).

saytirilishi ta’minlandi hamda tadbirkorlar hududga qarab soliqqa tortiladigan bo‘ldi[266].

Mazkur imtiyoz va preferensiyalar mamlakatda xotin-qizlar tadbirkorligini jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish, sohani yanada rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, yangi ish o‘rinlari ochish, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari bo‘lgan qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etishni rag‘batlantiradi.

Hunarmandchilikning milliy tarmog‘i bo‘lgan zargarlik sohasida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2018-yil 1-yanvardan chakana savdoga chiqarilgan zargarlik buyumlari uchun aksiz solig‘i bekor qilindi. 2020-yilgacha zargarlik buyumlari ishlab chiqaruvchilar zargarlik buyumlar sotilishida, jumladan eksport qilishda, aksiz solig‘i va qo‘shimcha qiymat solig‘idan ozod etildi, tejab qolingan mablag‘larni ishlab chiqarishni qayta tiklash va modernizatsiyalashga yo‘naltirish ko‘zda tutildi[267].

Tadbirkorlik rivojidagi yana bir yangilik shu bo‘ldiki, endilikda tadbirkorlik subyektlari sifatida xotin-qizlar ham 5 ming dollargacha qiymatga ega bo‘lgan, ko‘rgazmaga mo‘ljallangan tovarlarni xorijga bemalol olib chiqish mumkin. Endi buning uchun eksport kontraktini tuzish va bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirish shart emas. Tovarlarga tegishli hujjatlar bo‘lsa, etarli. Tovarlarni sotgach, tadbirkorlar mablag‘ni O‘zbekistondagi

[266] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 29 dekabrdagi 3454-sonli qarori(Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www.lex.uz.docs.(murojaat qilingan sana 12.03.2019).

[267] Hasanov G‘. Soliq qonunchiligiga 2018 yildan kiritilayotgan yangiliklar(Elektron resurs). Kirish rejimi:http:// kommersant.uz/uztag/soli (murojaat qilingan sana 15.02.2018).

tijorat banklaridagi hisob raqamlariga o‘tkazishlari yoki naqd holda olib kirishlari mumkin[268].

Endilikda zargarlik buyumlarini tayyorlash uchun litsenziya talab qilinadi. Davlat proba palatasi beradigan ro‘yhatga olinganligi to‘g‘risidagi guvohnoma endi amal qilmaydi. Uning o‘rniga 2017-yil 1-oktyabrdan yuridik shaxslar va hunarmand tadbirkorlar zargarlik buyumlari ishlab chiqarishga litsenziya oladilar. Litsenziyalar faqat “Yagona darcha” markazlari yoki YAIDXP (yagona interaktiv davlat xizmatlari partali) orqali beriladi[269].

2018-yil 1-yanvardan soliq nazoratining yangi shakli paydo bo‘ldi – soliq monitoringi. Shuningdek, yil boshidan kameral nazorat natijalari bo‘yicha aniqlangan soliq summasini, agar soliq to‘lovchi asoslar taqdim etmasa, sud tartibida undirish joriy etildi, ortiqcha to‘langan soliqlarni qaytarish yoki qayta hisoblash 15 ish kuni ichida amalga oshiriladi[270].

Davlat soliq xizmati idoralari kirim hujjatlarini rasmiylashtirmay xizmatlar sotayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar hisob raqamlari bo‘yicha amaliyotlarni 5 bank ish kunigacha vaqtinchalik to‘xtatib turishlari mumkin. Savdo nuqtalarida soliq idoralariga hisob-kitoblar to‘g‘risidagi ma’lumotni darhol etkazuvchi nazorat-kassa mashinalari o‘rnatiladi.

Soliq tekshiruvlari obyektlarini samarali tanlash, shuningdek soliq idoralari tomonidan yuqori likvidli mahsu-

---

[268] Ziyaeva D. Biznesga oid qonunlargaqisqacha izoh(Elektron resurs). Kirish rejimi: http:// kommersant.uz/uztag/soli (murojaat qilingan sana 15.02.2018).

[269] Hasanov G‘. Soliq qonunchiligiga 2018 yildan kiritilayotgan yangiliklar(Elektron resurs). Kirish rejimi:http:// kommersant.uz/uztag/soli (murojaat qilingan sana 15.02.2018).

[270] O‘sha joyda.

lot ishlab chiqarilishi amaldagi hajmini doimiy hisobga va nazoratga olish uchun soliq sohasidagi qonunbuzarliklarni amalga oshirish xatarini tahlil etishning maxsus avtomatlashtirilgan tizimi tatbiq etiladi.

Vaqtinchalik moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan halol soliq to‘lovchilar ikki yillik soliq ta’tilini olishlari mumkin. Halol soliq to‘lovchilarga keyingi ikki yil davomida o‘z vaqtida va to‘liq miqdorda soliq to‘lab kelgan soliq to‘lovchilar kiradi.

Soliq kodeksining 47 ta moddasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi, xususan, halol soliq to‘lovchilarga soliq solishga doir masalalarni hal etish, ular va soliq organlari o‘rtasida kengaytirilgan axborot almashuvini nazarda tutadigan soliq monitoringini olib borish imkonini beradi[271].

[271] Hasanov G‘. Soliq qonunchiligiga 2018 yildan kiritilayotgan yangiliklar(Elektron resurs). Kirish rejimi:http:// kommersant.uz/uztag/soli (murojaat qilingan sana 15.02.2018).

3.2. Xotin-qizlarning kichik biznes va tadbirkorlik sohasidagi faoliyatlarining tarixiy-sotsiologik tahlili

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik sohasini rivojlantirish uchun qulay imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilib, tadbirkorlar manfaatlarini himoya qiluvchi huquqiy asoslar tizimli hamda tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratishda, soliqqa tortishda engilliklar bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Bugungi kunda O‘zbekiston xotin-qizlarining barcha sohalarda qator yutuqlarni qo‘lga kiritishlarida bu boradagi davlat siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Er yuzidagi xotin-qizlarning 0,4 foizi O‘zbekistonda istiqomat qiladi[272], ular respublika aholisining 49,9 foizini tashkil etadi[273]. Xususan, “...mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda

[272] Счетчик населения Узбекистана: Департамент по экономическим и социальным вопросам. (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://countrymeters.info/ru/Uzbekistan (murojaat qilingan sana 12.03.2019)
[273] O‘zbekiston aholisi soni haqida yangi ma’lumot (Elektron resurs). Kirish rejimi: http://kun.uz>news>2019/04/23 (murojaat qilingan sana 12.05.2019)

mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 ming 400 ga yaqin ayollar rahbarlik lavozimlarida, ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati bo'lib, 1 ming 75 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritmoqda. Bugungi kunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida 8 mingdan ziyod ayollar xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassis lavozimida faoliyat yuritmoqda"[274].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomoni "Oxirgi ikki yilda xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb etish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida kreditlar ajratish hajmi 2 barobar oshirilganligi, agar 2014–2016-yillarda tijorat banklari tomonidan xotin-qizlarga tadbirkorlik uchun jami 3 tril. 800 milliard so'm kredit ajratilgan bo'lsa, birgina 2018-yilning o'zida esa bu ko'rsatkich 3 tril. 361 milliard so'mni tashkil etganligi", e'tirof etildi[275].

Shu bilan birga, yangi tashkil etilgan Xotin-qizlarni va oilani har tomonlama qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'lari hisobidan yillik to'lovi 7 foiz bo'lgan imtiyozli kreditlar berish tizimi joriy etildi. Bu maqsadlar uchun 2018-yili 50 milliard so'm ajratildi. Bu esa ayollarning oiladan, farzand tarbiyasidan ajralmagan holda, hunarmandlik, kasanachilik, tomorqa xo'jaligi bilan shug'ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratib berishga xizmat

[274] Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqi //Xalq so'zi, 2018, 7 mart.
[275] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali marosimdagi nutqi //Xalq so'zi, 2019, 7 mart.

qiladi. Xotin-qizlar qo'mitasi tashabbusi bilan joylarda 2018-yilda 2 mingdan ziyod kichik sex tashkil etilib, 18 mingga yaqin xotin-qizlar ish bilan ta'minlandi[276].

O'tgan davr mobaynida Respublika hukumati tomonidan O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va uning xududiy bo'linmalari, shu bilan birga ayollar tadbirkorligiga ko'mak beruvchi qator jamoat tashkilotlari faoliyatlariga alohida e'tibor qaratildi. 1995-yildan O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi raisiga Bosh vazir o'rinbosari, joylardagi Xotin-qizlar qo'mitalari raislariga hokim o'rinbosari vakolatlarining berilishi, 2000-yildan mikrokredit berish tizimining yo'lga qo'yilishi, 2004-yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga bo'ladigan saylovlarda xotin-qizlar uchun 30 foizlik kvotaning saylov qonunchiligiga kiritilishi, siyosiy partiyalar "Ayollar qanoti" faoliyatining boshlanishi, 2012 yildan boshlab O'zLiDeP "Ayollar qanoti"ning tadbirkorlarga moliyaviy ko'mak berishga qaratilgan "Oilaviy tadbirkorlikdan – mustahkam oilaga loyihasi"ning yo'lga qo'yilishi, ayollar manfaatlariga xizmat qiluvchi jamoat tashkilotlari faoliyatining mamlakat doirasidan chiqib xalqaro hamkorlikda muvaffaqiyatli harakatni yo'lga qo'yayotganligi, BMT ning tashabbusi bilan 2014-yildan boshlab "Xalqaro ayollar tadbirkorligi kuni" sifatida 19 noyabrning 144 ta mamlakatda nishonlanishi, O'zbekistonda esa 2016-yildan boshlab har yili 19 noyabr "Ayollar tadbirkorligi kuni" sifatida nishonlanib kelinayotgani, tadbirkorlar huquq va manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida

[276] O'sha joyda.

Biznes-ombusman institutining joriy etilishi, "Har bir oila – tadbirkor davlat dasturi"ning qabul qilinishi va tadbirkorlarga, xususan tadbirkorligini boshlamoqchi bo'lgan ayollarga imtiyozli kreditlar berishning tizimli yo'lga qo'yilishi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi muassisligida Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondining tashkil etilishi, yoshlar tarbiyasiga oid Prezident tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning beshinchi yo'nalishi – xotin-qizlar bandligini ta'minlashga qaratilganligi va nihoyat 2019-yilda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish to'g'risida"gi va "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunlarning imzolanishi shular jumlasidandir[277].

1991–2019-yillarda O'zbekistonda xotin-qizlarning kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ishtirokini tadqiq etish jarayonida Respublika Prezidenti administratsiyasi arxivi va uning Andijon viloyati bo'limi, O'zbekistoni Milliy arxivi hujjatlari, Respublika statistika qo'mitasining ma'lumotlari, ayollar manfaatlarini himoya qiluvchi nodavlat notijorat tashkilotlarning joriy arxiv materiallari o'rganildi, ularning rahbarlari bilan bevosita muloqotlar qilindi, tadbirkor-fermer ayollar bilan bo'lgan suhbatlar, qolaversa, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazining so'rovnomalari hamda O'zLiDeP bilan hamkorlikda respublika xududlaridan tanlab olingan

[277] O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish to'g'risida"gi 2019 yil 2 sentyabrdagi 561-sonli va "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi 562-sonli Qonunlari(Elektron resurs). Kirish rejimi: http://lex.uz> docs(murojaat qilingan sana 12.05.2019).

300 nafar tadbirkor ayollar bilan o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalari sinchiklab o‘rganildi. To‘plangan tajribani umumlashtirib, mavjud masalani ilmiy-tarixiy va sotsiologik jihatdan tahlil qilishda mustaqillik yillarida xotin-qizlarning kichik biznes va tadbirkorlik sohasidagi faoliyatlari shartli ravishda 3 ta davrga bo‘lindi:

1.Mustaqillikning 1991–2000-yillarida xotin-qizlarning kichik biznes va tadbirkorlik sohasidagi faoliyatlarining dastlabki davri.

2. 2000–2009-yillar xotin-qizlar tadbirkorlik faoliyatidagi jiddiy o‘zgarishlar davri.

3.2009-2019-yillar xotin-qizlar tadbirkorligi faollashgan davr.

Mustaqillikning 1991–2000-yillarda xotin-qizlarning kichik biznes va tadbirkorlik sohasidagi faoliyatlarini tadqiq etishda respublikada tadbirkorlikka keng yo‘l ochish maqsadida o‘tkazilgan xususiylashtirish islohotlari natijasida ko‘plab savdo, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish, mahalliy sanoat korxonalarining yopilishi mamlakatda ishsizlik muammosini keltirib chiqarganligi, aholining asosiy qismi qishloqlarda istiqomat qilganligi sababli mavjud ishchi kuchini ish bilan ta’minlash muammosi shaharga nisbatan qishloqda yuqori bo‘lganligi, xususan 1994-yilga kelib, 3,6 million nafar qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan mehnatga yaroqli aholining deyarli 2,2 million nafari ish bilan band bo‘lmaganligi aniqlandi[278]. Ayniqsa, ishsizlik erkaklarga nisbatan xotin-qizlar o‘rtasida yuqori bo‘lib, ishdan bo‘shatilgan xotin-qizlarning deyarli yarmi mehnatga layoqatli har xil sohadagi muta-

[278] Karimov I. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.Toshkent: O‘zbekiston, 1996, 3-jild –B.116.

xassislar edi. 1996-yilda ishdan bo‘shatigan xotin-qizlarning ma’lumotlilik darajasi: oliy – 6 foiz, o‘rta maxsus – 19 foiz, umumiy o‘rta – 62 foiz, to‘liqsiz o‘rta – 13 foiz bo‘lgan. Ishsiz xotin-qizlar orasida 18 yoshgachalar – 14 foizni, 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lganlari – 49 foizni, 30 yoshdan 50 yoshgacha esa – 35 foizni, pensiya yoshiga etib qolganlar – 2 foizni va qolgan boshqalar – 0,5 foizni tashkil etgan. Taxlillarga ko‘ra, ishsiz ayollarning asosiy qismi 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan ayollar bo‘lib, ularning ko‘pchiligi o‘rta ma’lumotga ega edi[279].

Bu davrda respublikada ishsizlik muammosi va iqtisodiy ehtiyoj tufayli ko‘plab fuqarolarning xorijiy davlatlarda ishlash uchun chiqib ketish holatlari kuchaydi. Dastlab xorijga erkaklar ish qidirib ketgan bo‘lsalar, keyinchalik xotin-qizlardan chetga chiquvchilar soni ortdi. Oila boshlig‘i ota yoki onaning oiladan uzoqlashishi natijasida farzandlar tarbiyasida ko‘plab muammolar yuzaga chiqdi:

- ota-onasi xorijga ketgan farzandlar ayni mehr va e’tiborga muhtoj paytida buvilar yoki yaqin qarindoshlar qaramog‘ida qolishi o‘smirlar tarbiyasiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatdi;

- xorijga ishga ketgan fuqarolarning ko‘pchiligi noqulay yashash sharoitlarida, erto‘lalarda yoki bir xonada 7-8 kishi kun kechirishga majbur bo‘ldilar;

- oilasidan uzoqda bo‘lgan erkaklarning tartibsiz hayot kechirishi natijasida turli (OITS) kabi yuqumli kasalliklar ko‘paydi;

---

[279] “O‘zbekistonda xotin-qizlarning ahvoli” haqidagi ma’ruza. BMTRD (Birlashgan Millatlar tashkiloti Rivojlanish dasturi) “Gender va rivojlanish” byurosining tashabbusi bilan O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan iqtisodiy tadqiqotlar markazi va “Gender va taraqqiyot” RBEC/UNDP regional dasturi. – Toshkent, 1999. – B.51.

- ayrim erkaklarning oiladan uzoqlashgach, oilasi, farzandlari oldidagi burchlarini unutib qo'yishlari natijasida oilalar emirildi, oilani boqish majburiyati faqat ayol kishi zimmasiga tushgan noto'liq oilalar ko'paydi;

- chetga chiqqan fuqarolar, ayniqsa ayollar o'zlari bilmagan holda odam savdosi qurboniga aylanish holatlariga duch kelishdi[280].

Qishloqda tadbirkorlikni rivojlantirish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar va maishiy xizmat ko'rsatish sohasidagi xususiy faoliyatga ko'maklashish orqali qishloqda ishsizlikni kamaytirish mumkin edi. Shu maqsadda, 1993-yilda tashkil etilgan kichik biznes va tadbirkorlikka ko'maklashuvchi jamg'arma, 1995-yildan esa xususiy tadbirkorlikni va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi – Biznes Fondga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish va rag'batlantirish to'g'risida"gi 1994-yil 5-yanvardagi Farmoniga asosan davlat mulkini xususiylashtirishdan tushadigan mablag'ning 50 foizgacha miqdori xususiy tadbirkorlar loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun ajratildi[281]

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida 1995-yildan boshlab Prezident sovrini uchun "Tashabbus" ko'rik-tanlovi"ni o'tkazish yo'lga qo'yildi. "Tashabbus – 95" ko'rik tanlovi 1994-yil dekabr oyidan boshlanib, 1995-yil mart oyiga qadar davom etgan. Tanlovda o'z faoliyatida alohida yutuqlarga erishgan, original loyihalarga ega bo'lgan kichik va o'rta korxona, fermer xo'jaliklarining rahbarlari qatnashdilar.

---

[280] O'zMA. M-67-jamg'arma, 1-ro'yxat, 40-yig'ma jild, 1-varaq.

[281] O'zMA. M-67-jamg'arma, 1-ro'yxat, 43-yig'ma jild, 24-varaq. Biznes fondni Tashabbus-95 konkursi hujjatlari (bayon, karor, Nizomlari) 1995-1996 y.

"Tashabbus – 95" ning dastlabki bosqichida viloyat, tuman, shahar bosqichida jami 1110 nafar tadbirkor qatnashib, ulardan 132 nafari respublika bosqichiga yo'llanma olgan. "Yil loyihasi"da – 88 nafar tadbirkordan 1-, 3-o'rinni egallagan uch nafari pul mukofotlari olgan. "Yil biznesmeni"da – 44 nafar tadbirkordan g'olib bo'lgan uch nafariga 5, 3, 1 million so'm miqdorida imtiyozli kreditlar berilgan[282].

Biznes-Fond tomonidan 1996-yil 1-yanvarga qadar 548 nafar tadbirkorga, ularning 145 nafari xotin-qizlar bo'lib, 577,4 million so'm miqdorida kreditlar ajratildi, shundan 119 million 500 ming so'mi esa hududiy boshqarmalar tomonidan loyihalarni sarmoya bilan ta'minlash maqsadida berilib, bir kreditning o'rtacha miqdori deyarli 1 million.so'mga to'g'ri kelgan. Kreditlar asosan: qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga – 28 foiz, fermer ho'jaliklarini rivojlantirishga – 18 foiz, mahalliy sanoatni rivojlantirishga – 26 foiz va maishiy xizmat ko'rsatishga – 14 foiz ajratilgan[283]. Biroq, 1994–1995-yillarda Namangan, Jizzax, Navoiy, Sirdaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi 287 ta fermer xo'jaligi o'z faoliyatini to'xtatganligi, 1995-yilda ro'yxatga olingan 6,3 ming korxona hisob-kitob ishlarida hech qanday harakatlar amalga oshirilmaganligi kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar kutilgan natijani bermaganligini ko'rsatdi[284].

1997-yillarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi barcha to'siqlarga barham berish, jamiyatda

[282] O'zMA. M-67-jamg'arma, 1-ro'yxat, 43-yig'ma jild, 54-varaq.
[283] O'sha joyda.
[284] Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza. Toshkent: O'zbekiston, 1996, 3-jild.– B.120.

mavjud ta'magirlik, poraxo'rlik illatlariga qarshi choralar tizimi ishlab chiqilsa-da, 1999-yilda O'zbekistondagi kichik korxonalar faoliyatida, xususan xotin-qizlar tadbirkorligida sustkashlik holatlari davom etdi, tadbirkorlik sohasidagi faoliyatlari kutilgan darajada rivojlanmadi, xotin-qizlar bandligini ta'minlashga korxonalar o'z imkoniyatlarini to'liq safarbar qila olmadi.1998-yilda ayollarning ish bilan ta'minlanganlik holati o'rganilganda, Surxondaryo viloyatida – 34,8 foiz, Andijon viloyatida – 49,1 foiz, birgina Namangan viloyatida 85,2 foizni tashkil etgani ma'lum bo'lgan[285], Ayollar bandligining eng yuqori ko'rsatkichlari – Andijon, Farg'ona, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida aniqlangan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar esa Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida kuzatilgan[286]. 1998-yili ishdan mahrum bo'lgan ayollarning aksariyat qismi ishsizlar sifatida qayd etilgan bo'lib, ularning 64 foizga yaqini ishsizlik bo'yicha nafaqa olgan[287]. Bu davr mustaqillikning dastlabki eng og'ir yillari, 1991–2000-yillar kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining tashkil bo'lishi va faoliyatlarining barqarorlashuvi davri bo'lib, ko'plab kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari, jumladan tadbirkor ayollar faoliyatlarida uzilishlar kuzatiladi. Bu davr uchun xos xususiyatlar sohadagi tebranishlar, ko'plab korxona egalari faoliyatlarining to'xtab qolishi, aksariyat hollarda

[285] Женщины и мужчины Узбекистана – 2007. Статистический сборник / Отв. Редактор М. Захидова. – Ташкент: CHASHMA PRINT, 2010. – B.158

[286] O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining joriy arxivi materiallari, 2000 yil, 19-jild, 3-varaq.

[287] O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining joriy arxivi materiallari. JЖенщины в Республике Узбекистан.Азиатский Банк Развития. Департамент Программ Социального Развития и Окружающей Среды Восток. Краткий информационный доклад, – Тошкент, 2001, февраль. – С.43.

tajribasizlik va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish holatlari, moliyaviy qiyinchiliklar, kredit olish imkoniyatlarining cheklanganligi, imtiyozlarning tadbirkorlar uchun to‘g‘ri yo‘naltirilmaganligi, soliqlarning tadbirkorlar uchun manfaatli emasligi, bozor talablarini to‘g‘ri tushunmaslik, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini sotib olish imkoniyatining etarli darajada emasligi hamda mavjud byurokratik to‘siqlardir.

Lekin, qiyinchiliklarga qaramasdan, tadbirkor ayollar orasida o‘z faoliyatlarini davom ettirish ishtiyoqi baland bo‘lganlari ham ko‘pchilikni tashkil qildi. Ular o‘z maqsadlari yo‘lida qat’iyat bilan harakat qilib, bugungi kunda faoliyatlarida samarali natijalarni qo‘lga kiritdilar va qiyinchiliklardan kerakli tajriba hosil qildilar.

Hozirda tadbirkorlikning ta’lim va kasbga tayyorlash sohasida respublikada muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotgan Toshkent shahridagi “Mashhura” xususiy korxonasi, ya’ni o‘quv markazi o‘z faoliyatini 1994-yilda boshlagan. Oliy ma’lumotli pedagog Mashhura Yusupova korxona rahbari sifatida muassasa o‘quv kurslarida qizlarni oilaga tayyorlash, kasbga yo‘naltirish bo‘yicha ta’lim berishni tashkil etgan. Dastlab faqatgina ikkita yo‘nalishda, ya’ni pazandachilik va tikuvchilik yo‘nalishida o‘z faoliyatini boshlagan markaz, bugungi kunga kelib, 30 ta yo‘nalishda ta’lim dasturlarini amalga oshiradi. Shuningdek, abiturientlar uchun tayyorlov kurslari, tilga o‘qitish, maktabgacha tayyorlov kurslari, o‘z tadbirkorligini boshlovchilar uchun “Avlod-21” biznes akademiyasi ochilgan. Akademiyada tadbirkorlik bo‘yicha korxona ochmoqchi bo‘lgan ayollarga “0

dan 7 qadam" 1 oylik o'quv kurslar tashkil etilgan bo'lib, biznes yuritish bo'yicha konsalting xizmatlari ko'rsatiladi[288].

1995–2000-yillarda "Mashhura"ning Namangan, Samarqand, Buxoro viloyatida 3 ta filiali ochilib, 2017-yilda Andijon, Angren, Shaxrisabz filiallari qo'shilgan va ta'lim yo'nalishlari kengaygan.

O'quv binosi uchun joyni ijaraga olib faoliyat boshlagan markaz, 2000-yilda daromadiga qo'shimcha 30 million so'm kredit olish hisobiga shaxsiy bino sotib olgan. 2004-yili "Mashxura" o'quv markazi filiallar faoliyatini kengaytirish uchun 525 million hajmda kredit olgan va filial binolarini qurish ishlarini amalga oshirgan[289].

Xotin-qizlarning tadbirkorlik sohasidagi faoliyatlarini boshlashlari va kengaytirishlari uchun imtiyozli kreditlarga ega bo'lishlarida nodavlat notijorat tashkilotlari ham muhim rol o'ynadi. Jumladan, 2004-yilda O'zLiDeP "Ayollar qanoti"ning bevosita yordami bilan 97 nafar tadbirkor ayolga jami 366,6 million so'm miqdorida imtiyozli kreditlar berildi[290].

2019-yil Andijon shahrining Eski shahar hududida qurilgan "Mashhura" o'quv markazi filialining 4 qavatli binosini korxona o'z daromadi hisobidan 5 yil davomida qurib bitkazib, uni o'zaro tuzilgan hamkorlik shartnomasiga asosan nafaqadagi pedagog Zamiraxon Tillaeva kelini Ra'no Tillaeva bilan birgalikda boshqarib kelmoqda. Viloyatlarda ishni yo'lga qo'yish uchun bo'lajak kadrlar Toshkentda 3

[288] "Mashhura" xususiy korxonasi rahbari M.Yusupova bilan 2019 yil 14 martdagi intervyuda olingan ma'lumot.
[289] "Mashhura" xususiy korxonasining joriy arxiv ma'lumotlari. 2005 yil, 12-jild, 14-varaq.
[290] O'zLiDeP "Ayollar qanoti"ning joriy arxivi materiallari, 2003-2013 yillar hisoboti. 2018 yil, 21-jild, 35-varaq.

oydan 6 oygacha qayta o'qitilib, malakasi oshiriladi, amaliy yordam beriladi. Hozirda Qoraqalpog'istonning Nukus shahrida "Mashxura"ning yana bir filiali qurilmoqda[291].

M.Yusupova "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasiga a'zo bo'lib, o'z faoliyatida hamkorlikni yo'lga qo'ygan, jumladan, assotsiatsiya tomonidan 2013-yilda Norvegiyadan, 2019-yilda Germaniyadan kelgan mutaxassislar muassasadagi pedagoglar uchun mahorat darslarini o'tganlar va muntazam ravishda tajriba almashib keladilar.Muassasa tomonidan nochor xotin-qizlarga yordam beriladi, bepul o'qitiladi yoki chegirmalar amalga oshiriladi. Bugungi kunda markazda 24 ta xodim faoliyat olib boradi. Tajribali tadbirkor Mashhura Yusupova "Eng yaxshi tadbirkor ayol" sifatida ko'plab sovrinlarni qo'lga kiritgan[292].

"Mashhura" o'quv markazi 25 yillik faoliyati davomida ko'plab xotin-qizlarni kasbga o'qitish va qayta tayyorlash, ular bandligini ta'minlashga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Ayniqsa, markaz boshqa o'quv markazlarining faoliyat boshlashi uchun "biznes-inkubator" rolini ham bajarib kelmoqda. Jumladan, hozirgi kunda o'z faoliyatini mustaqil olib borayotgan va viloyatlarda ham filiallariga ega bo'lgan Toshkent shahridagi "Iffatli kelin" xususiy korxonasining faoliyatini yo'lga qo'yishda ham tajriba maktabi hisoblangan "Mashhura" o'quv markazining hissasi katta[293].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi "Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari

[291] "Mashhura" xususiy korxonasining joriy arxiv ma'lumotlari. 2019 yil, 12-jild, 27-varaq.
[292] "Mashhura" xususiy korxonasining joriy arxiv ma'lumotlari. 2019 yil, 2-jild, 11-varaq.
[293] "Iffatli kelin" xususiy korxonasi rahbari o'rinbosari Barno Karimova bilan 2019 yil 15 martdagi intervyuda olingan ma'lumot.

to‘g‘risida”gi PF-1987-sonli Farmoni[294]ga muvofiq kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tavsiflab qo‘yildi. Farmonga asosan yakka tartibdagi tadbirkorlar (yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini olib boruvchi jismoniy shaxs), mikrofirmalar (xodimlarining o‘rtacha yillik soni ishlab chiqarish sohasida 20 kishi, xizmat ko‘rsatish va boshqa ishlab chiqarishga bog‘liq bo‘lmagan sohalarda 10 kishi, umumiy ovqatlanishda 5 kishi) va kichik korxonalar (oziq-ovqat, engil sanoat va qurilish sanoatida xodimlar o‘rtacha yillik soni 200 kishi va boshqa sohalarda 100 kishi) kichik biznes subyektlari sifatida ro‘yxatdan o‘tkazildi[295]. Bu esa kichik biznes va tadbirkorlik rivojida muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston davlat statistika qo‘mitasida tadbirkor ayollar haqidagi ma’lumotlarning mavjud emasligi, kichik biznes va tadbirkorlik sohasiga oid ma’lumotlar 2000-yildan boshlanganligi, biroq ularda tadbirkor ayollar boshqarayotgan korxonalar, xususiy korxonalarning xududiy taqsimotida ayollarga qarashli korxonalarning ulushi, mamlakat ichki mahsulotida, aholining bandligini ta’minlashda, moliyaviy faoliyatlarda ayollar korxonalarining xolati haqidagi hisobotlar yuritilmaganligi 2000–2009-yillarda xotin-qizlarning kichik biznes va tadbirkorlikdagi faoliyatlarini taxlil etishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi[296]. Asosan ma’lumotlarni “Tadbirkor ayol”

[294] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi “Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘ risida”gi PF-1987-sonli Farmoni //Xalq so‘zi, 1998 yil 10 aprel.

[295] O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik. – Toshkent:O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi Statistik materiallar tarqatishni texnik qo‘llab-quvvatlash sho‘‘basi, 2017. – B.18.

[296] Достижения и перспективы развития женского предпринимательства в Республике Узбекистан.Европейская Экономическая Комиссия ООН– С.19(Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www.unece.org/ (murojaat qilingan sana 17.02.2019).

ishbilarmon ayollar uyushmasi, O‘zbekiston Xotin qizlar qo‘mitasi, Fermerlar uyushmasi, Tadbirkorlar Palatasi, O‘zLiDeP “Ayollar qanoti”ning joriy arxiv materiallaridan va hisobotlaridan olish mumkin bo‘ldi. Shu bilan birga vaqtli matbuot va internet saytlaridan foydalanildi.

2000-yildan boshlab kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga mikrokredit berish tizimining yo‘lga qo‘yilishi, 2006-yilda mamlakatda Mikrokreditbank tashkil etilishi soha rivojida muhim rol o‘ynadi. 2003-yilda esa Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O‘zLiDeP faoliyat boshladi va partiyaning “Ayollar qanoti” O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Tadbirkor ayol” O‘zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi kabi bir qator ayollar manfaatlarini himoya qiluvchi nodavlat tashkilotlari qatorida xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshira boshladi. Fermerlik va tadbirkorlikka ko‘maklashish maqsadida, 2004-yilda tashkil etilgan “Mehr nuri” jamg‘armasining 2004–2008-yillardagi fermerlik va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash Dasturiga asosan kichik korxonalar, tadbirkorlik subyektlari va fermerlar uchun 365 million foizsiz kreditlar va grantlar ajratilib, undan 33 million so‘mi kam ta’minlangan va ko‘p bolali ayollarga berildi.[297].

2004-yilda O‘zbekiston Savdo sanoat palatasi ham tashkil etildi, tadbirkorlik va biznesni rivojlantiish, tadbirkorlarning chet ellik hamkorlar bilan aloqalarini yo‘lga qo‘yish va tashqi bozorga chiqish, yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etishga chet el investitsiyalari-

[297] Достижения и перспективы развития женского предпринимательства в Республике Узбекистан.Европейская Экономическая Комссия ООН– С.19(Elektron resurs)..Kirish rejimi: http://www.unece.org/ (murojaat qilingan sana 17.02.2019).

ni jalb etish bo‘yicha faoliyat boshladi. Har yili tadbirkorlar, fermerlar va hunarmandlarning ko‘rik-tanovi “Tashabbus”ning o‘tkazilishini ta’minlab, 2008-yilda ko‘rik-tanlovda 7000 dan ortiq tadbirkorlar qatnashdi[298]

2006-yil 1-yanvar xolatiga Tadbirkorlar Palatasining jami 6389 nafar a’zolarining 23,1 foizini ayollar tashkil etib, ularning 7,4 foizi Toshkent viloyatiga va 2,9 foizi Samarqand viloyatiga to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-maydagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi[299] Qonuniga asosan, tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatga olishda hujjatlashtirish ishlari ikki marta qisqartirildi, 2005-yil 5-oktyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyati uchun ruxsat berish tartib va tamoyillarini qisqartirish to‘g‘risida”gi[300] Prezident Farmoniga asosan, tadbirkorlar uchun mavjud byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida korxonalarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshirish faqat soliq idoralari tomonidan amalga oshirilishi, soliq to‘lash va valyuta borasida jinoyat ishi bor, deb gumon qilingan taqdirdagina korxonalarda soliq va valyuta jinoyatlariga qarshi kurash departamenti tomonidan tekshiruvlar o‘tkazilishi, korxona egasi bo‘lgan tadbirkor davlatga etkazilgan zararni qoplasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi belgilab qo‘yildi.

BMT Bosh Assambleyasining 2000-yil sentyabrda qabul qilingan Mingyillik rivojlanish dasturiga asosan xotin-qizlar haq-huquqlari va gender tengligini ta’min-

[298] O‘sha joyda.
[299] O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolotlari to‘g‘risida”gi 2000 yil 25 maydagi Qonuni(Elektron resurs). Kirish rejimi: http://lex.uz>docs. (murojaat qilingan sana 5.11.2018 yil)
[300] O‘sha joyda.

lash imkoniyatlarini kengaytirish rivojlanishning asosiy maqsadlaridan biri ekanligi etirof etilib, O‘zbekistonda aholi turmush sharoitini yaxshilash hamda iqtisodiy farovonlikni oshirishdagi faoliyatini o‘rganish maqsadida 2008-yilda so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma Xalqaro mehnat tashkiloti, BMT Yevropa uchun iqtisodiy komissiyasining qo‘shma loyihasiga va Markaziy Osiyo davlatlari uchun alohida Dasturiga asosan O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi bilan hamkorlikda tashkil etilib, unda Toshkent, Samarqand shahri va qishloqlaridan shaxsiy biznesiga ega bo‘lgan, tadbirkorlikning savdo, maishiy xizmat sohalarida band bo‘lgan ayollar hamda kichik korxona egalaridan 100 nafar tadbirkor ayol qatnashdi. So‘rovnomada qatnashgan Samarqand viloyatidan 40 foiz va Toshkent viloyatidan 54 foiz xotin-qizlar kredit olganlar[301].

Bu davrda davlat tomonidan tadbirkorlikni, xususan xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi va ular sohani bosqich-ma-bosqich rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi. Biroq yaratilgan imkoniyatlar xotin-qizlarni tadbirkorlikka to‘la yo‘naltirish uchun etarli emas edi. Mikrokreditlar olishda qiyinchiliklar mavjudligi, ko‘pchilik xotin-qizlar o‘z huquqini yaxshi bilmasligi va qonunlardan etarli darajada xabardor emasligi shular jumlasidandir.

2000–2009-yillarda qishloq xo‘jaligining paxta, don, poliz mahsulotlari, bog‘dorchilik, chorvachilik, parrandachilik, sohalarida ayollar tadbirkorligi rivojlandi.

[301] Достижения и перспективы развития женского предпринимательства в Республике Узбекистан.Европейская Экономическая Комссия ООН– С.24(Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www.unece.org/ (murojaat qilingan sana 17.02.2019).

Shuningdek, qishloq ayollari tikuvchilik, hunarmandchilik, qandolatchilik va turli xil non mahsulotlari etishtiruvchi mini sexlar, kundalik oziq-ovqat savdosi bilan shug'ullanuvchi do'kon, oshxona hamda tamaddixonalar, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, ayniqsa, xotin-qizlar uchun "Go'zallik salon"lari faoliyatini yo'lga qo'yish sohasida faollashdilar. Ilgari aholi uchun bozorlar va maishiy xizmat ko'rsatish shahobchalari tuman markazlarida sanoqli bo'lgan bo'lsa, endilikda shahar va tumanlardagi katta-katta mahallalar bilan birgalikda odatiy mahallalarda "xududiy guzar"lar paydo bo'ldi. Kasbga yo'naltirish bo'yicha faoliyat olib borayotgan ta'lim markazlarida ayollar sartaroshligi, tikuvchilik, pazandachilik, turli buyumlar yasash va mehmon kutish odobiga o'qitish kurslari tashkil etildi, ularda asosan balog'at yoshiga etgan qizlar o'qitildi[302]. Ota-onalar voyaga etgan qizlarini o'quv markazlarining tikuvchilik, pazandachilik, hamshiralikka tayyorlov kurslariga berib, hunarli qilishga bo'lgan qiziqish va e'tibor tobora ortib bordi. Agar 2000-yilda respublikada faol aholi soni 8983 ming kishini tashkil qilib, unda xotin-qizlar ulushi 3955,1 ming nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 2009-yilga kelib esa 11328,1 ming kishini tashkil qilib, unda xotin-qizlar ulushi 5200,3 ming nafarni tashkil qilgan[303].

So'rovnomada qatnashgan tadbirkor ayollarning 79 foizi o'zbek, 4 foizi tojik, 5 foizi rus va 12 foizi boshqa millat vakillari bo'lib, Samarqand viloyati bo'yicha oliy

[302] Достижения и перспективы развития женского предпринимательства в Республике Узбекистан.Европейская Экономическая Комссия ООН – С.19(Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www.unece.org/ (murojaat qilingan sana 17.02.2019).

[303] O'zbekistoRespublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 2018 yilda tayyorlangan maxsus ma'lumot.

ma'lumotlilar – 42 foiz, o'rta-maxsus ma'lumotlilar – 44 foiz, Toshkent viloyati bo'yicha oliy ma'lumotlilar – 80 foiz, o'rta-maxsus ma'lumotlilar – 14 foizni tashkil etganligi ularning ma'lumot darajasi yuqori bo'lganligini ko'rsatadi[304].

Samarqand viloyatida 40 foiz yakka tartibdagi, 36 foiz oilaviy korxonalar bo'lib, ular oila a'zolari va dala xizmatchilaridan iborat. Toshkent viloyatida 10 foiz oilaviy korxona, 32 foiz mas'uliyati cheklagan jamiyatlar mavjud edi. Samarqanddagi 64 foiz va Toshkentdagi 62 foiz korxona xotin-qizlarning shaxsiy tashabbuslari bilan tashkil etilganligi ularning o'z bizneslarini olib borishga tayyor ekanligidan dalolat beradi[305].

Shunga qaramay, ayollarning tadbirkorlik sohasidagi faoliyatlariga g'ov bo'lgan qator muammo va kamchiliklar, xususan, 2008-yilda Samarqandda nazorat qiluvchi organlar va banklar tomonidan tadbirkorlarning huquqlarini buzish holatlari aniqlangan. 2389 nafar mas'ul xodim adliya organlari tomonidan ogohlantirilgan, ko'rilgan choralar natijasida 522 nafar xodim ma'muriy jazoga tortilib, ularning 65 nafari vazifasidan bo'shatilgan, xokimiyat va nazorat qiluvchi organlarning 127 ta qarori bekor qilingan, 5,8 milliard so'mdan ziyod mablag'lar tadbirkorlarga qaytarib berilgan[306]

2008-yilning birinchi yarmida xotin-qizlar uchun 138,6 ming yangi ish o'rinlari yaratildi, ayniqsa aholi

[304] Достижения и перспективы развития женского предпринимательства в Республике Узбекистан.Европейская Экономическая Комссия ООН– С.19(Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www.unece.org/ (murojaat qilingan sana 17.02.2019).

[305] Достижения и перспективы развития женского предпринимательства в Республике Узбекистан.Европейская Экономическая Комссия ООН – С.23(Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www.unece.org/ (murojaat qilingan sana 17.02.2019).

[306] O'sha joyda.

zich joylashgan hududlar, jumladan, Farg‘ona vodiysi, Qashqadaryo, Buxoro va Samarqand viloyatlarida 71 mingta ish o‘rni kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga va 25 mingtasi kasanachilikni tashkil etish hisobiga yaratildi. Qishloq ayollariga 32 mingta mehnat daftarchalari ochilib, 17249 nafar ayol ishsiz sifatida nafaqa oldi[307].

2008-yilda respublika yalpi ichki mahsuloti 9 foizga o‘sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 12,7 foizga, qishloq xo‘jalik mahsulotlari – 4,5 foizga, qurilish ishlari – 8,3 foizga, savdo sohasida 7,2 foizga, xizmatlar sohasida 21,3 foizga o‘sish kuzatildi[308].

2008-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi hamda Mehnat va aholini ijtimoiy himoyalash vazirligining tadbirkorlikni rivojlantirish va xotin-qizlar bandligini ta’minlashdagi faoliyatlari oxirgi yillarda sezilarli darajada rivojlanganligini ko‘rsatdi.

Kichik biznes va tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi hissasi 2000-yilda – 31 foiz, 2005-yilda – 38,2 foiz, 2010-yilda – 52,5 foizga oshgani sohaning ishlab chiqarish va iqtisodiyotda, aholi farovonligini ta’minashdagi hissasi ortganligini ko‘rsatadi[309].

1991–2009-yillarda “Tadbirkor ayol” ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi tomonidan 22 ming nafar xotin-qizlar biznesga o‘qitildi[310].

---

[307] O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasining joriy arxiv ma’lumotlari. 2008 yil, 17-jild, 25-varaq.

[308] Yillik statistik to‘plam. – Toshkent:O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi Statistik materiallar tarqatishni texnik qo‘llab-quvvatlash sho‘‘basi, 2015.–B.199.

[309] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan 2018 yilda tayyorlagan maxsus ma’lumot.

[310] “Tadbirkor ayol” ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasining joriy arxiv ma’lumoti.2009 yil, 19-jild, 24-varaq.

2009-yili “Obod qishloq yili” davlat Dasturida qishloq aholisining turmush tarzini yaxshilash, ularning, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarning bandligini ta’minlash, fermerlik faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlash, sog‘ligini himoya qilish va tibbiy xizmatni yaxshilash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi.

Jahon bankining biznes sohasida koorrupsiyani nazorat qilish bo‘yicha reytingida O‘zbekiston 2006-yilda 200 ta davlat ichida 182-o‘rinni, 2007-yilda 172-o‘rinni, 2008 yilda- 170 o‘rinni egallagan. Kredit berish bo‘yicha Institutsional Investor reytingida 174 ta davlat ichida 2006-yilda 127-o‘rinni, 2007-yilda -130-o‘rinni, 2008-yilda 123-o‘rinni,iqtisodiy erkinlik bo‘yicha Heritage Boundation reytingida esa 2006-yilda 157 ta davlat ichida 140-o‘rinni, 2007-yilda 133-o‘rinni, 2008-yilda 130-o‘rinni egallagan[311]. Bu natijalar albatta, jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy samara bera boshlanganligidan dalolatdir.

Tadbirkor ayollar faoliyatining uchinchi davri 2009–2019-yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrning rivojlanish holatini tahlil qilishda O‘zbekistonda xotin-qizlarning tadbirkorlik sohasidagi faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va Germaniya bilan DAS (Deffered Acquisition Costs), ya’ni xalqaro hamkorlik bo‘yicha Jamg‘arma kassalari fondi o‘rtasidagi hamkorlik loyihasini ko‘rib chiqish ahamiyatlidir. Loyihaning maqsadi asosan, yosh qizlarga o‘z daromadlari orqali oilalarida ongli hayot kechirishlariga imkon

[311] Достижения и перспективы развития женского предпринимательства в Республике Узбекистан.Европейская Экономическая Комссия ООН – С.7(Elektron resurs). Kirish rejimi: http://www.unece.org/ (murojaat qilingan sana 17.02.2019).

berishdan iborat bo‘lib, unga ayollar nodavlat notijorat tashkilotlari, Markaziy bank va respublikada boshqa banklar ko‘mak berdilar.

Loyiha respublikaning butun hududlarini qamrab oldi. Jumladan, Qoraqalog‘iston Respublikasida mazkur loyiha 2009-yilda ishga tushirilgan bo‘lib, 1923 nafar xotin-qizlarga maslahatlar berildi, 93 ta seminarda qatnashgan 2000 nafar xotin-qizlarning 686 nafari rejali o‘yinda ishtirok etgan. 874 nafariga oilaviy byudjet kitobi berilgan, 500 nafari o‘z biznesini boshlash uchun startapga yo‘llanma olgan. 2010-yilda Toshkent, Farg‘ona, Sirdaryo, Surxondaryo va Navoiy viloyatlarida, 2012-yilda Andijon, Buxoro, Jizzax, Namangan, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida loyiha ishlari amalga oshirilgan[312].

Loyiha ishi tahliliga ko‘ra, Xorazm va Jizzax viloyatlarida – 342 ta, Qashqadaryo viloyatida – 214 ta, Navoiy viloyatida – 183 ta va Buxoro viloyatida – 147 ta seminarlar o‘tkazilgani holda, aholi zich joylashgan Andijon viloyatida – 99 ta seminar va 593 ta tadbirlar tashkil etilgan. Loyiha doirasida Farg‘ona viloyatida – 2549 ta, Xorazm viloyatida – 2209 ta va Jizzax viloyatida – 2141 ta xotin-qizlarga tadbirkorlikka oid maslahatlar berilgan[313].

2016-yilda Andijon viloyatidagi mavjud 24 mingga yaqin kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 59 foizni tashkil etib,[314] loyiha ishida faol ishtirok etgan andijonlik fermer Odinaxon Saidova pax-

[312] Muvaffaqiyat tajribalari – O‘zbekistonda xotin-qizlar uchun moliyaviy sektorni rivojlantirish//O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va Germaniyaning DAS (Deffered Acquisition Costs),Jamg‘arma kassaalari fondi o‘rtasidagi hamkorlik loyihasi misolida./ 2009. –B. 4-23.

[313] O‘sha joyda. –B.6-25.

[314] S. Tog‘aev. Tadbirkorlikni barqaror rivojlantirishning yangi bosqichi. Xalq so‘zi gazetasi. 2016 yil 11 oktyabr.

ta va bug‘doy etishtirishdagi faoliyatida 45 ta ish o‘rni, 2015-yil tibbiyot kollejida o‘tkazilgan “Tikuvchilik” rejali o‘yini ishtirokchisi Mohimbegim Abdullajonova esa tikuv mashinasi sotib olish uchun kredit olib, 4 ta ish o‘rni, Muhabbat Azizova harbiy formalar tikish yo‘lga qo‘yilgan korxonasida 50 ta ish o‘rni yaratdi[315].

Bu borada buxorolik tadbirkor Fotima Ziyadullaevaning faoliyati ham diqqatga sazovor. U 2013-yil Xotin-qizlar maslahat markazidagi “Sharbat do‘koni” rejali o‘yinida ishtirok etib, dastlab Ipoteka bankidan 18 million so‘mlik, keyinchalik 40 million, 120 million, 140 million so‘mlik kreditlar olib, bolalar ortopedik poyabzal mahsuloti ishlab chiqarish uchun 10 ta, savdo do‘koni uchun 3 ta, tayyor kiyim-kechak dizayni uchun 8 ta va tikuvchilik uchun mavsumiy 120 ta ish o‘rni tashkil qilgan[316].

O‘zLiDeP “Ayollar qanoti”ning “Oilaviy tadbirkorlikdan-mustahkam oilaga” nomli loyihasining tuman bosqichlarida esa 93 nafar xotin-qizlarning etakchi tijorat banklari tomonidan biznes rejalari moliyalashtirilib, 996 million 720 ming so‘m miqdorida kredit olishga erishildi va natijada 90 ta yangi ish o‘rni yaratilgan[317]. Xorazm viloyatidan Nigora Qo‘shjonova 2012-yildan beri Xotin-qizlar maslahat markazining rahbari bo‘lib, ko‘p tarmoqli korxonasida 22 ta ish

[315] Muvaffaqiyat tajribalari – O‘zbekistonda xotin-qizlar uchun moliyaviy sektorni rivojlantirish//O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va Germaniyaning DAS (Deffered Acquisition Costs),Jamg‘arma kassaalari fondi o‘rtasidagi hamkorlik loyihasi misolida./ 2009. –B. 4-23.

[316] Muvaffaqiyat tajribalari – O‘zbekistonda xotin-qizlar uchun moliyaviy sektorni rivojlantirish//O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va Germaniyaning DAS (Deffered Acquisition Costs),Jamg‘arma kassaalari fondi o‘rtasidagi hamkorlik loyihasi misolida./ 2009. –B. 4-23.

[317] O’zLiDeP “Ayollar qanoti”ning joriy arxivi materiallari, 2003-2013 yil hisoboti. 21-jild, 35-varaq.

o'rni yaratib, nonvoyxona, xotin-qizlar uchun fitnes mashg'ulotlarini tashkil qilgan, shuningdek, markazda tadbirkor ayollarni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlashga qaratilgan xizmatlar yo'lga qo'yilgan. 2008-yilda jizzaxlik kollej bitiruvchisi Dilnoza Turopova buxorolik kulol Baxrom Gulovdan kulolchilik sirlarini o'rganib, 2010-yilda faoliyatini boshlab, dastlabki imtiyozli kredit hisobiga mahsulotlar ishlab chiqara boshlagan va 1 ta ish o'rni yaratgan[318].

2016-yili loyihaning Qoraqalpog'iston Respublikasi Bank kollejida o'tkazilgan rejali o'yinida ishtirgok etgan Madina Matnazarova Milliy bankdan 20 million so'm kredit olib, o'z xonadonida xususiy mexmonxona tashkil qilgan, tikuvchilik soxasida kasanachilikni yo'lga qo'yib 10 nafar xotin-qizlarni ish bilan ta'minlagan. Shu bilan birga Namanganlik Xabiba Qosimova Aloqabankdan kichkina limonariysi va asalari boqish uchun 5 million so'm kredit olgan bo'lsa, Navoiylik pedagog Zebo Xazratova 2014-yilda Mikrokreditbankdan 400 million so'm kredit olib, 1 gektar maydonda issiqxona tashkil etish hisobiga 11 ta ish o'rni yaratgan[319].

Mustaqillikning 1991–2019-yillarida xotin-qizlarning kichik biznes va tadbirkorlik sohasidagi faoliyatlarini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

---

[318] Muvaffaqiyat tajribalari – O'zbekistonda xotin-qizlar uchun moliyaviy sektorni rivojlantirish//O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va Germaniyaning DAS (Deffered Acquisition Costs), Jamg'arma kassaalari fondi o'rtasidagi hamkorlik loyihasi misolida./ 2009. –B. 4-31.

[319] Muvaffaqiyat tajribalari – O'zbekistonda xotin-qizlar uchun moliyaviy sektorni rivojlantirish//O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va Germaniyaning DAS (Deffered Acquisition Costs), Jamg'arma kassaalari fondi o'rtasidagi hamkorlik loyihasi misolida./ 2009. –B. 4-31.

